
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI

BUXORO VILOYAT HOKIMLIGI

**ZAMONAVIY
TILSHUNOSLIKNING MILLIY
YUKSALISH VA ILMIY
TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI
O'RNI**

(O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 32 yilligiga
bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari)

BUXORO – 19.10.2021
«DURDONA» NASHRIYOTI

A 90

Zamonaviy tilshunoslikning milliy yuksalish va ilmiy tafakkur taraqqiyotidagi o'рни [Matn] : maqola va tezislari to'plami / D.B. Axmedova.-Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона, 19.10.2021.-266 b.

UO'K 81(043.2)

КБК 81.2

MAS'UL MUHARRIR:

Tosheva D.A. – f.f.f.d. (PhD)

TAQRIZCHILAR:

Ahmedov A.R. – f.f.n., dots.

Rajabov D.Z. – f.f.d.(DSc), dots.

Eshonqulov H.P. – f.f.d.(DSc), dots.

TO'PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Axmedova D.B. – f.f.f.d (PhD)

Mirxanova G.R. – katta o'qituvchi

Saidova R.A. – f.f.f.d (PhD)

Ushbu Respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqola va tezislari to'plamida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganining 32 yilligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5850-son Farmonida ko'zda tutilgan "O'zbek tili bayrami kuni"ni keng nishonlash, jumladan: o'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzini oshirish va qo'llanish ko'lamini yanada kengaytirish shuningdek o'zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi mavqeyini yanada yuksaltirish, davlat tilining rivojlanishi, tarixiy taraqqiyoti, istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, o'zbek nazariy tilshunosligi, leksikologiya hamda leksikografiyasi, til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar va amaliy filologiyani rivojlantirish, o'zbek tili ta'limi muammolari, davlat tilida ish yuritish va nutq madaniyati masalalari borasida fikr va tajriba almashish, sohada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy, amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

MUNDARIJA

No	Muallif(lar)	Mavzu	Bet
1	Daminov Mirzohid	Til – millatning ruhi	8
2	Zaripov Botir	Davlat tili – milliy taraqqiyot va sogʻlom tafakkur mezonini	11
2	Xamidov Obidjon	Oʻzbek tilining nufuzi va ravnaqi	14
3	Qirgʻizboyev Abdugʻaffor	Ona tilimiz rivoji va taraqqiyoti yoʻlida	17
4	Qahhorov Otabek	Til – buyuk va qadrlil neʻmat	19
5	Huseynova Abira	Sen millat mulkisan – ona tilim	22
6	Azimov Inomjon	Taʻlim tizimida davlat tilini oʻqʻitish muammolari	25
7	Rustamov Akbar	Til – inson kamolotining koʻzgusi	31
8	Jabborov Nurboy	Til – milliy ruh manbayi	34
9	Abuzalova Mehriniso	Davlat tiliga sadoqat Vatanga sadoqatdir	45
10	Pardayev Azamat	Betakrorimsan, yagonamsan, navqiron ona tilim!	50
11	Bahriddinova Bashorat	Milliy oʻzligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli	55

1-SHOʻBA: TILSHUNOSLIKNING ANʻANAVIY VA ZAMONAVIY YOʻNALISHLARI

Muallif (lar)	Mavzu	Bet
Axmedova D.B., Hamidova I.O.	Tilga sistem yondashuvning lingvistik konsepsiyalari	59
Gʻaybullayeva N.I.	Tibbiy birliklar platformasini yaratishning amaliy ahamiyati	63
Muhiddinova F.	Huquqiy til: uslub va huquqshunoslik nutqining oʻzaro uygʻunligi	70
Saidov Y.S.	Turkiy tillar oilasida oʻzbek tilining oʻrni	76
Mirxanova G.R.	Oʻquv lugʻatchiligida sinonim lugʻatlarning oʻrni	82
Rustamova Sh.	Lisoniy vositalarning tanlanishida nutqiy vaziyatning oʻrni	86

Saidova R.A.	Badiiy matnni semiotik tahlil qilishda lingvistikaning o'rnini	92
Amonov U.S.	Abdurauf Fitrat paremik janrlardan biri haqida	98
Qurboniyozov G.	Zahiriddin Muhammad Bobur – ona tilining bilimdoni	102
Sharipova M.	“Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llangan “qo‘y” lug‘aviy ma‘noviy guruhi tasnifi	108
Mirsharipova Sh.	Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida ayollar obrazi	112

**2-SHO‘BA: DAVLAT TILINING SOFLIGINI SAQLASH,
LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH
MUAMMOLARI**

Muallif (lar)	Mavzu	Bet
Mengliyev B.R.	Davlat tili – ijtimoiy taraqqiyot mezonini	116
Jo‘rayeva B.M.	Ajdodlardan meros ona tili bu, Avlodlar-chun e‘zoz ona tili bu	119
Ro‘zimurodova D.D.	O‘zbek tili va uning terminologiyasi	126
Jabborova G.J.	Происхождение узбекского языка	129
Shodiyeva D.Y.	Компетентностный подход к образованию требование современности	131
Salixova Z.A.	Формирование читательских компетенций (на примере литературного чтения)	140
Xolmurodov I.	Turkiy tillarga mansub ba‘zi toponimlar xususida (Amudaryo tumani misolida)	144
To‘xtayeva D.	Tilshunoslikda maqol va matalga munosabat	150
Babamurodova L.X.	Роль языка и фольклора в нравственном и эстетическом воспитании личности	155
To‘yev F.E.	Milliy g‘ururimizni yuksaltirayotgan bebaho ne‘mat	161
Hasanova S.S.	O‘zbek tilim – jonajon tilim	165

**3-SHO'BA: O'ZBEK TILI RAQAMLI LINGVISTIK
RESURSINING TAKOMILLASHTIRILISHI**

Muallif(lar)	Mavzu	Bet
Tosheva D.A.	A value of oral national creativities for keeping purity of the national language	168
Salixova Z.A., Saidova S.O.	Читательская компетенция у будущих педагогов	171
Quvvatova D.H., Sharipova Sh.	Cho'lponning "Oydin kechalarda" hikoyasi va tizimli tahlil	176
Xalilova R.R.	Virtual maydonda nutqiy muloqotning o'rni va ahamiyati	183
Maxmudova S.X., Fayzullayev M.B.	"Ostona" lingvomadaniy birligining milliy qadriyatlarda voqelanishi	186

**4-SHO'BA: ONA TILI METODIKASI RIVOJI – XALQ TA'LIMI
TIZIMI ISLOHIDIR**

Muallif (lar)	Mavzu	Bet
Yuldasheva D.N.	Мaktabda ona tili ta'limi: talab va ehtiyoj	190
To'yeva Z.N.	Баён – она тили таълимининг бош мақсади билан ҳамоҳанг	194
Yusupova D.Y.	Н. Худойберdiyeva she'riyati tilini o'rganish	199
Boltayeva M.Sh., Ne'matova D.	Эффективность применения интерактивных методов на занятиях в высших учебных заведениях	204
Ravshanov A.	Хуқуқ ва тил илмларининг тараққиёти	208
Boltayeva M.Sh., Boltayeva M.Sh.	Инновационные методы преподавания русского языка и литературы	213
Ubaydova D.A., Abulova M.O.	Эффективность использования интерактивных методов обучения в преподавании русского языка	218
Kanaatova G.O. Amerlan Y.S.	Интеграция в учебном процессе	223
Sharipova D.Q.	Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarga grammatik bilimlar berishda izchillik	228

Djabborova M.Q.	Boshlang'ich ta'limda filologik tahlil malakasini shakllantirish	230
------------------------	--	-----

5-SHO'BA: XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING DOLZARB JIHATLARI

Muallif (lar)	Mavzu	Bet
Kadirova N.A., Nurulloyeva Sh.	Improving teaching foreign language	233
Adizova N.B., Muzaffarova S.	Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb jihatlari	236
Pulatova M.T., Hasanova A.	O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishning ahamiyati va dolzarbligi	240
Ergasheva D.K.	Использование песен на уроке русского языка для развития лексических навыков	242
Aglamov T.X.	Воспитание у студентов интереса к изучению русского языка	245
Turayeva X.T.	Мотивация изучения иностранного языка	249
Mamatohunova Y., To'xtamurodova N.	Xorijiy tillarga ko'rsatilayotgan e'tibor barcha sohalarning ravnaqi uchun poydevordir	252
Ro'zimurodova Z.Z., Aslonova Sh., Ergasheva F.	Xorijiy tillarni o'rgatishda adabiyotning o'rni	255
L.M.Mustafojeva	Использование информационных технологий в образовательном процессе вуза	259
Quvvatova D.H.	Ona tilim	263

KIRISH

TIL – MILLATNING RUHI

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tub islohotlarning markazida iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlar turganligi o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, mamlakatimizning rivojlanishida, inson tafakkurining o'zgarishida fan, ta'lim, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat, shuningdek, o'zbek tili va til madaniyatining rivojlanishi xalqimizning avloddan avlodga o'tib kelayotgan tarixiy urf-odatlarini, udumlari, an'analari, tartib-qoidalar, turmush tarzi va azaliy qadriyatlarining asosiy mezoni sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlarning pirovard maqsadi – inson huquqlari va manfaatlari to'la-to'kis ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat barpo etishdan iboratdir. Insoniyat tarixida tilga doimo katta e'tibor berib kelingan: "Shu zamon donishmandlarining biridan xalqning ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va ilmiy jihatdan yuksalayotganini qanday bilish mumkinligi to'g'risida so'ralganda, donishmand uch narsani sanagan ekan. Birinchisi, o'sha xalqning qahramonlik eposi jonli ijroda yozib olingan bo'lishi, ikkinchisi, o'sha xalq tiliga oid izohli lug'at tuzilgan bo'lishi, va nihoyat, shu xalqning Milliy ensiklopediyasi mavjud bo'lishi lozim ekan". Shukurki, bizda har uchulasi bor.

XX asr oxirida tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarash g'oyasi keng yoyildi. Bu bejizga emas. Chunki jahondagi ko'pgina mamlakatlar o'z mustaqilligiga erishib, davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ham ega bo'ldi. 1989-yil 21-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasining muhokamasidan so'ng o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi va bu tarixiy hodisa mustaqillikdan ikki yil oldin ro'y berdi. Til haqidagi qonunning qabul qilinishi ona tilimiz bo'lmish o'zbek tilining muhofazasini ta'minladi. Hayotimizning barcha sohalarida ona tilimizdan keng qo'llanila boshlandi. O'zbekistonning mustaqil suveren davlat

sifatida dunyo xaritasidan joy olishi esa mazkur qonunning kuchini yanada oshirdi. Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma’naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. U millatni yagona xalq sifatida o‘z atrofida birlashtiradi va dunyoda borligini ta’min etadi. Har bir millatning o‘z Vatani, oilasi bo‘lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo‘ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlil bo‘lsa, ona tili ham shu qadar aziz va muqaddasdir. Hattoki, go‘dak ham o‘z vatanini, ota-onasini, dunyoni o‘z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o‘rni beqiyos bo‘lganidek, insonning hayotda o‘z o‘rnini topishida, kamolotga yetishida tilning o‘rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg‘u, mehr-muhabbat alanga oladi. Turk dunyosining buyuk ma’rifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek: “Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidir. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug‘urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur”. Suvsiz daryo bo‘lmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub bo‘lgan til, o‘sha millat bilan yashaydi va bardavom bo‘ladi.

1995-yilning avgustida “Davlat tili haqida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shuningdek, 2019-yili davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi va Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish Departamenti tashkil etildi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatimizning barcha jabhalarida davlat tili – o‘zbek tilida to‘laqonli amal qilinishi yo‘lidagi islohotlarning debochasi bo‘ldi.

Darhaqiqat, til har bir millatning madaniyati, urf-odatlarini, uning taraqqiyotini ko‘rsatuvchi oyna, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, Abdulla Avloniy aytganidek: “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.

VA ILMIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI O'RNINI

Tili rivojlanmagan elning ruhida yuksalish bo'lmaydi, u o'zligidan, milliylikidan tobora uzoqlashaveradi. Milliy til xuddi bayroq, madhiya, gerb kabi qadrlil va aziz. Unda har bir millatning ruhi, dunyoqarashi aks etadi. Bugungi kunda mamlakatimiz bo'ylab nishonlanayotgan "O'zbek tili bayrami" yana bir bor ona tilimizning beqiyos ahamiyatini, tarixiy qadr-qimmatini ko'z oldimizda namoyon etdi. "Davlat tili haqida"gi qonunning ahamiyati, shuningdek, o'tgan davr mobaynida ona tilimizning nufuzini oshirish borasida bajarilgan ishlar millatimizning yuragi, ruhi, tom ma'noda joni hisoblangan ona tilimizni asrashdan iborat. Til – millat ko'zgidir. Til – millatning buyuk boyligi, bebaho xazinasil, tunganmas mulkidir. So'z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarining tili biz o'rganayotgan shu tilning asosi hisoblanadi. Buyuk adabiyoti bo'lgan xalqning buyuk tili ham bo'ladi. Insonning qanday ma'naviyatga ega ekanini uning tilidan, chiroyli nutqida namoyon bo'ladi. Til millatning buyuk boyligi, bebaho xazinasil, tunganmas mulkidir.

Oldimizda turgan muhim vazifalardan biri o'zbek tilini dunyo tillari qatoridan joy olishini ta'minlashdir. O'tgan davr mobaynida biz ona tilimizning barcha bo'limlarini muayyan darajada o'rgandik, o'rganyapmiz. Endi tilni shunchaki aloqa vositasi sifatida emas, uni millat nufuzi sifatida ko'tarishimiz kerak. Bu kabi anjumanlar ana shu maqsad yo'lida ilk qadam bo'lishi lozim.

Mirzohid Daminov
BuxDU PI direktori

DAVLAT TILI – MILLIY TARAQQIYOT VA SOG‘LOM TAFAKKUR MEZONI

Ma'lumki, har qanday davlat mustaqilligining belgilaridan biri uning davlat tiliga ega ekanligidadir. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va davlat tili haqidagi qonunning joriy etilishi mustaqilligimiz poydevoriga asos bo'ldi. Istiqlol sharofati bilan o'zbek tilining mavqei yanada tiklandi, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amal qilinishiga katta imkoniyatlar yaratildi. Xullas, barcha jabhalarda "Davlat tili haqida"gi qonunning ijrosi hayotga izchil targ'ib etib kelinmoqda.

"Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin".

Shavkat Mirziyoyev

Milliy tilga e'tibor va ehtirom millatsevarlik, vatanparvarlik, oliyjanoblikning yorqin ifodasi. Milliy til – milliy urf-odat, qadriyatlarni, milliy ma'naviy meros-manbalarni bilish, o'zlashtirish, yetkazib berish, targ'ib etishda, o'zlikni anglash, anglatishda birlamchi vosita. O'z milliy tiliga muhabbati yo'q, o'zga tillarga ehtiromi yuksak insonni millat vakili, vatanparvar shaxs deb atash mumkinmi? Til millatga, jamiyatga, Vatanga daxldor oliy tushuncha. Shu boisdan bu borada ehtiyotkor bo'lish, ajdodlardan meros buyuk ne'mat ildiziga bolta urmaslik talab qilinadi. So'z mulkining sulтони Alisher Navoiy bobomiz "Ko'ngil mahzanining qulfi til va ul qulfning kalitin so'z bil", ya'ni inson qalbining xazinasining kaliti so'zdir, deganlarida tilning nainki muloqot, balki dillarni bog'lovchi vosita ekanligiga e'tibor qaratgan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi tarixi, ko'hna va

VA ILMIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI O'RNINI

serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan.

1989-yilda qabul qilingan qonunga asosan o'zbek tili O'zbekiston Respublikasida yagona davlat tili sifatida tan olindi. 1995-yil 21-dekabrda qonun yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risidagi qonuni qabul qilingan kunni bayram etib nishonlash to'g'risida 2020-yil 23-martda Oliy Majlis qonunchilik palatasining qonuni qabul qilindi.

Shunday ekan, o'zbek adabiy tilni asrash va uni rivojlantirish har birimizning burchimiz. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va bu davlatimizning asosiy qonunida mustahkamlab qo'yilishi xalqimiz tarixida buyuk voqea bo'lganligi shubhasiz. O'zbek tili davlatimiz ramzlari qatorida turadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi, bu timsolga ehtirom ko'rsatishni yurtimizdagi, millatidan qat'iy nazar, barcha kishilar o'zlarining fuqarolik burchi deb biladi. Ayni paytda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillarining tillari va milliy qadriyatlarining rivoji uchun tegishli sharoitlar yaratilgan.

Til – millat qiyofasi, ma'naviy boyligimiz timsoli. Til tufayli xalq va elatlarning madaniy urf-odatlarini saqlanib qoladi. Qachonki bolalar o'z ona tillarida o'qishni to'xtatar ekan, o'sha til yo'qolish sari yuz tutadi. Tillarni saqlab qolish bu o'sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining boqiyiligini anglatadi. Til insonning birlamchi ehtiyoji, anglash, so'zlash, aloqa-munosabat vositasi bo'lgani bois hamisha jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan bo'lib kelgan. Jumladan, o'zbek tili o'zbek millatining uzoq tarixiy ildizlariga, o'z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadriyatli, ulkan ma'naviy yutug'idir. Tajribalardan ayonki, ko'p tilni bilish – rivojlanishning ilg'or qonuniyati, muvaffaqiyat garovi. Ammo o'z milliy tilingni unutish, o'zga tillar bilan chog'ishtirish, qorishtirish evaziga emas! O'zga tillarni o'rganish orqali taraqqiyotga erishishni yoqlab chiqqan ma'rifatparvar jadidlar ham bu borada ehtiyotkor va mas'uliyatli bo'lishgan. Xususan, Abdulla Avloniy o'z qayg'usini "Milliy tilni yo'qotmak

millat ruhini yo‘qotmaktur. Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan kun unutmak va yo‘qotmaktadurmiz. Tilimizning yarmiga arab, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmaktadurmiz... Zig‘ir yog‘i solub moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur”, degan o‘tli fikrlarida ta’sirchan oshkor qilgan. Bu fikrlar ayni kunda yana ham dolzarblashmoqda.

Mutaxassislarning so‘zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki haftada bitta til yo‘qolib bormoqda. Bu o‘z navbatida o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqlarning yo‘qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so‘zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so‘zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingdan ortiq til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizi yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so‘zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo‘lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so‘zlashuvchi aholining 80 foizi hamon o‘z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta’lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo‘q. Internetdan foydalana olmaydigan tillar haqida-ku aytmasa ham bo‘ladi. Chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o‘z tillaridan ko‘ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo‘lmoqda. Bugun internet tilining 81 foizi ingliz tiliga to‘g‘ri keladi. To‘g‘ri, avvallari ham tillar paydo bo‘lgan, muomalada bo‘lib, ma’lum vaqtdan so‘ng yo‘q bo‘lib ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jadallik bilan yo‘qolishi tarixda kuzatilmagan. Yo‘qolib ketish xavfida bo‘lgan tillarning saqlab qolish yo‘lida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta’minlashdan iboratdir. Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlarini saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o‘tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Tilshunoslar yo‘qolib ketish arafasida turgan tillarni saqlab qolishning imkoniyatlari hozircha qo‘ldan boy berilmaganini aytishadi. Tillarni saqlab qolish

VA ILMIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI O'RNINI

uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta'lim tizimida keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so'ng hozir muamolada bo'lgan tillarning o'ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

Xulosa qilib aytganda, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til – millat ko'zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Til yashasa, millat yashaydi. Zero, rus tarixchisi Skobelev aytganidek: "Millatni yo'q qilish uchun u yerga qurol ko'tarib borish shart emas, uning tilini, ma'naviyatini, adabiyotini yo'q qilish kerak, shunda millatning o'zi yo'q bo'lib ketadi" degan fikri naqadar to'g'ri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Botir Zaripov
Buxoro viloyati hokimi

ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ НУФУЗИ ВА РАВНАҚИ

Биз янги Ўзбекистонни, янги Ренессанс пойдеворини барпо этишдек эзгу мақсадларимизга эришишда, ҳеч шубҳасиз, она тилимизнинг ҳаётбахш кудратига таянамиз.

Чунки, неча асрлар оша аждодларимиздан бизга безавол ўтиб келаётган она тилимизнинг равнақи ва истиқболи ҳақида қайғуриш – бу миллатнинг ўзлигини англаши, унинг маънавий камолотини юксалтириш учун кураш демакдир. Давлат тилининг обрў-эътибори – бутун халқ, бутун жамиятнинг обрў-эътиборидир.

ЮНЕСКО маълумотиغا кўра, хозирги кунда дунёда 6 минг 909 тил мавжуд бўлиб, улардан 200 га яқини давлат тили мақомига эга. Улар орасида она тилимиз-ўзбек тилининг ҳам борлиги қалбимизни фахр-ифтихорга тўлдирди. Инсон қалбига жамики эзгу фазилятлар она алласи, она тилининг

бетакрор жозибаси орқали сингади. Ўзликни англаш, миллий онг ва қадриятлар, авлодларни бир-бирига руҳий ва маънавий жиҳатдан боғловчи восита бу тилдир.

1989 йилнинг 21 октябрида ўзбек тилига Давлат тили мақоми берилиши том маънодаги жасорат ва истиқлол сари қўйилган илк қадам сифатида улкан аҳамиятга эга. Истиқлол йилларида она тилимизнинг нуфузини янада ошириш, оммавий муомалада адабий тил меъёр ва қоидалари бузилишининг олдини олиш борасида амалга оширилган аниқ мақсадли ишлар ўз самарасини берди. “Давлат тили ҳақида”ги қонунга асосан иш юритиш, таълим-тарбия, оммавий ахборот воситалари, ноширчилик соҳаларида ўзбек тили фаол қўлланилмоқда, ўзаро мулоқот воситаси сифатида мавқеи тобора ошмоқда.

Дарҳақиқат, тилимиз шу даражага етишишига минглаб аждодларимизнинг машаққатли ҳаёти, чексиз меҳнати ётади.

2019 йил 4 октябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонунини қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги қарори билан кенг миқёсида маънавий маърифий чора-тадбирлар амалга оширилди.

2019 йил 21 октябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони қабул қилинди. Ушбу фармон билан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тузилмасида Давлат тилини ривожлантириш департаменти ташкил этилди. Шунингдек ушбу фармон билан Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари, Маданият вазирлиги, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси, Республика маънавият ва маърифат маркази ва кенг жамоатчиликнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган кун 21 октябрь санасини “Ўзбек тили байрами куни” деб эълон қилиш тўғрисидаги таклифи маъқулланди.

VA ILMİY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI O'RNINI

2020 йил 20 январда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг “Мамлакатда давлат тилида иш юритишни самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 34-сонли қарори қабул қилиниб ушбу қарор билан Давлат бошқаруви органлари, хўжалик бирлашмалари ҳамда Қарақалпоғистон Республикаси Вазирлар кенгаши, вилоятлар, туман ва шаҳар хокимликлари тузилмаларида раҳбарнинг маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини таъминлаш масалалари бўйича маслаҳатчиси лавозими жорий этилиб, унинг вазифалари ва фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисида низом тасдиқланди.

2020 йил 10 апрелда Ўзбекистон Республикасининг “21 октябрни “Ўзбек тили байрами куни” деб эълон қилиш тўғрисидаги Қонуни қабул қилинди.

Бу Қонун ўзбек тилининг нуфузини юртимиз ва дунё ҳамжамияти олдида юксалтириш бўйича қўйилган дадил қадам бўлди.

Бугун юртимизнинг давлат ва жамият бошқарувининг барча бўғинларида ўзбек тилининг ўз ҳақиқий ўрнини эгаллашини таъминлашга эришишимиз зарур. Шу муносабат билан университетимизда ҳам тилимиз нуфузини ошириш мақсадида кўплаб илмий-амалий ишлар олиб борилди. Филология факультетида ўзбек тилини халқаро муносабатларда расмий таржима тиллар сафига киритиш мақсадида ҳар томонлама мукамал мутахассис устозлар ўз фаолиятини олиб бормоқдалар. Иқтисодиётимизнинг барча секторларида ўзбек тилига иш юритиши, малакали мутахассислар тайёрлаш учун дарслик ва ўқув қўлланмалар яратилмоқда. Тил ва тиббиёт интеграцияси платформасини яратиш мавзусида 900 млн сўмлик амалий лойиҳа ўз иш фаолиятини олиб бормоқда. Илмий даражалар берувчи илмий кенгашлар фаолияти самарали йўлга қўйилди. Жорий йилда 4 нафар устозларимиз фан доктори (DSc), 10 дан ортиқ изланувчиларимиз филология

фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дипломларини муваффақиятли қўлга киритдилар. Бундан ташқари давлат тилида иш юритиш асосларини ўқитиш ва малакасини ошириш Бухоро ҳудудий маркази ҳам ўз ишини фаоллик билан олиб бормоқда. Мана шундай янгиланишлар шиддати ва улуғ мақсадларга шайланиш жараёнлари аро маънавиятимизнинг, маърифатимизнинг ўзаги бўлмиш она тилимизни эъзозлаб “Ўзбек тили байрами куни” эълон қилинишининг ўзиёқ катта бир байрамдир. Шу муносабат билан ушбу байрамимиз бутун Ўзбекистон халқига, ер юзида ўзбек тилида сўзлашувчи кўплаб кишиларга ва дунёнинг турли ўлкаларидаги “Ўзбек тили дўстлари”га қутлуғ бўлсин деймиз. Шон-шарафли миллатимиз, она тилимиз, давлатимиз мангу гуллаб-яшнайсин!

Обиджон Хамидов

БухДУ ректори

ONA TILIMIZ RIVOJI VA TARAQQIYOTI YO‘LIDA

Inson Vatan tushunchasini ilk bor ona tilida anglaydi, qalbiga tinchlik va xotirjamlik bag‘ishlovchi allani ana shu tilda eshitadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, til, millat, Vatan tushunchalari doimo yonma-yon. Aslida ham til millatning madaniyati va ma‘naviyati, qadim tarixi hamda o‘sha millatga xos urf-odatlar majmuini yaqqol ifodalaydi. Til tirik bo‘lsa, millat yashaydi. O‘zbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, orzu-intilishlari, dard-u armonlari, g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ajdodlarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelgan. Shu tilda buyuk ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratgan.

O‘zbek tilining necha ming yillik tarixga ega ekanligini bilish uchun Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib asarlarini o‘qish lozim. Ana shundagina betakror tilimiz eng ko‘hna tillardan biri ekaniga amin bo‘lasiz. Hazrat Navoiy esa «Tilga e‘tibor – elga e‘tibor» iborasi bilan bizni ona tilimizdan faxrlanishga,

g'ururlanishga undadi, ana shu tilda «Xamsa»ni bitib, uni yuksaklarga ko'tardi. Zamondosh tilshunoslarimizdan biri: «Navoiy ijodi tilimizni o'rganish uchun cheksiz ummondir», degan edi. Alisher Navoiyning ulug' maqsadi turkiy tilning ifoda imkoniyatlarini va uning badiiy xususiyatlarini dunyoga ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Ulug' ajdodimizning asarlarini o'qiganimizda o'zbek tilining ildizi qanchalik chuqur ekanligi, bu tilning imkoniyatlari naqadar kengligini anglaymiz. Navoiydan keyin tilimizni mumtoz adabiy tillar darajasiga ko'tarishni Zahiriddin Muhammad Bobur o'z zimmasiga oldi. Shoh va shoir Bobur Mirzo turkiy tilning boy ohang va tovushlarini to'liq ifoda etishga imkon beradigan yangi alifbo yaratish zarurligini anglagan holda «Xatti Boburiy»ni yaratdi. Boborahim Mashrab, Muhammad Rizo Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parpi kabi bir qator o'zbek adabiyotining namoyandalari o'z ijodi ila tilimiz va millatimiz mavqeini ko'klarga ko'tardi.

Til – millatning eng birinchi belgisi. Uning ravnaqi shu xalq ravnaqi bilan chambarchas bog'liq. Til, avvalo, milliy mustaqillik shahodatnomasi. Bosh qomusimizda ham davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi. Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi esa tilimizning jamiyatdagi mavqeini yanada yuksaltirdi. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida ona tilimizning mavqeini yanada oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi. Farmonda davlat tilini rivojlantirish borasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, davlat tilini rivojlantirish bo'yicha dastur va «Yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish, «O'zbek tili bayrami kuni»ni nishonlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni muomalaga kiritish kabi bir qancha vazifalarni

amalga oshirish belgilandi. Bu hujjat yurtimizda tilimiz rivoji, uni saqlash va rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Va, guvohi bo'lib turganimizdek, mamlakatimizda ushbu hujjatda ko'zda tutilgan vazifalarni amalga tatbiq etish borasida sezilarli ishlar olib borilyapti. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 50 milliondan ziyod aholi o'zbek tilida so'zlashadi. Bu ona tilimizning dunyodagi yirik tillardan biri ekanidan dalolat.

Bugungi kunda ona tilimiz siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanilib, jahon minbarlarida baralla yangramoqda. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o'zbek tilida nutq so'zlashi esa tilimizning jahon miqyosidagi nufuzini yana bir bor mustahkamladi.

Bugungi kunda jahon sport arenalarida o'zbek kurashining qoidalari sof o'zbek tilida "chala", "yonbosh", "halol" kabi so'zlarni baland ovozda yangrashini eshitgan inson o'z tili, o'z millatining, Vatanining davlat tilini eshitib g'ururlanishi bor gap. Ona tilini sevish, uni ardoqlash, Vatanni sevish, uni qadrlashga teng hisoblanadi. Til – bu millat faxridir. Har qaysi inson o'z vatani bilan qanchalik faxrlansa o'z ona tili bilan ham shunchalik faxrlanadi. Shunday ekan, ona tilini sevish, uni asrab avaylash, so'z boyligini chuqurroq oshirish zarurdir. Men ham shu o'rinda, ona tilimizning kundan-kun gurkirab, o'zining serjilo va purma'no hikmatlari bilan boyib borishi uchun qo'limdan kelguncha harakat qilaman. Zero, "Til yashasa millat yashaydi" deb buyuk allomalarimiz bejiz aytishmagan.

Abdug'affor Qirg'izboyev

Davlat tilini rivojlantirish departamenti mudiri

ТИЛ БУЮК ВА ҚАДРЛИ НЕЪМАТ

Айни кунларда кутлуғ бир тарихий сана, тилимизнинг ўз эркига эришган куни юртимиз бўйлаб кенг нишонланиб келинмоқда. Ҳақиқатдан, тилимиз бу миллатимиз кўзгуси. Дарҳақиқат, унда миллатнинг узоқ ўтмишидан тортиб, то бугунги кунгача бўлган даври, маданияти, маънавияти

муҳассам. Инсоннинг тилини билмасдан туриб, у билан фикрлашиш имконсиз. Қолаверса, у миллатни дунёга танитадиган маънавий асос, унинг муҳим белгиси, узвий ва ажралмас бир бўлагидир. Тил – ҳаётнинг бошланиши. Инсон ўз она тили ёрдамида янги тушунчалар ва муносабатларни англай бошлайди. Она тили бизга она сути билан сингдирилади. Инсон улғайган сайин атрофидагилар билан мулоқот қилиш, бадиий китоблар ўқиш орқали сўз бойлигини ошириб боради. Ота-боболаримиз тарихи, миллий ва маънавий қадриятларимиз бизга она тилимиз ёрдамида мерос бўлиб қолди. Халқлар тарихи – бу улар тилининг тарихи. Давлат ривожланиши билан давлат тили ҳам ривожланади. Халқ мустақиллигининг асосий белгиси – бу она тили ва миллий маданияти. Дунёнинг барча давлатлари ўз она тилларини асраб-авайлашга интилишади, шунинг учун ҳар қандай давлат ўзининг маданий мероси ва она тилини алоҳида ҳурмат қилади.

Юқори ривожланган давлатлар даражасига эришиш ва рақобатдош бўлиш учун Ўзбекистон фуқаролари халқаро тилларни билишлари муҳим, албатта. Чунки биз глобал ривожланиш тенденцияларидан орқада қола олмаймиз, лекин шуни унутмаслик керакки, ўзбек тили дунёдаги барча расмий тиллар қатори суверен тил мақомини олган экан, ҳар бир Ўзбекистон фуқароси давлат тилини билиши шарт. Ҳеч ким ҳеч қачон ўз она тилига бўлган ҳурматни йўқотмаслиги керак.

Тилга ҳурмат – бу халққа ҳурмат. Ўз она тилига эга бўлмаган халқ мамлакат бўлолмайди. Тилнинг эгаси халқ, аммо халқнинг битта вакили лоқайд бўлса ҳам миллий тил софлигига путур етади. Тил давлат тимсоли, мулки ҳисобланади. Тил маданиятига амал қилинмаса, миллий маданиятга доғ тушади. Шу сабабли, бу улкан ҳодисанинг туб моҳиятини келажак авлод онгига сингдириш, она тилига бўлган муҳаббат ва садоқатини янада мустаҳкамлаш борасида олиб борилаётган ишлар кўлами йил сайин кенгайиб

бормоқда. Бинобарин, ўзини ўзбек миллатининг фарзандиман, деб билган ҳар бир шахс она тилимизга эътиборли бўлиши, унинг софлигини асраб-авайлашни муқаддас бурчи деб билиши шарт.

Ўзбек тилининг Ватанимизда давлат тили сифатида амал қилинишининг ҳуқуқий асослари қонунан белгилаб қўйилган. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги қонуни уч тамойилга: умумийлик, мажбурийлик ва ҳуқуқий кафолатга асосланади. Дарҳақиқат, давлат тилининг мустаҳкам ҳуқуқий мақоми белгилаб қўйилгани тилимизнинг бой имкониятларидан кенг фойдаланишга етарлича замин яратиб, мамлакатимизда истиқомат қилувчи барча миллат ва элатларнинг тиллари, урф-одатлари ва анъаналари ҳурмат қилиниши баробарида ўзбек тилининг эркин муомалада бўлиши учун зарур шарт-шароитни яратиб берди. Дунёда таниқли мамлакат бўлиш учун биз давлат тилининг мақомини кўтаришга эришишимиз лозим.

Сўнгги йилларида мамлакатимизда барча соҳаларда бўлгани каби тилимиз тараққиётида ҳам муҳим ўзгаришлар юз бермоқда. Ўзбек тилининг халқаро миқёсда обрўйи ошиб, фаол мулоқот воситасига айланиб бормоқда. Турли даражадаги расмий учрашув ва музокараларда тилимиз кенг қўлланаётгани, хориждаги қатор таълим даргоҳларида, илмий муассасаларда ўзбек тили марказлари ташкил этилиб, уларда она тилимизни ўрганишга қизиқувчилар сони кўпайиб бораётгани бунинг яққол далилидир.

Ўзбекистонда давлат тили ўзбек тили ҳисобланади ва давлат органлари ишининг давлат тилида юритилиши қонун талаби эканлигидан ҳаммага аён. “Давлат тили ҳақида”ги Қонуннинг 10-моддасида “Қорхоналар, муассасалар, ташкилотлар ва жамоат бирлашмаларида иш юритиш, ҳисоб-китоб, статистика ва молия ҳужжатлари давлат тилида юритилади, ишловчиларнинг кўпчилиги ўзбек тилини билмайдиган жамоаларда давлат тили билан бир қаторда, бошқа тилларда ҳам амалга оширилиши мумкин” деб белгилаб

кўйилганлиги рус тилининг ўзбек тили билан муқобил алоқа тили сифатида қўлланилишига йўл очиб берган бўлса ажаб эмас. Қолаверса, қонунда келтирилган “Ўзбек тилини билмайдиган жамоаларда давлат тили билан бир қаторда, бошқа тилларда ҳам амалга оширилиши мумкин” жумласи ўзбек миллатига мансуб русийзабон ватандошларимизга қўл келган. Тилнинг ҳам ижодкори, ҳам истеъмолчиси бўлган халқ ўз лисонини асло безътибор қолдирмаслиги лозим.

Бундан ташқари, Вазирлар Маҳкамасининг “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига мувофиқ “Давлат тилида иш юритиш асосларини ўқитиш ва малака ошириш маркази”нинг ташкил этилганлиги аҳолининг ёзма ва оғзаки саводхонлигини ошириш, ўзбек адабий тили меъёрлари, ўзбек тилининг тузилиши бўйича амалий билимлари, кўникма ва маҳоратини тизимли асосда ошириб бориш бўйича таъсирчан чоралар кўришда муҳим аҳамият касб этади.

Соф ўзбек тилида мулоқот қилиш миллат тилига бўлган ҳурмат нишонаси саналади. Тилнинг миллий жозибасини оширувчи қудрат қонун эмас, балки халқнинг ўзидир. Бир сўз билан айтганда, тил миллатнинг маънавий-руҳий бойлиги, мулки экан, уни эъзозлаш, юксалиши, софлиги, бойлиги йўлида курашиш, миллий қадрият даражасига кўтариш барчамизнинг олий бурчимиздир.

Отабек Қаҳҳоров

БухДУ проректори

SEN MILLAT MULKISAN, ONA TILIM!

O‘zbek tili dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biridir. Bu tilning beqiyos imkoniyatlari qadimiy toshbitiklarda, xalqimizning zamonlar sinovidan o‘tib kelayotgan maqol va hikmatli so‘zlari, betakror iboralari, qo‘shig‘-u

dostonlarida, mumtoz shoirlarimiz, XX asrdagi ijodkorlarimiz asarlarida yaqqol namoyon bo'lgan.

Bundan 30 yil muqaddam o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o'z davrida tom ma'noda olamshumul voqea bo'lgan. Chunki Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo singari buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yo'qolish arafasiga kelib qolganidan dalolat berardi. Mustaqillik sari tashlangan ilk qadamlar o'zbek tiliga davlat maqomi berish masalasi kun tartibiga qo'yilib, qancha qiyinchiliklar bo'lmasin bu ish amalga oshirildi. Ona tilimiz o'zbek tiliga 1989 yil 21-oktyabrda davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalar chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

Til – millat qiyofasining bir bo'lagi. Til nafaqat muomala vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo'llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va hurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham har bir xalq o'z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi. Bugungi kunda dunyoda 6809 ta til mavjud bo'lib, ularning teng yarmi sakkizta davlat –

VA ILMIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI O'RNINI

Meksika, Indoneziya, Kamerun, Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSh va Rossiya hissasiga to'g'ri keladi. Eng ko'p tilli mamlakat sifatida Hindiston tan olinadi. Bu mamlakatda aholi 845 til va lahjada so'zlashadi. Ikkinchi o'rinda esa 600 ta til va shevada so'zlashuvchi Papua – Yangi Gvineya turadi. Sayyoramizda eng ko'p aholi so'zlashadigan til sifatida xitoy, ingliz va ispan tillari tan olingan. Birinchi o'nlikka hindi, bengal, arab, portugal, nemis, rus va yapon tillari ham kiritilgan. Jahon tillarining atigi 4 foizi Yevropa qit'asiga to'g'ri kelsa-da, eng ko'p so'zlashuvchi tillarning teng yarmi "ko'hna qit'a"da ekani ma'lum. 341 million kishi ingliz tilini ona tili sifatida tan oladi, biroq yana 350 million kishi bu tilni ikkinchi ona tili sifatida ko'rishini ma'lum qilgan. Tahlilchilar xitoy va ingliz tillari foydalanish bo'yicha o'z mavqeyini oshirib borayotganini aytishadi. Vaziyatni o'rganayotgan kuzatuvchilarning fikricha, foydalanuvchilar soni bo'yicha ayni damda ingliz tili yetakchilik qilayotgan bo'lsa, XXI asr o'rtalariga borib, xitoy tili asosiy til bo'lib olishi mumkin.

Til bilish – madaniyat belgisi. Xalqimiz ta'biri bilan aytganda, til bilgan el biladi. Shuning uchun ota-bobolarimiz qadim-qadimdan ikki-uch tilni bilgan. Bu esa ularga boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilish, ulardan o'rganish va ular bilan tinch-totuv, hamkor-u hamnafas bo'lib yashash imkonini bergan. Ayniqsa, bugungi kunda, mamlakatimiz butun dunyo bilan keng ko'lamda hamkorlik qilayotgan paytda til bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun yurtimizda nufuzli xalqaro tillar sirasiga kiradigan tillarni o'rganishga ixtisoslashgan maxsus maktab va litseylar, oliy o'quv yurtlari ochilmoqda, talabalarimiz til o'rganish uchun xorijga yuborilmoqda. Lekin ona tili har qanday sharoitda ham inson uchun ruhiy tayanch bo'lib qoladi. Ayniqsa, milliy o'zlikni anglash, «Kim edim-u, kim bo'ldim?» degan savolga javob topish, xotira tuyg'usi bilan yashashda ona tilining ahamiyati beqiyos. Aynan ona tili tufayli inson o'z ajdodlari bilan doimo ruhiy muloqot qilib yashaydi. Ya'ni, ularning aytgan o'g'itlari, yozib qoldirgan asarlari, qilgan ezgu ishlari ona tili orqali avloddan

avlodga o‘tib boradi. Shunday qilib, ona tilini puxta bilish, u bilan g‘urur-iftixor qilish milliy ma’naviyat, o‘zlik ifodasi bo‘lsa, boshqa tillarni bilishga intilish madaniyat belgisi, qo‘shimcha bilim quroliga ega bo‘lishdir.

Abira Huseynova
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senat a‘zosi

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ДАВЛАТ ТИЛИНИ ЎҚИТИШ МУАММОЛАРИ

2019 йилни том маънода мамлакатимиз маънавий ҳаётида кескин бурилиш ясаган йил деб аташ мумкин. Дастлаб давлатимиз раҳбарининг 2019 йил 4 октябрдаги "Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили ҳақида"ги қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги қарори эълон қилинди. Ҳукумат миқёсида байрамни нишонлаш бўйича чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилди. Республиканинг барча вилоятларида турли тадбирлар, давра суҳбатлари ўтказилди. Она тилимизга давлат тили мақоми берилганининг 30 йиллиги муносабати билан давлат тадбири ўтказилиб, унда Президентимизнинг шахсан иштироқи ҳамда давлат тилининг нуфузини янада ошириш бўйича билдирган таклифлари, белгилаб берган вазифалари, қолаверса, "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони, Вазирлар Маҳкамасида давлат тилини ривожлантириш департаментининг ташкил қилиниши, 21 октябрни мамлакатимизда она тили байрами сифатида нишонлаш бўйича қонун қабул қилиниши, Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 3 мартдаги 117-сонли қарори асосида Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ҳузурида Давлат тилида иш юритиш асосларини ўқитиш малака ошириш марказининг, Давлат тилини ривожлантириш департаменти ҳузурида Ўзбек тилини ривожлантириш жамғармасининг ташкил қилиниши она тилимиз – ўзбек тилига ҳурмат ва эътиборнинг амалдаги ифодасидир. Айниқса, давлатимиз

рахбарининг дунёнинг олий мартабали йиғилишида она тилимизда нутқ сўзлаши барча ҳамюртларимиз қалбида ўзбекона ғурур ҳиссини уйғотди.

Шуни алоҳида қайд этиш керакки, она тилимиз ривож ва такомилга, унинг ҳимоясига масъул бўлган Вазирлар Маҳкамасининг Давлат тилини ривожлантириш департаменти ташкил этилди. Ўтган давр мобайнида департамент томонидан кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Бир сўз билан айтганда, давлат тилига бўлган муносабат тубдан ўзгарди. Лекин ҳали қилиниши лозим бўлган ишлар, муаммолар талайгина. Қуйида таълим тизимида она тили ўқитилиши билан боғлиқ муаммоларга тўхталинади.

Жадид намояндаларидан бири Ҳожи Муин “Ёшларга мурожаат” мақоласида шундай ёзади: “Ҳамиятли қариндошлар! Кўпдан бери газета ва журналларда ўқиб ва билиб келмакдадурсизки, ҳар миллатнинг тараққийси энг аввал мунтазам мактаблардан бошланур. Зотан инсоннинг саодати мактаб тарбиятидан вужудга келмасми? Тил ва миллий адабиёт, дин ва халқ таълимнинг ўрни мактаб бўлганидек, ҳаёт ва саодати башарнинг эшиги ёлғуз мактабдур”.

Ҳа, миллат тараққиёти, ривож мактабдан бошланади. Фарзандларимизни миллий қадриятларимизга ҳурмат, ватанга муҳаббат руҳида тарбиялаш, бунинг учун эса тил ва миллий адабиётимизин чуқур ўргатиш мактаб остонасидан бошланади. Бунга алоқадор бўлган мутасаддилар бу ҳақиқатни тушунмасалар ёки тушунишни истамасалар, билингки, бу энг катта фожиа.

Авваллари диктант, иншо, баён каби назорат ишларига жиддий эътибор қаратиларди. Диктант ёзилиб, баҳолангандан кейин хатолар устида ишлаш бўйича алоҳида машғулот бўларди. Хато қилинган сўзларни қайта-қайта ёзардик. “Ўқитувчилар газетаси”да иншо мавзулари эълон қилинарди, ҳар бир мавзу учун кечалари ўтириб иншо ёзардик. Ҳозирчи! Ўқувчилар тугул,

кўп ўқитувчиларнинг ўзи иншо ёзишни, унга режа тузишни билмайди, диктант ўтказиш методикасини тушунмайди!

Энг ачинарлиси, мактабдаги таълим жараёнига, фарзандларнинг илм олишига ота-оналар ҳам бефарқ бўлиб қолгандек. Мактаб нимани ўқитарди, репетиторга бераман, деган нотўғри тушунча шаклланди. Юқори синф ўқувчиларини имкон қадар ўқишга юбормасдан, ўқув марказларига жўнатишга ҳаракат бошланди. Ўқув марказлари ҳам болани асосан тест жараёнига тайёрлади, маълумотларни қуруқ ёдлатишга ружу қўйилди, ёзма ва оғзаки саводхонликка эътибор берилмади. Абитуриент тестни беҳато ечиб, бир амаллаб талабага айланса бўлди, кейинчалик унинг саводини ким текшириб ўтирарди, деган тушунча шаклланди.

Ўша, биз қоралайдиган эски даврда ўқув марказлари, репетиторлар йўқ эди. Лекин ўқувчилар бинойидек саводхон эди, мактабда олган билими билан олийгоҳларга ҳам кирарди. Шу ўринда савол туғилади: ўша даврда таълим тизими яхши йўлга қўйилган, ўқитувчилар фидойи эдими ёки ўқувчилар бошқача эдими? Бу, албатта, жиддий таҳлил қилинадиган ва бош қотирадиган мавзу.

Бизнингча, инсон капиталини ривожлантиришнинг бош омили – таълим-тарбия жараёнини тўғри йўлга қўйилиши. Қайси мактабда ўқувчилар қўшимча дарс олиш учун бошқа мактабга ёки ўқув марказига кетаётган экан, билингки, ўша мактабда ўқитувчилар жамоаси ўз устида ишламайди, салоҳияти ва малакаси терли даражада эмас, мактаб раҳбарияти ўқув жараёнини тўғри йўлга қўя олмаган.

Қолаверса, фарзандинин ўқишини, берилган вазифаларнинг бажарилишини назорат қилиш ота-оналар зиммасида масъулият. Уни бажармаслик ёки эътиборсизлик қилиш нафақат фарзандининг, балки жамият келажагига ҳам болта уришдир. Мактабларда хўжакўрсинга тузилган ота-оналар кенгашлари эса таълим-тарбия жараёнини, ўқитувчининг касбий

маҳоратини кузатиб бориш ўрнига мактаб таъмирига пул ва турли байрамларга совға-салом йиғиш билан овора. Яъни жамоатчилик назоратининг таъсирчан шаклларида мактабларда унумли фойдаланилмаяпти.

Яна бир жиҳатга эътибор берилиши хоҳлардим. Бу ўқитувчининг касбий маҳоратини ошириш, ўз устида ишлашига имконият яратиш. Бу бўшлиқни аслида малака ошириш тизими тўлдириш керак. Табиий савол туғилади, ўқитувчи малака оширишдан ўзи учун фойдали нима оляпти? Ҳозирги кузатишларимиздан айтарли ҳеч нарса деган савол келиб чиқади. Малака ошириш жараёни ўқитувчи учун худди бир жазо майдонига ўхшайди. Биринчи кундан тестдан қандай ўтаман, малака ҳимояси қандай бўлади, деган саволлар билан машғул бўлиб, ўзини у ёққа, бу ёққа уриб малака оширишни яқунлайди. Хўп, малака ошириш сизнинг касбий маҳоратингизнинг ошишига қанчалик фойдали бўлди, деган саволни беринг. Худога шукур, ўтиб олдим, деган қисқагина жавобни оласиз. Шунинг учун ўқитувчилар малакасини ошириш тизимини тубдан қайта кўриб чиқиш, ҳар ойда келадиган тингловчиларга ўзгармас мавзуларни тўтиқушдек такрорлаб ўтирадиган мутахассислар ўрнига республикадаги тажрибали, салоҳиятли педагогларни жалб қилган ҳолда, илм-фанда ва методикада бўлаётган янгиликлар билан таништириш, иншо, диктант, баён ўтказиш бўйича ўқув машғулоти ташкил қилиш керак. Қолаверса, малака ошириш жараёни ўқитувчи учун тест ёдлаш, тайёр малака ишларини кўчиришдан эмас, фаннинг энг сўнгги янгиликларидан хабардор қиладиган, тажрибали устозлар иш услубини ўрганадиган, муҳими, ўз устида ишлашга рағбатлантирадиган фаолиятга айланиши керак. Шу билан бирга, ҳурматли ўқитувчиларимиздан ҳам ўз фаолиятини танқидий таҳлил қилиб, дунёқарашини тубдан ўзгартиришларини сўраб қолган бўлардик. Ташқаридан ҳар қанча таъсир кўрсатилмасин, ички ўзгариш бўлмаса, натижага эришиш мушкул.

Айтмоқчимизки, касбий маҳоратини ошириб бориш, таълимда бўлаётган ўзгаришларни кузатиб, унга мослашиш, ўз устида тинимсиз ишлаши ўқитувчиниинг ўзигагина боғлиқ.

Мустақилликнинг дастлабки йилларида давлат тилини ўқитишга алоҳида эътибор қаратилган. Ўрта умумий таълимда, ўрта махсус ёхуд олий таълимда ҳам. Олий таълимнинг барча йўналишларида ўзбек тили ва адабиёти, давлат тилида иш юритиш, ўзбек тили (ўзга тилли гуруҳлар учун), ҳатто араб ёзувига асосланган эски ўзбек ёзуви фанлар ўқитилган. Кейинчалик ўзбек тили ва адабиёти, давлат тилида иш юритиш, эски ўзбек ёзуви каби фанлар ортиқча фанга айланиб, ўқув режадан чиқариб ташланди. Ўзбек тили бўйича ўзга тилли талабалар учун Давлат аттестацияси белгиланган эди, кейинчалик Давлат аттестацияси ҳам бекор қилинди. Бу ишларни ташқаридан келиб кимдир қилгани йўқ, ўзимиз қилдик, давлат тилига “ҳурмат” сифатида. Она тилимизга муносабат ўзимизда шундай бўлгач, ватанимизда яшовчи бошқа миллатлардан нимани кутишимиз мумкин? Шунинг учун ҳам уларга Ўзбекистонда яшагач, давлат тилини билишинг керак, десанг “Зачем?” деган савол қўйишади. Улардан хафа бўлмаслигимиз керак, ҳамма айб ўзимизда, чунки давлат тилига кераксиз нарса сифатида қараймиз. Яна қўшни Қирғизистондан мисол келтирамиз. Уларда барча таълим йўналишларида мажбурий фан сифатида “Қирғиз тили ва адабиёти” ҳамда “Манасшунослик” фанлари ўқитилар экан. Хоҳ давлат фуқаролари бўлсин, хоҳ хорижий талабалар бўлсин, бу фанларни ўзлаштиришга мажбур. Қозоғистонда ҳам худди шундай экан, “Қозоқ тили ва адабиёти”, “Абайшунослик” мажбурий фан сифатида белгиланган. Ёки Грузиянинг “Давлат тили тўғрисида”ги қонунига кўра ўрта махсус, олий таълим муассасаларига кириш ва битириш имтиҳонларида грузин тили бўйича имтиҳон мажбурий қилиб қўйилган.

Тилимизга нисбатан бепарволик натижасида жамиятдаги саводхонлик даражасига ҳам ўз таъсирни ўтказяпти. Олий ўқув юртига келаётган аксарият ёшлар ҳатто оддийгина ариза ёзишнинг эплай олмаётгани ачинарли ҳолат. Айниқса, педагоглар тайёрлайдиган олий таълим муассасаларида давлат тилининг ўқитилишига алоҳида эътибор қаратилиши лозим. Чунки биз тайёрлаётган мутахассислар таълимнинг қўйи бўғинида фарзандларимизнинг саводхонлигига бевосита масъул ҳисобланишади. Лекин ҳозирги умумий аҳволимиз ҳеч кимни қониқтирмас керак.

Яқинда Халқ таълими вазирлиги Сирдарё вилояти ўзбек тили ва адабиёти ўқитувчиларини мутахассислиги бўйича синовдан ўтказгани, аксарият педагоглар қониқарсиз баҳо олганини ўқиб қолдим. Тўғри, бунинг объектив, субъектив сабаблари бор. Ўқитувчини ортиқча ҳужжатларга кўмиб қўйган эдик. Лекин Халқ таълими вазирлиги бундай ҳужжатлар босимини бекор қилди, ўқитувчиларга ўз устида ишлашларига шароит яратилмоқда. Энди ҳамманинг ўзига боғлиқ, касбий маҳоратини ошириб бориш масаласини жиддий ўйлаш керак. Эҳтимол, ҳозир педагоглар етишмаслиги сабабли, билимсизлар ҳам амаллаб ишлаб юриши мумкин. Лекин йилдан йилга қабул квоталари ошиб борапти, янги олий таълим муассасалари очилапти. Яқин беш йил ичида мутахассислар рақобати юзага келиши аниқ. Бу муаммо нафақат ўзбек тили ва адабиёти ўқитувчиларига, балки барча фан ўқитувчиларига тегишлидир.

Яна бир нарсани айтиб ўтиш керак. Кейинги ўқув йилидан бошлаб олий таълим муассасалари босқичма-босқич модул тизимига ўказилапти. Мана шу жараёнда юқоридаги фанлар қўшни давлатларимиздаги каби талаба ўзлаштириши шарт бўлган мажбурий фанлар рўйхатида туриши керак.

Тилимизга давлатимиз раҳбари томонидан шундай эътибор қаратилаётган экан, ҳар биримиз она тилимизга ҳурмат, эътиборни ўзимиздан бошлашимиз керак. Она тилимиз бизга онамиз алласи билан

рухимизга кириб, миллий ғуруримизни юксалтираётган бебаҳо неъматдир. Бу неъматни авайлаб-асраш, уни ривожлантириш ҳар биримизнинг фуқаролик бурчимиз саналади.

Иномжон Азимов,
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат
ўзбек тили ва адабиёти университети ҳузуридаги
Давлат тилида иш юритиш асосларини ўқитиш ва
малака ошириш маркази директори, ф.ф.н., доцент

TIL – INSON KAMOLOTINING KO‘ZGUSI

Har bir inson qalbida Vatan muhabbati pinhona yashaydi. Mana shu mehr-muhabbatni nutqida ifodalash uchun esa unga o‘z milliyligini aks ettira olgan ona tiliga ehtiyoj seziladi. O‘zbek xalqi rasman 32 yildan beri mana shu baxtni tuyib yashamoda. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi, 21-oktabrni “Til bayrami” sifatida nishonlashni belgilanishi, “O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoninig qabul qilinishi, Davlat tili markazlarining tashkil etilishi yurtimizda tilga, davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborning yuksak darajada ekanligini e‘tirof etmay ilojimiz yo‘q. Buni qarangki, tilimizning sofliги, uning rivoji, jamiyat hayotidagi o‘rni va jahondagi nufuzini oshirish uchun yurtimizda sezilarli ishlar amalda yo‘lga qo‘yilgan.

Til – bu inson kamolotining ko‘zgusi, til millat ruhi, shu tariqa tilga bir qancha tashbehlarni keltirishimiz mumkin. Til benihoya muqaddas va mo‘tabar ne‘mat, u inson degan mavjudotni shakllantirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy komillikka boshlagan, ijtimoiy munosabatlarga yo‘l ko‘rsatgan, tafakkur qulflarini yechgan, ilm yo‘lida mayoq, zulmatlarda chiroq bo‘lgan sehrli bir jilodir. Shuning uchun ham tilga hurmatsizlik, insoniyatning o‘ziga bo‘lgan behurmatligidir. Bejiz emaski, xalqimiz tilga, xususan, o‘zining ona tiliga

VA ILMIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI O'RNINI

muntazam muhabbat bilan e'tiborda bo'lgan, uni e'zozlab ardoqlagan, o'zbek tilining mukammalligi va betakrorligidan faxr-u iftixor qilgan.

Bugun o'zbek tili dunyo tillar qatori jahonda o'z o'rnini, obro' va maqomiga ega. Shu bilan birga bugun ona tilimiz imkoniyatlarini qay darajada namoyon eta olyapmiz, degan haqli savol ham borki, u har birimizni o'ylantirishi, mushohadaga tortishi, shu jumla qalbimizda isyon qilib turishi darkor. Biz kelajak avlodni tilimiz boyligi bilan ta'minlashimiz, til xazinamizning nodir merosini saqlab turgan asarlarimizni ularga kengroq o'rgatishni insoniylik va pedagoglik burchimiz deb bilishimiz lozim.

O'zbek tili boyligini yaxlit holda tasavvur etish uchun eski o'zbek adabiy tilining asoschisi, Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda, so'z mulking sultoni Mir Alisher Navoiy asarlari dunyosiga bir nazar tashlashning o'zi kifoya. Bu olamda butkul koinot aks etadi, bu bepoyon tafakkur va tuyg'ular olami adabiyot va ilm ummoniga boshlab boradi. Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlasak, ona tili ravnaqi uchun ulkan ishlarni amalga oshirganini guvohi bo'lamiz. Alisher Navoiy o'zbek tilini xazina deb baholaydi. Bu xazinani esa "ilon" va "tikanlar" o'rab turganini ta'kidlaydi. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi lingvistik ahamiyatdagi asari bilan bemisl xazina – tilimiz qadr-qimmatini oshirdi, Sharq mumtoz adabiyotining hamma janr va turlarida betakror asarlar yaratdi. Bu tilda birinchi "Xamsa"ni, birinchi "Majolis un-nafoisni" yozdi. Mavjud adabiy an'analarga yangiliklar kiritdi. Xalq madaniyati, ma'rifati va ma'naviyatining yuksalishida tilning muhim vosita ekanligini, til bashariyat naslini o'tmish va zamon bilan bog'lovchi timsol ekani shoir va arbob Navoiyning hamisha diqqat markazida bo'ldi.

Mumtoz adabiyotimiz vakillarining xalq dostonlari – "Alpomish", "Kuntug'mish", "Rustamxon", "Go'ro'gli" turkumdagi asarlarining ta'rifga sig'mas boy tili, shuningdek Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, ularning izdoshlari Hamid Olimjon, Zulfiya, Abdulla Oripov, Erkin

Vohidov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon va boshqa ijodkorlar yaratgan go‘zalliklar ham, “Boburnoma”day asardagi tafakkur saltanati ham o‘zbek tili buyukligini, yuksakligini namyon etadigan bebaho, o‘lmas adabiy boylikdir. Nutqning go‘zalligi, tilning burroligi, ifodaning aniqligi inson uchun o‘ziga xos husndir, bu husn esa oxir-oqibatda jamiyatning millatning yuzinini ko‘rsatadi.

Yozuvchi Ulug‘bek Hamdam ham: “Til – millatning ma’naviy pasporti”, – deya ta’rif bergan edi. Haqiqatan ham, tilda millat ruhi yashaydi, millat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar tilda xuddi ko‘zgudek aks etib turadi.

Har bir davlat o‘z rasmiy tilining sofligi va boyib borishini ta’minlaydi va uning iste’mol doirasi kengayib borishi uchun turli davlat dasturlarini ishlab chiqadi, o‘rganish uchun esa qulay shart-sharoitlar yaratib beradi. Biz ham ona tilimiz mavqeyining oshishi, milliy yuksalishi, ravnaq topishi va yanada takomillashuvi uchun o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim.

Bugun yurtimizda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya ilgari surilmoqda. Barcha sohalar bilan birga davlat tilining jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilini milliy qadriyat sifatida targ‘ib qilish, unga nisbattan milliy g‘urur hissini tarbiyalash, tilimizning xalqaro mavqeyini mustahkamlash, yana muhimi, davlat tiliga oid muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvni rivojlantirishda har birimiz faol ishtirok etmog‘imiz darkor.

Akbar Rustamov
Buxoro viloyati hokimining ma’naviy-ma’rifiy
ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili
to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini
ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi

ТИЛ – МИЛЛИЙ РУХ МАНБАИ

Аннотация: Мақолада Махмуд Кошғарий, Алишер Навоий, Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат қарашлари асосида ўзбек тили дунёнинг энг қадимий ва бой, ифода имконияти кенг тиллардан экани ҳақида фикр юритилган. Ўзбек тили тараққиётининг маърифий-лисоний омиллари, бу борадаги муаммолар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: тил, миллат, миллий рух, тил илми, тил ва замонавий техника-технология, адабий тил.

“Оинаи ҳар миллат эрур тил – адабиёт”. Улуғ маърифатпарвар Абдулла Авлонийнинг бир шеърида ана шундай мисра бор. Бу сўзларга бирор ақлли одам эътироз билдира олмайди. Зеро, миллат деганлари тилга кўра белгиланади. Тил – миллатнинг мавжудлигини тасдиқловчи ҳужжат, таъбир жоиз бўлса, унинг паспорти. Шу боис ўзини таниган, ўзлигига эга ҳар бир миллат она тили ривожини ҳаёт-мамот масаласи деб билади. Тил тараққийси учун бор имкониятини ишга солади. Мустақиллик бизга ана шундай улуғ ва баҳосиз неъматни тортиқ қилди. Она тилимиз давлат тили мақомига эга бўлди. Бу ҳақда махсус қонун қабул қилинди. Миллатимиз оти мамлакатимиз номида-да акс этди. Булар ҳазилакам гаплар эмас. Машҳур ибора билан айтганда, бу кунларга етганлар бор, етмаганлар бор. Бунга гувоҳ бўлганлар нақадар бахтли, нечоғлиқ саодатли. Бу ҳодисалар аҳамиятини заррача ҳам инкор этмаган ҳолда, таъкидлаш керакки, тилнинг чинакам ривожини учун буларнинг ўзигина кифоя қилмайди...

Қонун қабул қилиниши – тил тараққиётининг ҳуқуқий кафолати. Усиз бир қадам ҳам олдинга юриб бўлмаслиги аён. Шукрки, биз бундай қонунга эгамиз. Лекин тилнинг бор имконияти билан равнақ топиши учун бунинг ўзигина етарли эмас. Бунинг учун камида қуйидаги яна тўрт омил мутаносиблиги талаб этилади:

- 1) она тили тақдири учун куйиниш ҳисси миллатнинг ҳар бир вакили қалбига қўчиши;
- 2) тил илмининг миллий негизда ривожланиши;
- 3) замонавий техника-технологиялар ва тилнинг ўзаро тенг таъсир асосида тараққий этиши;
- 4) миллий адабий тилда яратилган адабиётнинг равнақи.

Мабодо мазкур омиллардан бирортаси мавжуд бўлмаса ҳам, тилнинг ривожига ҳақидаги гап гаплигича қолиш эҳтимоли яқин. Биз мустақил тараққиётнинг ўттиз биринчи йилидамиз. Она тилимизга давлат тили мақоми берилганига эса, роппа-роса ўттиз икки йил тўляпти. Бу жуда катта муҳлат бўлмаса-да, кичик ҳам эмас. Ютуқлар ўзимизники. Шу боис асосан камчиликларимиз ҳақида, бажарилиши бениҳоя зарур бўлган вазифалар ҳақида сўз юритмоқчимиз. Зеро, ойнага қарашдан мақсад – ўз-ўзига маҳлиё бўлмоқ эмас, нуқсни аниқлаш ва тузатишдир.

“Асл тилларнинг маншаъи...”

Биз қандай тил соҳибимиз? Она тилимизнинг дунёдаги бошқа тиллар орасида тутган мавқеи тарихда қай даражада бўлган, ҳозир-чи? Бундан минг йил муқаддам буюк тилшунос Маҳмуд Кошғарий она тилимизнинг “...араб тили билан икки улоқчи от сингари тенг пойга қилиб ўзиб бораётгани”[5.15]ни ифтихор билан таъкидлаган эди. “Муҳокамат ул-луғатайн”да ҳазрат Навоий мана бундай ёзади: “...уч навъ тилдурким, асл ва мўътабардур ва ул тиллар иборот гавҳари билан қойилининг адосига зевар ва ҳар қайсининг фуруъи бағоят кўптур. Аммо туркий ва форсий ва ҳиндий асл тилларнинг машъаидурки, Нуҳ пайғамбар саловатуллоҳи алайҳининг уч ўғлигаким, Ёфас ва Сом ва Ҳомдур, етишур” [3.10]

Эътибор беринг: “асл тилларнинг маншаъи...”. Бу ҳазилакам гап эмас. Маншаъ – бу сўз “Навоий асарлари луғати”да “бир нарсанинг чиқиб келган ўрни, келиб чиқиш жойи, бошланиши” [6.361], дея изоҳланган. Демак,

бизнинг тилимиз бошқа асл тилларнинг келиб чиқишига асос, замин бўлган тиллардан ва биз дунёнинг энг қадим миллатларидан эканмиз.

Ҳазрат Навоийнинг бу сўзларини Носируддин Рабғузийнинг “Қисаси Рабғузий” асаридан олинган қуйидаги иқтибос ҳам тасдиқлайди: *“Нух кемадин чиқди. Ул кун сексон одамий – қирқ эр, қирқ хотун Шом вилоятинда тенгиз қирогинда бир кенд қўбордилар. Анга “Қарят ус-самонина” атадилар. Олти ой сув ичинда туруб ел тўқимади. Онгсизин чиқиб ел тўқиди эрса ярашмади. Заиф бўлдилар. Қамуз ўлдилар, магар етти киши қолдилар. Тақи Нух, ўғуллари, уч келин. Олам ичинда бу етти киши қолди, азин ким эрса қолмади. Бу кун мунча халойиқ ёвуз, яхши, мўъмин, кофир Нух ўғлонлариндин тугдилар”* [7.45]

Маълум бўладики, машҳур тўфондан олдин Нух алайҳиссалом билан кемада кетган барча инсонлар ҳалок бўлади. Дунёда Нух алайҳиссалом, уч ўғли – Ёфас, Сом ва Ҳом ҳамда уч келини қолади. Ҳазрат Навоийнинг ёзишича, *“Нух алайҳиссалом тўфон ташивишидин нажот ва анинг маҳлакасинин ҳаёт топти, олам маъмурасида башар жинсинин осор ва инсон навъидин намудор қолмайдур эрди, Ёфасники, таворих аҳли Абут-турк битирлар, Хито мулкига йиборди ва Сомники, Абул-фурс битирлар, Эрон ва Турон мамоликиннинг васатида волий қилди ва Ҳомники, Абул-ҳинд дебдурлар, Ҳиндистон билодига узотдилар. Ва бу уч пайгамбарзода авлоду атбоъи мазкур бўлгон мамоликда ёйилдилар ва қалин бўлдилар”* [3.10].

Хито (Хитой эмас!) – баъзи олимлар фикрича, ҳозирги Шарқий Туркистон ҳудуди. Лекин Рабғузийнинг “Ёфасни Туркистон вилоятига изди” деган қайди ҳазрат Навоий Хито деганда биз яшаётган ҳудудни ҳам назарда тутмаганмикан, деган мулоҳазани уйғотади.

Нима бўлганда ҳам, икки улуғ мутафаккир – ҳазрат Навоий ва Носириддин Рабғузий яқдил эътироф этишларича, барча одамлар Нух алайҳиссалом фарзандлари – Ёфас, Сом ва Ҳомнинг авлодлари. Дунёдаги

барча тилларнинг маншаъи (келиб чиқиш асоси) туркий, форс ва ҳинд тилларидир.

Дарҳақиқат, она тилимиз дунёдаги “асл тилларнинг маншаъи” бўлгани рост. Мутафаккир боболаримиз бу тил шаънини юксакларга кўтаргани ҳам айна ҳақиқат. Лекин бунинг ўзигина кифоя қилмайди, албатта. Хўш, бугунги авлод бу борада эътиборга лойиқ қандай ишларни қилди ёки қиляпти? Она тилимиз тараққиётига бирор улуш қўша оляпмизми?

“Миллий тилни йўқотмак миллатнинг руҳини йўқотмакдур” [2.60], деган эди Авлоний. Чиндан ҳам, миллат бошқа ҳар қандай бойлигини йўқотса, ўрнини тўлдириш мумкин. Агар у тилидан айрилса, ҳамма нарсасидан, бор-будидан айрилади, миллат сифатида мавжуд бўлолмайди. Шўроларнинг бунга уриниб кўргани маълум. Шукрлар бўлсинки, улар бу муддаоларига эриша олмади.

Абдурауф Фитрат она тилимизга таъриф берар экан, унинг “дунёдаги энг бой ва энг бахтсиз тил” [8.124] бўлганини таъкидлайди. Буни, биринчидан, шу тил вакили бўлган мутафаккирларнинг ўзга тилда асарлар ёзгани, иккинчидан, тилга нисбатан лоқайдлигимиз билан изоҳлайди. Бу лоқайдлик, таассуфларки, бугун ҳам қайсидир даражада давом этаётир.

Тил тақдири – эл тақдири

Она тили тақдири учун куйиниш ҳисси – у хоҳ тилшунос олим, бирор соҳа раҳбари ёки муаллим бўлсин, хоҳ оддий деҳқон, тижоратчи ёки муҳандис бўлсин – миллатнинг ҳар бир вакили қалбига кўчмас экан, тилнинг равнақи ҳақида гапириш маҳол.

“Тилга ихтиёрсиз – элга эътиборсиз” [4.69] деб ёзган эдилар ҳазрат Навоий. Тил ва элнинг яхлит бир ҳодиса эканига ишора бор бу сўзларда. Бирига заха етса, унисига ҳам таъсир этмай қолмаслиги англашилади ундан. Бугун ана шу ҳодисаларнинг бир тан – бир жон эканини бир қадар унутгандекмиз, назаримизда. Биргина мисол. Пойтахтимизнинг марказий

кўчаларидан бирида бор-йўғи икки чорраҳа оралиғидаги жой номларини ўқиб, таажжубга тушасиз. Мана улар: “PlayStation”, “TOPMEN boutique”, “Premio”, “Rest”, “Holis agro”, “Miss S”, “MAG avto”, “Avtostekla” “Mano Mancino”, “Dizayn grup”, “Kids klub”, “Elegan Service”, “Салон красоты”, “Ателье мод”....

Халқимиздан чиққан тадбиркорларни, тожирларни ҳурмат қиламиз. Бугун улар аксари савдо маданиятини юксалтиришга катта ҳисса қўшяпти. Дунёнинг исталган давлатидан халқ эҳтиёжи учун зарур маҳсулотларни керагича етказиб келаётир – барака топсин! Бойияпти, одамларга, жамиятга фойда келтиришга уриняпти – офарин! Дўконлар, бошқа савдо ва маиший иншоотларни барпо этиптилар – бу жуда зарур! Бизнинг истагимиз: уларда ҳазрат Навоий таъбири билан айтганда, “асл тилларнинг маншаъи” бўлган она тилимизга ҳам озгина эътибор, ҳурмат туйғуси ҳам бўлса эди... Тилимизда юқоридаги ажнабий сўзлардан кўра жозибалироқ иборалар шунчалар кўпки, уларни билмаслик – жаҳолат (!!!)

Бугун рекламалар тили ачинарли ҳолда. Телевизор, музлатгич, кир ювиш машинаси ва ҳоказо маиший буюмларимиз бузилса, тузатишга олиб боришдан аввал албатта шу соҳадан хабардор одамлар билан маслаҳатлашамиз. Устанинг энг яхшисини топишга ҳаракат қиламиз. Афсуски, тилимиз бузилса, бу даражада эътибор бермаймиз. Йўқса, рекламадан пулни аямайдиган жўмард тожир унга қандай сўзлар битилганига ҳам озгина эътибор қаратган бўлар эди. Юқорида тилга олинган кўчада дизайн жиҳатдан анча чиройли бир реклама лавҳаси осилган. Унда рус тилида “Качества – признак лидерства” жумласи дарж этилган. Энг афсусланарлиси шуки, бу жумла ўзбек тилига “Сифат – сардорлик белгиси” дея таржима қилинган. Табиийки, русча жумлада бугунги рақобат шароитида сифат билангина енгиб чиқиш мумкинлиги ифодаланган ва у жуда ҳам

тушунарли. Уни ўзбек тилига тўғридан-тўғри калка қилиб эмас, “Сифат – ютуқ гарови!” дея ўгириш ҳам мумкин эди.

Шевалар – адабий тилни бойитишдаги муҳим манба. Фақат уни қўллашда меъёр талаб этилади. Ўзаро суҳбат, чойхона, тўй-маъракаларда шевада сўзланиши заррача эътироз уйғотмайди. Устоз академик Матёқуб Қўшжонов ҳикоя қилган қизиқ бир воқеани адабиёт ихлосмандлари эшитган. Эмишки, Хоразмдаги мактаблардан бирида битирув оқшоми бўлган. Домла жиддий туриб: “Мана, энди ўнинчи синфни битирдинглар. Ўзбекистон бўйлаб тарқалиб кетасизлар. Шунинг учун мумкин қадар тоза ўзбекча гапиринглар. Хўпми?” деса, зал гуриллаб жавоб берибди: “Ҳовва!”

Бунда шевадан бутунлай кутулиш қийин экани ифодаланган. Лекин бу фикрни адабий тилда баён этиш имконсиз дегани эмас. Жамоат жойларида, телевидение-радиога, маънавий-маърифий тадбирларда эса адабий тилда сўзлаш фарз ва қарз. Чунки адабий тил миллатнинг бирдамлигини таъминлайди. Адабий тилда сўзлаш бошқа шевалар вакилларига ҳурмат демакдир. У сўзловчининг маданий даражасини, маърифий савиясини ҳам кўрсатади. Таассуфки, бугун телевидениенинг айрим каналларида, хусусий радиоканалларда шевада гапириш қоидага айланяпти.

Мустабид тузум даврида маърифатпарвар аждодларимиз замон талабига мос, янгича мактаблар очишга ҳаракат қилганлар. Манбаларда мустамлака маъмурияти бундай мактабларга дарслар ўша ҳудуд шевасида олиб борилган ҳолдагина рухсат этиш ҳақида яширин фармон бергани зикр этилган. Бинобарин, тилнинг равнақини, миллатнинг ҳамжиҳатлигини таъминлашни истаган ҳар бир зиёли масъулиятни зиммасига олиши – адабий тилга эътиборли бўлмоғи зарур.

Лотин имлоси асосидаги ёзувга ўттиямиз. Бир неча авлод ўрта, ўрта махсус ва олий таълим тизимини ана шу имло асосида битирди. Кирилчадаги “х” ва “ҳ”ни аниқ фарқлаш мақсадида лотин имлосида улар учун бир-бирига

Ўхшамайдиган алоҳида белгилар қабул қилинган. Бироқ, афсуски, уларни фарқламаслик ҳануз давом этаётир. Маҳобатли бир ташкилотга боришимга тўғри келди, биргина қаватдаги уч эшикка осилган лавҳалар барчаси ғалат: “Qabulhona”, “Natlar bo‘limi”, “Hisob-kitob bo‘limi”. Агар бу ягона ҳол бўлганда ва фақат шу муассасадагина учраса эди, унга эътибор қаратилмаса ҳам бўлар эди. Таассуфки, бундай лоқайдлик, бефарқлик урфга айланяпти. Буларни кўриб, дилингиз ранжиб қайтар экансиз, пешонангиз яна бир хатога урилади: “Hush kelibsiz”. Ажабо, бу нима дегани? Балки “Хушингизга келибсиз” демоқчидир. Кошқийди, тилга, имлога эътиборсиз лоқайдлар ҳушларига келса...

Тил илмининг ривожига талаб даражасидами?

Бугун тилшуносликда компьютер лингвистикаси деган алоҳида илмий йўналиш пайдо бўлди. Шаклланиши ва ривожланиши тўла маънода миллий мустақиллигимиз билан боғлиқ бўлган ўзбек субстанциал тилшунослиги борасида муайян ютуқлар қўлга киритилмоқда. Шу йўналиш заминида юзага келаётган градуал лингвистика бўйича тадқиқотлар олиб борилаётир. Ўзбек заминида шаклланган бу тилшунослик натижаларидан Фарб мамлакатларида, хусусан, Германияда замонавий “WortShatz” интернет луғатларини тузишда кенг фойдаланилмоқда. Мутахассислар фикрича, бу тилшунослик ютуқларини илмга жорий этиш дунё миқёсида том маънодаги янги миллий ўзбек тилшунослиги шаклланиши учун замин яратади.

Бундан ташқари, тилшунослик ва социология кесишувида юзага келган социолингвистика, психология ва тилшунослик синтезида майдонга чиқаётган психолингвистика тобора ривожланаётир. Бу йўналишлар алоҳида фан сифатида бакалаврият ва магистратура ўқув режаларига киритилгани ҳамда уларни ўқитишда муайян ютуқларга эришилаётганини замон тақозоси, эҳтиёж самараси, деб билмоқ зарур.

Тилшунослик ва табиий фанлар деган алоҳида илмий йўналиш шаклланди ва у фан сифатида ўқитилмоқда. Тилшунослик ва медицина, жумладан, психотерапия ва нотиқлик санъати, шунингдек, тилшунослик ва психиатрия, яъни турли руҳий касаллик ҳолатидаги нутқий хусусиятлар масалаларини тадқиқ қилиш; математик методларнинг тилшуносликка ўтиши, бошқача айтганда, эҳтимоллик назарияси ва статистик методдан фойдаланиш муаммоларини ана шу фан ўрганadi. Бундан ташқари, лингвогеография, яъни тилшунослик ва картография, шевашунослик ҳамда ареал лингвистика масалалари ҳам шулар жумласидандир.

Булар – ютуқларимиз. Улар шубҳасиз ўзимизники. Бироқ... Модомики она тилимиз мавқеи ҳозиргидан ҳам юксалишини хоҳлар эканмиз, камчиликларни ҳам эътироф этиш керак. Уларни тузатиш чораларини кўрмоғимиз зарур. Мен тилшуносликнинг жамият ривожига таъсирини назарда тутаяпман. Бугун гўё “Тилшунослик – тилшунослик учун” деган қоида амал қилаётгандек тасаввур уйғонади. Ҳолбуки, тилшунослик ва ижтимоий воқелик ўзаро мутаносибликда, ўзаро таъсир асосида ривожланиши сир эмас. Хўш, тилшуносликнинг илмий натижалари бугунги кунда ўқув жараёнидан бошқа (аслида, бу борада ҳам муаммолар етарли) қайси жабҳага фаол татбиқ этиляпти?

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, бугун филология соҳасида энг кўп диссертациялар замонавий тилшунослик муаммолари бўйича ҳимоя қилиняпти. Лекин уларнинг амалиётга татбиғи қониқарлими? Таассуфки, бу саволга бериладиган жавоб биз кутган даражада ижобий эмас.

Тил ва замонавий техника-технологиялар

Бугунги кунда жаҳон миқёсида кечаётган интеграция ва глобаллашув жараёнида ўзбек тилини дунёвий тиллар даражасига олиб чиқиш ҳаётий заруриятдир. Мазкур катта, масъулиятли, ўта муҳим мақсадни амалга оширишда компьютер технологияларига, хусусан, компьютер

лингвистикасига бўлган эҳтиёж яна ҳам ошади. Чунки айнан компьютер лингвистикаси ўзбек тилининг жаҳон миқёсига чиқишида, она-тилимизнинг дунёвий тиллардан бирига айланишида, уни ўрганиш ва ўргатиш ишлари оптималлашувида ҳал қилувчи ўрин тутди.

Мутахассислар фикрича, компьютер лингвистикасининг асосий мақсади тилшуносликка оид масалаларни ечишнинг компьютер дастурларини яратишдир. У амалий тилшуносликнинг бўлими бўлиб, матнга компьютер ёрдамида ишлов бериш билан боғлиқ вазифаларни бажаради. Унинг асосий вазифаларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

тилларга ўқитиш;

-билимларни текшириш (баҳолаш);

-матнларни турли жиҳатдан автоматик таҳрирлаш;

-машина таржимаси учун мўлжалланган дастурларни ишлаб чиқиш;

-луғатларни ва компьютердаги матнни статистик таҳлил қилиш ва ҳ.к.

Кўринадикки, катта ҳажмдаги ахборотни қайта ишлаш зарурияти компьютер лингвистикасини тақозо этади. Буларни мазкур соҳанинг ўзига хос йўналишлари деб ҳам аташ мумкин. Агар ушбу йўналишларнинг моҳиятига чуқурроқ эътибор берилса, уларнинг ҳар бири ўзбек амалий тилшунослиги учун нақадар ҳаётий, зарурий аҳамият касб этиши аён бўлади. Шунга кўра, компьютер лингвистикасининг айна вазифалари асосида бугунги кунда ўзбек тилшунослигининг компьютер билан боғлиқ ҳолда ҳал этиш лозим бўлган қуйидаги масалаларини таъкидлаб кўрсатиш мумкин:

-ўзбек тилининг ахборот (компьютер) услубини яратиш;

-ахборот матнларидаги қолипчилик, қисқалик, аниқлик мезонларини ишлаб чиқиш;

-интернет сайтларини яратиш меъёрларини белгилаш;

-компьютер изоҳли ва таржима луғатларини ишлаб чиқиш;

-ўзбек тили ва адабиёти бўйича электрон дарсликлар яратиш;

-компьютерда инглизча-ўзбекча ва ўзбекча-инглизча таржима дастурларини тузиш;

-ёзма матнларни тахрирлаш дастурини яратиш.

Таъкидлаш жоизки, ушбу муаммоларнинг энг аҳамиятлиси – ўзбек тилининг ахборот (компьютер) услубини яратиш. Чунки саналган барча муаммоларнинг ечими шунга боғлиқ. Зеро, жаҳон андозалари талабларига жавоб берувчи, ҳар томонлама мукамал, қулай ва оммабоп ахборот (компьютер) услуби яратилганидан сўнггина юқоридаги муаммоларни ҳал қилиш мумкин бўлади.

Бир неча йиллар муқаддам "Дунёвий ўзбек тили" китоби босмадан чиққан эди. Унда ўзбек тилидаги биргина "ишламоқ" феълнинг тахминан юз минг шакли (лексик грамматик парадигмалари) рус ва инглиз тилларига ўгирилган. Инглиз тилида эса бу феълнинг бор йўғи 100 та шакли борлиги маълум. Мана сизга қиёс: 100 000 та ва 100 та.

Тил – қуёш, адабиёт – нур

Адабиёт – тилнинг бадий воқеланиши. Тилнинг бутун сеҳру жозибаси, латофати, ҳатто нуқси ҳам шу тилда яратилган бадий асарда намоён бўлади. Ижод аҳли зиммасидаги вазифа шунинг учун ҳам беҳад оғир. Қўлига қалам олган одам битиклари буюк бир миллат адабиётига муносиб бўлишига интилмоғи зарур. Миллий тил юксалиши, равақ топиши учун бу тилда яратилган адабиётнинг савияси баланд бўлмоғи шарт.

Бугун сариқ матбуот ўзига ўхшаган хазонранг адабиётни туғди. Унинг тили ғализ, мавзуси олди-қочди, муддаоси эса – оғирнинг устидан, енгилнинг остидан ўтмоқдир. Сариқ адабиётнинг аъмоли – адабсизлик. Шу боис унга оид “асар”ларда икки жинс муносабатидаги ҳазрат Навоийдай зот “зикри тарки адаб ва баёни беҳижобликқа сабаб” [4.51] деб ҳисоблаган жиҳатлар ҳам юзсизларча тарғиб этилаверади. Шу сабабдан одамқушлик, зўравонлик, қотилликнинг яланғоч тасвири бу “адабиёт”нинг асосий объектига айланган.

Бу турдаги “асар”лар миллий маънавиятга катта хавф туғдиради. Азалий ахлоқий қадриятлар таназзулига сабаб бўлади. Адабий-эстетик дидни ўтмаслаштиради, тафаккурни ўлдиради.

Ушбу фикрлар исботи учун сариқ адабиёт намуналаридан истаганча мисол келтириш, уларни таҳлил қилиш мумкин. Бироқ улар бундай эътиборга муносиб эмас, танқиддан тубандир. Бунинг ўрнига миллий адабиётимизнинг сара асарлари ҳақида фикр юритмоқ афзалроқдир.

Агар тилни қуёшга ташбиҳ этилса, адабиёт нурга менгзайди. Чунки Абдулҳамид Чўлпон айтмоқчи, адабиёт “ўткир юрак кирларини ювадурғон тоза маърифат суви” [9.5]. Шу сабабдан ҳам у ақлни чархлайди, дидни ўткирлаштиради, шуурларга ёруғлик бағишлайди. Фақат адабиётгина инсонни жаҳолат гирдобидан халос этиб, маърифат мақомига олиб боришга қодир. Лекин бунинг муҳим бир шарти бор: унинг тилида фасоҳат ва балоғат бўлмоғи зарур. Устоз Абдулла Ориф таъбири билан айтганда, чинакам адабиёт, шеърият намунаси бетакрор мазмун, гўзал ташбиҳ, сирли рух мутаносиблигидан юзага келади. Унинг ўқувчини бутунлай ўзга оламга олиб кириши, китобхон туйғуларига кучли таъсир этиши сабаби шунда. Жаҳоннинг машҳур адибларидан бирининг диққатга сазовор эътирофи бор: “Математика, физика, умуман табиий фанлар бир илм одамани етиштирмоғи мумкин. Чинакам ватанпарварни эса адабиёт тарбиялайди”. Шундай экан, миллатнинг ва миллий адабиётнинг мавжудлик шарти бўлган она тилимиз тақдири учун куйиниш, унинг равнақи учун барча имкониятларни сафарбар этиш ҳар биримизнинг бурчимиздир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 1998.

2. Авлоний, Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. /Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 1998.

3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-том. – Тошкент: Фан, 2000.
5. Кошғарий, Маҳмуд. Девону луғоти-т-турк. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2017.
6. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.
7. Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1990
8. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. - Тошкент: Маънавият, 2006.
9. Чўлпон, Абдулхамид. Асарлар. Тўрт жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016.

Нурбой Жабборов

**Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти
университети профессори, филология фанлари доктори**

ДАВЛАТ ТИЛИГА САДОҚАТ ВАТАНГА САДОҚАТДИР

«Ҳар биримиз давлат тилига бўлган эътиборни мустақилликка бўлган эътибор деб, давлат тилига эҳтиром ва садоқатни она ватанга эҳтиром ва садоқат деб билишимиз, шундай қарашни ҳаётимиз қоидасига айлантиришимиз керак. Бу олижаноб ҳаракатни барчамиз ўзимиздан, ўз оиламиз ва жамоамиздан бошлашимиз, она тилимизга, урф-одат ва қадриятларимизга ҳурмат, Ватанга меҳримизни амалий фаолиятда намоён этишимиз керак».

Ш.М.Мирзиёев

(Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги тарихий нутқдан)

Она тилини асраш, уни янада бойитиш ва ривожлантириш йўлидаги энг муҳим қадамлардан бири, тарихий воқеа сифатида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрда ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-

тадбирлари тўғрисида”ги Фармони асосида ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган кун – 21 октябрь санасини “Ўзбек тили байрами куни” деб эълон қилиниши бўлди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси 75-сессиясида жаҳон минбаридан туриб глобал аҳамиятга эга долзарб масалалар юзасидан ўз нуқтаи назарини ўзбек тилида ёритиб берганлигидир.

Дарҳақиқат, тилимиз бойлигимиздир. Бойлик кўз қорачиғидай асралади, авайланади, эъзозланади. Тилнинг асосий бойлиги сўз ҳисобланар экан, уларнинг асрлар оша йўқолиб кетмаслиги учун ҳам луғатлар тартиб берилади. Бу қадимий анъана бўлиб, ҳозиргача сақланиб ўрганилиб келинаётган тарихий луғатлар бундан гувоҳлик беради. Истиклолдан олдин 1981 йилда чоп этилган “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”га 60 минг сўз киритилган бўлса, мустақилликнинг дастлабки йилларида чоп этилган беш жилдли изоҳли луғатда эса 80 мингдан ортиқ сўз изоҳланди. Ҳозирги ўзгаришлар, янгиланишлар, шунингдек, шевага хос сўзлар ҳам ўрганилиб луғатдан жой олса, луғат бойлигимиз 150-160 минг сўздан ошиши мумкин экан. Бу эса тилшунос, адабиётшуносларимиздан изланишни, илмий тадқиқни талаб этади. Атоқли ёзувчиларимиздан бири Пиримқул Қодиров ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган йилда (1989 й.) журналлардан бирига берган интервьюсида "Тилидан айрилган халқ маънавий Ватанидан жудо бўлади", деган ҳақли фикрни илгари сурган эди. Дарҳақиқат, биргина тилда Ватан, маънавият, маданият, тарих мужассам. Тарихимиз қатларида ўзбек тилини атайлаб сиқиб чиқаришга уриниш орқали миллий маданият, кадрият ва ўзлигимизни йўқотишга бўлган чин маънодаги курашлар бўлган. Бунга қадимдан ва яқин ўтмишимиздан кўплаб мисоллар келтириш мумкин.

Бугун 2021 йил 21 октябрда ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг 32 йиллиги кенг нишонланаркан, беҳосдан хаёлимиздан

тилимиз тарихи, уни сақлаш йўлидаги уринишлар бирма-бир ўтади. Дарҳақиқат, ўзбек тилининг расмий тил сифатида яшаб қолиши учун қилинган биринчи ҳаракат бундан роппа-роса ўн бир аср олдин қилинган.

X асрда Қорахонийлар давлати асосчиси Бўғрохон ҳокимият тепасига келгандан сўнг Туркистондаги кабилалар унинг ҳукмронлигида бирлашдилар ва давлат тили туркий (ўзбек) тил ҳисобланди. Манбаларда XV асрда эски ўзбек тилининг “яшаб” қолиши учун унга иккинчи маротаба давлат тили мақоми берилиши Алишер Навоий ва Ҳусайн Бойқаро замонасига тўғри келганлиги хусусида маълумотлар берилади. Ўзбек (туркий) тилини форс-тожик тили соясидан қутқариш, унинг имкониятларини асослаш, ҳақоратланган тилни “шеърят осмонига кўтариш” муаммоси буюк мутафаккир шоир, давлат арбоби Алишер Навоий зиммасига тушади. Уларнинг замонида ўзбек тили давлат аҳамиятига молик масалага айланади.

Демак, ўзбек тилини бор бўй-басти билан сақлашга қарата уринишлар кўп маротаба бўлган. Бугун бизнинг вазифамиз эса қадимдан сайқалланиб келган, аждодлардан мерос бўлиб қолаётган бебаҳо бойликнинг ворислари сифатида она тилимизни авайлаш, асраш, қўриқлашдир.

Дарҳақиқат, бугунги кунда миллий қадриятларимизга бўлган эътибор, эҳтиромни ўзгача таърифлаш мумкин. Ҳам моддий, ҳам номоддий қадриятларимиз тикланди. Моддий саналган осори атиқалар, ўзбек миллий буюмлари-ю байрам-тантаналари; номоддий бўлмиш урф-одатларимиз, анъаналаримизга муносабат ўзгарди; 1990 йилдан бошлаб ўзбек миллий грамматикасини яратиш учун қатор тадқиқотлар режаси белгиланди, тадқиқот натижалари асосида тилнинг миллий хусусиятлари акс этган дарсликлар яратиш иши йўлга қўйилди; ўзбек тилининг изоҳли луғати, имло луғати, мактаб ўқувчилари учун алоҳида турли номларда луғатлар яратила бошланди; 2016 йил май ойида Алишер Навоий номидаги Ўзбек тили ва адабиёти университетининг очилиши; ўзбек тилига давлат тили мақоми

берилганининг 30 йиллигини нишонлаш борасида қабул қилинган қарор ва 2020-2030 йилларда ўзбек тилини ривожлантириш ҳамда тил сиёсатини такомиллаштириш концепциясида белгиланган вазифалар ўзбек ҳуқуқий тилининг ривожланишига кенг йўл очиб берди.

«Глобаллашув шароитида миллий тилимизнинг софлигини сақлаш, унинг луғат бойлигини ошириш, турли соҳаларда замонавий атамаларнинг ўзбекча муқобилини яратиш, уларнинг бир хил қўлланишини таъминлаш долзарб вазифа бўлиб турибди... Яна бир муҳим вазифа фундаментал тадқиқотлар, саноат, банк-молия тизими, юриспруденция, дипломатия, тиббиёт ва бошқа тармоқларда давлат тилини тўлақонли қўллаш билан боғлиқ» (Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи”// 2019 йил, 21 октябрь// <http://uza.uz/oz/politics/>) каби чора-тадбирлар кўндаланг турган пайтда она тилимиз камолига ғов бўлаётган, унинг файзли ва мусаффо муҳитини бузишга қаратилган иллатларнинг мавжудлиги кишини ғазаблантиради.

Русча сўзларни аралаштириб гапириш, рекламаларда, пешлавҳаларда имло билан боғлиқ хатоликларга йўл қўйиш, ном қўйишда “жарангдор” деб топилиб ҳар қандай чет сўзларни қўллаш (масалан, савдо дўконлари, гўзаллик салонлари, кафеларга “Черадейка”, “Эстел”, “Лавитта”..... каби номлар қўйилган) шулар жумласидандир. Рекламаларда *қаровсиз қолган нарсалар* ўрнида *қарорсиз қолган нарсалар*; *Истанбул* ўрнида *Истамбул*; яқинда ўзбек тилини тарғибот қилиш учун бир гуруҳ ўқитувчи ва ўқувчиларнинг қўлларида “*привет эмас, ассалому алейкум*” деб ёзган реклама қоғозларида ҳам имловий ва услубий хатолар қўлланганки, бу тилга бўлган бепарволикдир.

Тилнинг ҳам ижодкори, ҳам истеъмолчиси бўлган халқ ўз лисонини асло беэътибор қолдирмаслиги лозим. Соф ўзбек тилида мулоқот қилишнинг ўзи

хам миллат тилига бўлган ҳурматнинг нишонаси саналади. Тилнинг миллий жозибасини оширувчи қудрат қонун эмас, балки халқнинг ўзидир. Чунки муайян тилда ҳеч ким гапирмай қўйса, у ижтимоий муносабатлар жараёнига татбиқ этилмаса, у ўз жозибасини йўқотади.

Дарвоқе, ҳар қандай инқироз нафақат қийинчиликлар, балки "имкониятлар эшиги" очилаётган ажойиб даврдир. Янги фикрлар, ижодий кашфиётлар ва яратувчи ғоялар учун энг яхши вақтдир. Бугун бутун дунёда бўлгани сингари Ўзбекистон халқи ҳам синовли даврни бошидан кечирди, бутун бошли кишилиқ жамияти учун синов-имтиҳон даври бошланди, инсоният кўринмас ёв билан курашмоқда. Масалан, пандемия туфайли бир қанча бирликлар нутқимиздан мустаҳкам ўрин эгаллади. Биргина коронавирус билан боғлиқ ўндан ортиқ *кўзга кўринмас ёв, тождор вирус, инсониятни иложсиз қолдирган вирус, тождор вируснинг тожи, хавфли ёв, тожли душман, кўзга кўринмас митти офат, тож кийган вирус, дунё иқтисодини емирувчи касаллик, инсон саломатлигининг кушандаси, чекинмаётган ёв, оламий фалокат* каби перифрастик, метафорик бирликларнинг фаол қўлланишда эканлигини кузатамизки, булар бевосита тиббий нутқ билан боғлиқ.

Бир сўз билан айтганда, тил миллатнинг маънавий-руҳий бойлиги, мулки экан, унга ҳурмат билан қараш, эъзозлаш, унинг юксалиши, тилимизнинг софлиги, бойлиги йўлида курашиш, миллий қадрият даражасига кўтариш барчамизнинг олий бурчимиздир. ЮНЕСКОнинг маълумотига кўра, бугунги кунда бир ҳафта ичида битта тилнинг йўқолиш хавфи мавжуд. 1996-2000 йилларда ЮНЕСКО томонидан “Дунёда йўқолиш хавфида турган тиллар атласи” (“Атлас мировых языков, находящихся под угрозой исчезновения”) яратилиб, унда бугунги кунда турли қитъаларда 1000 дан ортиқ тилларнинг ўлик тилга айланиш ҳолати қайд этилган. Дунёда 6 мингга яқин тил бўлса, улардан 100 га яқини давлат тили мақомига эга экан.

Ўзбек тили шу 100 рақами ичида турган экан, нуфузли тиллардан бири саналишини асло ёддан чиқармаслигимиз керак. Зеро, маърифатпарвар аллома Исҳоқхон Ибрат айтганидек, “ўз тилига садоқат – бу ватаний ишдир”.

Абузалова Мехринисо Кадировна
БухДУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори,
филология фанлари доктори

БЕТАКРОРИМСАН, ЯГОНАМСАН, НАВҚИРОН ОНА ТИЛИМ!

Қадим маданиятлар, кўҳна анъаналар бешиги бўлган тил ҳар бир халқнинг маънавий меросини, миллий ўзлигини ўзида мужассам этган буюк қадриятдир. Шу боисдан ҳам дунёда энг муқаддас ва табаррук зот бўлган она сиймосининг тилга вобаста қилиб, айтилишида улуғ ҳикмат бор. Дунёни азму шижоати билан титратган не-не жаҳонгирлар-у оламни кезган донишмандлар ҳам илк бор тилини она деб атагани забон бахш этган мўътабар зотга чексиз эҳтиромнинг рамзидир.

Улуғ боболаримизнинг ўз она тилида яратган дурдона асарлари бугун жаҳон аҳлини ҳайратга солиб келаётганлиги ҳар биримизда фахр-ифтихор туйғусини юксалтиради. Бу ҳақда гап кетар экан, Маҳмуд Қошғарийнинг “Девони луғотит турк”, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асарларини, она тилимизнинг бетакрор оҳангларини тасвирлаб берган ҳазрат Навоий ижодини, адибнинг “Хамса” дурдонасини, “Хазойин ул-маоний” девонини, шоҳ ва шоир Бобур мирзо меросини, “Бобурнома” асарини, унинг девонини алоҳида қайд этиш лозим. Кўҳна ва навқирон тилимиз асрлар давомида не-не талотумлар ва давр синовларига дош бериб, бамисоли оловда туғилиб, оловдан омон чиқадиган афсонавий қуш - самандардек бугунги замонавий, ривожланган, дунё билан бўйлашган мамлакат ва халқ тилига айланди.

Ўтган асрнинг 80-йиллари охиригача жамиятнинг соҳа ва тармоқларида рус тили “ҳукмронлиги”нинг узоқ муддат давом этганлиги

Ўзбек тилининг илмий тадқиқига ҳам таъсир этмасдан қолмади, албатта. Ниҳоят, орзиқиб кутган кун – 1989 йил 21 октябрь куни Биринчи Президентимиз томонидан Ўзбек тили – давлат тили, деб эълон қилинди. “Давлат тили ҳақида” Қонун қабул қилинди. Халқимизнинг асрий орзулари рўёбга чиқди. Букилмас ва навқирон она тилимиз мураккаб синовлардан мардонавор ўтди. Асосий Қонунимиз – мамлакат Конституцияси ҳамда давлат Мадҳиясининг она тилимизда яратилгани миллий давлатчилигимизнинг мустаҳкам пойдевори бўлди. Давлат тилида таълим олиш, дарслик ва ўқув қўлланмалар яратиш, матбуот, радио ва телевидение соҳасида мақола, кўрсатув ва эшиттиришлар тайёрлаш борасида дадил қадамлар ташланди. Тилимизнинг мазмуний ифодаси кенг қўламда тадқиқ қилинди. Она тилимизни маданият, жамият, руҳият, мантиқ билан боғлиқликда таҳлил қилиш, уни ўрганиш бўйича илмий қадамлар ташланди.

Кейинги икки йилда Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев томонидан ўзбек тилининг нуфузини ошириш бўйича иккита Фармон қабул қилинди. Вазирлар Маҳкамасининг кўплаб қарорлари ишлаб чиқилди. Соҳанинг ҳуқуқий базаси тубдан янгиланди. Энг қувонарлиси, 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли Фармон асосида 21 октябр мамлакатимизда “Ўзбек тили байрами куни” деб эълон қилингани тарихий воқеа бўлди. Нафақат бу ўзбек тили мутахассисларига, балки, барча юртдошларимизда ғурур бағишлади ва аждодларимизнинг асрий орзуларини рўёбга чиқарди. Мана икки йилдирки, тил байрами арафасида Самарқандда бу сана катта тантаналар билан қарши олинди, университет ёшлари, вилоят фахрийлари, зиёлилар, шоир-ёзувчилар иштирокида давра суҳбатлари, форумлар, учрашувлар, фестиваллар ўтказиб келинмоқда. Ёшларимизда миллий ўзликни англаш туйғуси ошиб бормоқда.

Бугунги кунда Президентимиз Фармони билан Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида ташкил этилган Давлат тилини ривожлантириш департаменти

VA ILMİY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI O'RNINI

давлат тили ва унинг амал қилиши билан боғлиқ муаммолар ечимида ташаббус кўрсатмоқда. Департамент томонидан аниқ вазифалар қўйилмоқда. Албатта, мамлакатимизда она тилимизга бўлган бундай юксак эътибор ва ғамхўрлик сув ва ҳаводай зарур эди. Негаки, энг катта муаммомиз бўлган ташқи рекламалар, бинолар пештоқидаги ёзувларни қонунчиликка мувофиқлаштирилишида, миллий менталитетимизга уйғунлаштиришимизда турли шакл-шамойилдаги аралаш-қуралаш ёзувларга нисбатан жамоатчиликнинг мурасасиз муносабатини шакллантириш долзарб масала бўлиб қолмоқда. Бу борада кенг кўламли таҳлилий ўрганишлар ҳам амалга оширилди.

Давлатимиз Раҳбарининг 2020 йил 20 октябрда қабул қилган ПФ-6084-сонли Фармони тизимда кенг кўламли стратегик вазифаларни белгилаб берди. Айтиш жоизки, ушбу ҳужжат асосида 2020-2030-йилларда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тасдиқланган. Давлат мактабгача таълим тизимида ўзбек тили гуруҳлари сонини 2025 йилгача 72 фоизга, 2030 йилгача 80 фоизга етказиш белгиланган. Бу, албатта, таълим тизимининг илк босқичида она тили ўқитиш тизимини кенгайтириб, болаларда ижодкорликни, теран тафаккурни, ёзиш кўникмаларини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, 2030 йилга қадар умумтаълим мактабларида ўзбек тили фанини ўқитиш кўламини амалдаги ҳафтада 84 соатдан 110 соатга ошириш, олий таълим муассасаларида ўзбек тили кафедраларини 2025 йилга қадар 120 тага, 2030 йилгача 140 тага етказиш кўзда тутилган. Бу мутахассислар учун жуда катта имконият бўлиб, Президентимизнинг маданиятимизга, маънавиятимизга бўлган юксак эътибори ва ишончининг натижасидир.

Энг аҳамиятлиси, Фармон асосида жорий йилнинг 1 апрелидан бошлаб, раҳбар кадрлар учун давлат тилини билиш даражасини аниқлаш бўйича тест тизими ҳамда масъул лавозимларга тайинланадиган шахслар учун давлат

тилини билиш бўйича даража сертификатлари жорий этилди. 2021 йилнинг 5 май куни Давлат тест маркази томонидан илк бор кадрларнинг давлат тилида иш юритиш даражасини аниқлаш бўйича тест синовлари ўтказилди. Айтмоқчиманки, бундай фаол тил сиёсати келгусида ўзбек тилининг нафақат оғзаки, балки ёзма мулоқот кўламини ҳам кенгайтиради. Бу эса банк-молия тизими, саноат, ишлаб чиқариш, ҳуқуқшунослик, ҳарбий иш, тиббиёт каби ҳанузгача рус тилининг таъсири сақланиб қолаётган соҳа ва тармоқларда ўзбек тилининг имкониятларидан самарали фойдаланишга, оддий, рагон ўзбекона атама ва терминларни кенг қўллашга ундайди. Айни шу йўналишда бугун Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Атамалар комиссияси ҳам фаолият юритмоқда. Глобаллашув шароитида тилимиз софлигини сақлаш, унинг луғат бойлигини мунтазам ошириб бориш вазифаси қўйилмоқда.

Бугун дунёда ҳар қайси халқ ўз она тилини асраб-авайлаши ҳар қачонгидан ҳам долзарб бўлаётир. ЮНЕСКОнинг “Юқолиб кетиш хавфи арафасида турган жаҳон тиллари атлас”ида келтирилишича, Европада 50 та, Тинч океани минтақасида 200 та тил ана шундай хавф ёқасида. Африкадаги 1400 та тилдан 250 таси яқин йилларда, 600 таси келажакда бутунлай йўқолади. Бу рақамлар маданиятга бефарқ бўлмаган ҳар қандай инсонни ўйлантиради. Ҳозирда ўзбек тилида гаплашувчилар сони дунё бўйича 50 миллионга етмоқда. Айниқса, Афғонистон, Тожикистон, Қирғизистонда миллионлаб ўзбеклар истиқомат қилишади. Жаҳоннинг 60 га яқин университетларида, 100 га яқин мактабларида ўзбек тили ўрганилмоқда. Илмий изланишлар олиб бораётган чет эллик олим ва тадқиқотчилар сони ҳам ошиб бормоқда. Президентимизнинг БМТ Бош ассамблеясининг 75-сессиясида юксак халқаро минбардан туриб, ўзбек тилида нутқ сўзлагани, тилимиз тарихида унутилмас воқеага айланди. Дунёнинг энг етакчи тиллари қаторида ўзбек тили ҳам илк бор халқаро доирада баралла янграгани ҳар бир

юртдошимизда фахр-ифтихорни, миллий ғурурни, улуғ аждодларимизга муносиб ворислик туйғуларини оширди.

Ҳақиқатдан ҳам буюк маърифатпарвар бобомиз Абдулла Авлоний айтганидек, ҳар бир халқнинг дунёда борлигини кўрсатадиган ойинаи ҳаёти унинг тили ва адабиётидир. Шу маънода мамлакатимизнинг туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгашига аъзо бўлганлиги, ўз навбатида нафақат иқтисодий, балки, она тилимизнинг туркий тиллар орасидаги мақомини ҳам ҳар жиҳатдан мустаҳкамлади. Энг асосийси, юз жилдлик “Туркий адабиёт хазинаси” китоблар туркуми аъзо давлатларнинг ўз она тилларида нашр этилиши жаҳон тамаддунининг бебаҳо дурдоналари билан ёшларимизнинг яқиндан таништиришга, бизнинг тилимиз, тарихимиз ва маданиятларимиз муштарак эканлигига муносиб тухфа бўлмоқда.

Шу ўринда она тилимиз ривожини учун тузилган яна бир хайрли ташкилот Ўзбек тилини ривожлантириш жамғармаси фаолиятини алоҳида қайд этишимиз лозим. Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида ташкил этилган бу жамғарма тилимиз ривожига қаратилган ташаббускор лойиҳалар бўйича грантлар эълон қилмоқда. Тилимиз бўйича компьютер дастурларини тайёрлаш ишларини қўллаб-қувватламоқда. Жамғарма томонидан “Давлат тилида иш юритиш” китобининг янгидан нашр этилиши, бошқарув фаолиятида асосий манба бўлиб хизмат қилмоқда. Ҳозирда жаҳон тилшунослиги глобал тармоқда қатъий қидирувга бўйсундирилган ўзининг миллий тил корпусини яратиш, бу борада маданиятлар тарғиботи кенгайиб бормоқда. Мана шундай қайноқ жараёнда, таъбир жоиз бўлса, тилимизга сармоя киритувчи Жамғарма кўмагида она тилимизнинг ҳам миллий корпусини яратиш ишига биз тилшунослар ҳар томонлама пухта ёндашишимиз, тилимизнинг бетакрор сеҳру-таровати мужассам бўлган иборалар, мақол ва маталларнинг моҳиятига алоҳида аҳамият қаратишимиз зарур, деб ўйлайман. Биргина мисол келтирмоқчиман: халқимизда “Меҳмон

келса, кут келар”, деган ҳикмат бор. Айни шу мақол XI асрда Маҳмуд Қошғарийнинг “Девони луғотит турк” асарида келтирилган. Яъни, “Ума келса, кут келар”. Қарийиб, минг йилдан зиёд тарихга эга бўлган бу мақолнинг бизнинг қон-томиримизга сингиб кетганлиги бежиз эмас. Мана шундай миллий кадриятларимизнинг моҳияти кўҳна мозийлар билан туташини, буларнинг барчасида сўзнинг қиймати ва зийнاتини муносиб баҳолашимиз керак. Бу орқали келгусида электрон тил корпусининг мукамаллигига эришиш мумкин.

Энг муҳими олдимизга қўйилган масъулиятли вазифаларни амалга оширишда она халқимизга бўлган фарзандлик меҳри ва садоқати билан ёндашишимиз ҳам қарз, ҳам фарз. Билдирилган юксак ишончни шараф билан адо этиб, ёшларимизни ўз ортимиздан эргаштириб, дунёга юз тутаётган она тилимиз ислохотларида камарбаста бўлмоғимиз зарур. Бу эса дахлдорлик ҳиссини ошириб, ҳар биримизни фаол ва ташаббускор бўлишга ундайди.

Азамат Пардаев,

СамДУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори,

филология фанлари доктори

МИЛЛИЙ ЎЗЛИГИМИЗ ВА МУСТАҚИЛ ДАВЛАТЧИЛИГИМИЗ ТИМСОЛИ

Маълумки, тил – миллатни миллат сифатида ажратиб турадиган белгиси, бебаҳо бойлиги, моддий, маънавий меросни сақлаш ва бойитишнинг энг кучли воситаси, инсонийлик жамиятининг асоси, давлат суверенитетининг муҳим тамойилларидан бири. Миллат тарихи қанча узоққа бориб тақалса, тил ҳам шунча қадимий. Тил азалдан мавжуд ва миллат бор экан, у ҳам яшаб қолаверади. Қисқа муддатда дунё харитасида янги давлатлар пайдо бўлиши мумкин, аммо ҳеч вақт бир кун ёки бир асрда янги бир тил пайдо бўлиб қолмайди. Инсонни тилига қараб қайси миллатга мансублиги, шевасига қараб қаерлик экани аниқланади.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда давлат тилини ривожлантириш, тил сиёсатини такомиллаштириш борасида олиб борилаётган кенг кўламли ислохотлар, ўзбек тили тарихида янги даврни бошлаб берди. “Давлат тили ҳақида”ги қонуннинг 30 йиллигини нишонлаш арафасида ўзбек тили ривожига тўсиқ бўлаётган муаммоларга эътибор қаратилди. Гарчи қонунда “давлат тили расмий амал қиладиган доираларда ўзбек адабий тилининг амалдаги илмий қоидалари ва нормаларига риоя этилиши”, “янги илмий асосланган атамалар жамоатчилик муҳокамасидан кейин ва Олий Мажлис тегишли қўмитасининг розилиги билан ўзбек тилига жорий этилиши” қатъий белгиланган бўлса-да, ўрганишлар жараёнида мустабид тузум ҳукмронлиги даврида халқимизнинг ўзига хос жасорати тимсоли сифатида қабул қилинган мазкур қонун ижроси йиллар давомида деярли ўз ҳолига ташлаб қўйилгани қаттиқ танқидга учради. Шундан кейин давлат тилига эътибор масаласига бирмунча жиддий ёндашувлар бошланди

Она тилимизни ривожлантириш, мамлакатимизда тил сиёсатини такомиллаштириш ҳаракатлари сўнгги йилларда энг юқори даражага кўтарилди десак, муболаға қилмаймиз. Сўнгги икки-уч йил оралиғида она тилимиз тақдирига алоқадор бир неча фармон ва қарорлар имзоланди. Ушбу муҳим тарихий ҳужжатларда амалга ошириш кўзда тутилган мақсадлар биз, тилшунослар олдида қуйидаги вазифаларни қўймоқда:

Биринчидан, она тили таълими мақсадига мос равишда таълим мазмуни, ўқитиш воситалари ва усулини тил ўқитишнинг замонавий талаблари даражасида такомиллаштириш. Бу, олдимизга мактаб грамматикаси ва илмий грамматика тушунчаларини фарқлаш, мактаб ўқувчилари даражасидаги грамматик минимум, лексик минимум, фразеологик минимум кабиларни белгилиб олиш, она тили дарсликларини грамматикалаштириш асоратидан батамом ҳоли қилиш, таълим мазмунининг бошланғич синфларда сўз бойлигини ошириш, ёш авлодда замонавий

шахсининг муҳим кўрсаткичларидан бири – коммуникатив компетентликни ўстиришга эришиш вазифаларини қўяди.

Иккинчидан, биламизки, тил табиатан ўзгарувчан, у доимий ҳаракатда. Уни бир меъёрда ушлаб туриб бўлмайди. Ҳаёт суръатлари мисли кўрилмаган даражада тезлашган бугунги ахборот асрида тилнинг сайқалланиш, содаллашиш, силлиқланиш жараёнлари ҳам аввалгидек асрларни ўтказиб юбормайди. Сўзлашув нутқи – шеваларнинг фонетик, морфологик тараққиёти жорий адабий тил меъёрлари ва жонли нутқ ўртасида сезиларли тафовутларнинг юзага келишига сабаб бўлди. Бу айти пайтда ёзма ва оғзаки саводхонликка путур етказаётган омиллардан бири бўлиб, ўзбек орфографиясининг мавжуд тамойилларига асосланган мукамал имло қоидаларини ишлаб чиқиш ва шу асосда ягона имло луғатини нашр этиш, умуман, имло ислоҳотини ўтказиш заруратини кучайтирмоқда.

Учинчидан, табиийки, миллат ва у мансуб жамият тараққий этиб борар экан, тил ҳам тинимсиз бойийди, тараққий этади; янги сўзлар, иборалар пайдо бўлади. Айти пайтда сўз ўзлаштириш жараёнлари шу қадар тезлашганки, уларни зудлик билан луғатларда қамраб олиб, луғат шаклини белгиламасак, омма истеъмол доираси кенгайиб бораётган ёт сўзни ёзма нутқида ё аслига мувофиқ қўллай бошлайди ёки ўзи хоҳлаганча “ўзлаштиради”.

Мамлакатимизда компьютер лингвистикасини ривожлантириш, матндаги орфографик, пунктуацион, услубий хатоларни топиб, автоматик таҳрир қиладиган, сўзнинг маънодошлари, уядошлари, талаффуздошларини тез ва осон аниқлаб берадиган дастурларни яратиш, лотин алифбосига асосланган ўзбек ёзувидаги ҳарф бирикмаси, ёзувда икки амал билан бажариладиган ў, ғ ҳарфларини ёзишда техник хатоликларнинг келиб чиқишига сабаб бўладиган ноқулайликларни бартараф этиш йўллариини ишлаб чиқиш ҳам долзарб вазифалардан.

Глобаллашув шароитида миллий маданият феноменининг асосий белгиси бўлган тилнинг мақом ва мевқеини сақлаб қолиш, ахборот-коммуникация, интернет тилига айланиш даражасини оширишда таълимнинг турли бўғинлари учун мўлжалланган янги авлод ўқув луғатлари ҳамда уларнинг электрон қурилмаларда ишлашга мўлжалланган мобиль иловаларини яратиш, фойдаланувчиларда лексикографик компетентликни оширишга қаратилган амалий ишларнинг роли муҳим.

Хуллас, миллий бойликлар ичида энг нодир, энг бебаҳоси бўлган тилимизни ўзимиздан кейинги авлодга софлигини сақлаб, бойлигини ошириб, жилосини йўқотмай етказиб бериш ҳар биримизнинг муҳим вазифамиздир.

Баҳриддинова Б.М.

**Қарши ДУ ўзбек тилшунослиги кафедраси мудир
филология фанлари доктори**

1-SHO‘BA: TILSHUNOSLIKNING AN‘ANAVIY VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

TILGA SISTEM YONDASHUVNING LINGVISTIK KONSEPSIYALARI

Axmedova Dildora Bahodirovna

BuxDUning Pedagogika instituti o‘zbek va rus tillari kafedrası

katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

Hamidova Iroda Olimovna

BuxDU Xorijiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada tilning bir butunlikni tashkil qiluvchi elementlar sistemasi ekanligi atroflicha yoritilgan. Jahon, rus va o‘zbek tilshunosligida tilga sistem yondashuv borasidagi qarashlar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: til, sistema, sistem-struktur yondashuv, lingvistik konsepsiyalar, leksikologiya, semantik maydon, mikromaydon, semantik guruh, iyerarxiya, mikrodunyo, makrodunyo, megadunyo.

Til – yaxlit bir butunlikni tashkil qiluvchi elementlar sistemasi. Uni tashkil etuvchi har bir elementning ma’nosi bir vaqtning o‘zida sistemani tashkil qilayotgan boshqa elementlarning mavjud bo‘lishidan kelib chiqadi.[1; 147] “Mohiyatini haligacha hech kim anglamagan, umri davomida imkoniyatlarining milliard-milliarddan bir qismidan ham hech kim foydalanishga ulgurolmaydigan, cheksiz sanalgan til sanoqli ma’no g‘ishtchalari (semalar), shakl birliklari va munosabat turlarining o‘zaro rang-barang birikib, ko‘z ko‘rolmaydigan, quloq eshitib nihoyasiga yetolmaydigan turli-tumanlikni tashkil etadi. Buni faqat riyoziyotda o‘n raqami va to‘rt amalning soddaligi, riyoziyot esa shularning turli xildagi birlashuvining natijasidan iboratligi bilan yoki moddalarining xilma-xilligini sanab, tavsiflab poyoniga yeta olmaydigan Quyosh tizimi sayyoralaridagi barcha moddalarni D.I.Mendeleyevning kaftdek keladigan kimyoviy elementlarning davriy jadvali o‘z ichiga olishi bilan qiyoslash mumkin.

Tilshunoslikning vazifasi esa mana shunday tizimni ochishdan iboratdir".[2; 123]

V.Gumboldt, A.Shleyxer, G.Shteyntal, V.Matezius, V.Skalichka, N.S.Trubeskoy, L.Elmslev, X.Uldal, L.Blumfeld, E.Sepir, B.Uorf, 3.S.Xarris, A.Martine, L.Vaysgerber, Boduen de Kurtene, F.Fortunatov singari jahon tilshunosligining ko'zga ko'ringan olimlari tomonidan ilgari surilgan lingvistik konsepsiyalarda tilga sistem-struktur yondashuvning turli xil ko'rinishlarini uchratish mumkin. Rus tilshunosligida L.V.Shcherba, V.V.Vinogradov, O.S.Axmanova, A.A.Ufimseva, Y.S.Stepanov, D.N.Shmelev, L.A.Novikov kabi olimlar tomonidan leksik sistema va struktura yetarlicha tadqiq qilingan.

O'zbek tili leksikasini atroflicha o'rganishda S.Ibrohimov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, X.Doniyorov, 3.Ma'rupov, H.Ne'matov, I.Qo'chqortoyev, Olim Usmon, T.Aliqulov, B.O'rinboev, R.Qo'ng'urov, E.Umarov, B.Bafoyev, H.Dadaboyev, R.Rasulov, R.Doniyorov, T.Nafasov, N.Mahkamov, A.Madvaliyev kabi olimlarning xizmatlari beqiyos. Ular fundamental tadqiqotlari bilan o'zbek tili leksikasini sistema sifatida o'rganish uchun ulkan zamin hozirladilar; bu usulni bir qadar boshlab ham berdilar; o'zbek tili sistem leksikologiyasiga asos soldilar. Sh.Rahmatullayev, E.Begmatov, H.Ne'matov, N.Mahmudov, R.Rasulov, M.Mirtojyev, O.Bozorov, Sh.Iskandarova, R.Safarova, M.Narziyeva, Sh.Orifjonova, B.Qilichev, G.Ne'matova, H.Saidovalarning ilmiy izlanishlari esa to'g'ridan to'g'ri leksikani sistem tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishga bag'ishlangan.

Semantik maydon nazariyasi asosida sohalararo alohida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, asosan, XX asrning 70-80 yillaridan boshlandi. Shu munosabat bilan o'zbek tili leksikologiyasi tavsifiy bosqichdan yangi nazariy bosqichga ko'tarildi. Bu bosqich leksikani ma'lum bir semantik guruhlardan, muayyan ma'no elementlarining munosabatlaridan tashkil topgan yaxlit bir sistema sifatida o'rganish bilan xarakterlanadi.

A.Sobirovning fikricha, o'zbek tilshunosligiga maydon nazariyasining kirib kelishi til birliklariga nisbatan sistem-struktur metodlarning qo'llanila boshlashi bilan bog'liq. Bu borada amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ichida A.Nurmonov, H.Ne'matov, R.Rasulov, I.Qo'chqortoyev, E.Begmatov, T.Mirzaqulov, Sh.Iskandarova, O.Bozorov, R.Safarova, B.Qilichev, M.Narziyeva, F.Safarov, H.Hojiyevalarning ilmiy kuzatishlari va olingan xulosalar o'zbek tili leksikasini maydon nazariyasi asosida o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Sh.Iskandarova shaxs mikromaydoni misolida o'zbek tili leksikasini semantik maydon sifatida o'rganish muammolarini ko'tarib chiqdi. Sh.Iskandarova olamning guruhlariga bo'linishi va uning tilda aks etishi haqida batafsil fikr yuritib, shaxs mikromaydonida faoliyat ko'rsatuvchi 100 ga yaqin leksik-semantik guruh haqida ma'lumot beradi. Masalan, savodxon, donishmand, zakovatli, farosatli, idrokli, qoloq kabi leksemalar saviya asosida farq qiluvchi nomlar guruhiga kiritiladi, ularning umumiy va farqli tomonlari izohlanadi. T.Mirzaqulov o'zbek tili morfem paradigmatisasi va sintagmatikasi masalalariga to'xtalar ekan, funksional-semantik maydonning xususiyatlarini yoritib beradi. Uning ta'kidlashicha, tilshunoslikda maydon (leksik, leksik-semantik, semantik, morfosemantik, assosiativ, grammatik, funksional-semantik maydon) paradigmatisa, paradigma tushunchalaridan farqlanmagan holda qo'llanilaveradi. Aslida, maydon bir umumiy mazmun yoki shakl o'xshashligi asosida turli sathlarga tegishli birliklarning funksional-semantik birlashuvidir. M.Abduvaliyev har qanday maydonning ma'no va ifoda plani qismlaridan tashkil topishini ta'kidlagan holda, maydonda dominant, yadro va periferiya qismlari mavjud bo'lishi haqida fikr yuritadi. Har bir tilda leksemalar muayyan qonun-qoidalar asosida bir yerga jamlanadi.

Tildagi semantik maydon iyerarxiasini belgilash, mazkur maydonlardagi makro, medio va mikroqurilmalarni aniqlash uchun, avvalo, tilning falsafiy asoslariga e'tibor berish lozim. Falsafada olamga narsa va hodisaning

bog'lanishlari, aloqadorligi, munosabatlarning tartibli, tadrijiy rivojlanishi, makon va zamondagi birligiga asoslangan yaxlit bir sistema sifatida qaraladi. Mazkur sistema ichidagi aloqalarni ta'minlaydigan mustaqil tarkibiy qismlarning har biri element sanaladi.

A.Sobirovning ta'kidlashicha, olamning o'z-o'zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa/voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimdan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligi sinergetikaning o'rganish obyekti sanaladi. Sinergetika yutuqlariga asoslangan holda olamni uchga bo'lish mumkin:

1. Mikroduyo. Atom miqyosidan kichik bo'lgan dunyo. Bu dunyoga atomni tashkil qiluvchi elementlar, atom yadrosi, kvarklar kiradi. Mikroduyo elementlarini oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi, lekin ular butun olamning moddiy asosini tashkil qiladi. Hozirgi ilm-fanning aniqlashiga ko'ra, real borliqdagi har qanday jism molekuladan, molekula esa atomlardan tashkil topadi. Atomning yadrosida proton, neytron, kvark, glyuon, nuklon, giperon, barion kabi zarrachalar mavjud bo'ladi. Mazkur zarrachalar o'ziga xos qonuniyatlar asosida bir-biri bilan birlashib turib, real predmet/hodisani hosil qiladi. Ularning har biri tilda alohida nomga ega bo'ladi.

2. Makroduyo. Biz odatlangan o'lchovdagi, ya'ni mikroskopik kattalikdagi narsalarga makroduyo deyiladi. Makroduyo muayyan jism, narsa-hodisa sifatida namoyon bo'ladi va megadunyoning asosi sanaladi. Makroduyodagi har bir a'zo tilda o'zining muqim nomiga ega.

3. Megadunyo. Yer, oy, quyosh, yulduz – butun koinotning strukturaviy yaxlitligi, o'zaro gravitatsion ta'siri tufayli birikib turgan dunyo .

A.Sobirovning bunday tasnifi atov birliklarini semantik teglash uchun maydon iyerarxiyasini belgilashda qo'l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Соссюр Ф. Де. Труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1977.

2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Ибрагимов С. Профессиональная лексика узбекского языка: Автореф. дис... д-ра фил. наук. – Ташкент, 1961.;
4. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent, 1985.
5. Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O'zbek tili va adabiyoti. – 1989, 6-son. – B.35- 40.
6. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
7. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni): Fil. fanlari dok.. . diss. avtoreferat. – Toshkent, 1999.

ТИББИЙ БИРЛИКЛАР ПЛАТФОРМАСИНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ

Ғайбуллаева Нафиса Изатуллаевна

Бухоро давлат университетининг

Педагогика институти доценти, ф.ф.ф.(PhD)

Ўзбек тилининг барча лексик ресурсларида бўлгани каби тиббий лексик бирликларнинг ҳам ўз бойиш йўллари бор ва улар тилимиз тараққиётидаги умумий қонуниятларга мувофиқ келади. Дунёда четдан сўз ўзлаштирмаган бирорта ҳам тил йўқ. Ҳамма тилларда ҳам янги тушунчани ифодалаш учун ё бошқа тилдан тайёр термин қабул қилинади, ё шу тилнинг ўзида мавжуд бўлган сўз ёки терминдан фойдаланилади, ёки янги тасвирий, изоҳли атамалар ясалади. Шу жумладан, биз сўз юритмоқчи бўлган тил корпуси учун база бўладиган тиббий платформа ҳам ўзбек атамашунослиги

захирасини бойитишда, терминларнинг атамалар орқали ёритилишида, аниқ ва ихчам терминлар ўрнига мазмундор изоҳларнинг берилишида, айтилиши ноўрин бўлган тиббий терминларнинг ноёб тиббий атамалар билан тўлдирилишида хизмат қилади. Терминшуносларнинг билдирган фикрига қараганда, метафора, эвфемизм, перифраза атамалар ҳосил қилишда асосий рол ўйнайди. Бунда умумадабий ёки жонли тилдаги сўзларнинг бирор хусусиятини шаклан ўхшашлигини, ранг тусидаги бир хилликни асос қилиб олиш туфайли мана шундай янги-янги атамалар вужудга келади. Ўзбек тилининг турли соҳа терминологик тизимларини ўрганишга бағишланган кўпгина ишларда семантик усул билан термин ясаш терминологияни бойитувчи муҳим бир манба сифатида эътироф этилади.

Биз яратаётган тиббий бирликлар платформасида ҳам айнан шу уч (метафора, перифраза, эвфемизм каби) тил ҳодисаларининг хизмати катта. Тиббиётда ишлатиладиган кўштомқ, ноғора парда, шох парда, қорасон, сувчечак, чечак, қоқшол, тўрпарда, кўз олмаси, балиқ тангачаси, қулоқ супачаси бурун супраси чиғаноғи, қулоқ супраси чиғаноғи, сийдик найи каби терминларнинг ишлатилиши ёки пандемия туфайли бир қанча бирликлар нутқимиздан мустаҳкам ўрин эгаллади. Биргина коронавирус билан боғлиқ ўндан ортиқ кўзга кўринмас ёв, тождор вирус, инсониятни иложсиз қолдирган вирус, тождор вируснинг тожи, хавфли ёв, тожли душман, кўзга кўринмас митти офат, тож кийган вирус, дунё иқтисодини емирувчи касаллик, инсон саломатлигининг кушандаси, чекинмаётган ёв, дунё ҳамжамиятига катта хавф солган вирус, инсонларнинг тиббий саломатлигини емираётган вирус, инсонларнинг руҳий саломатлигини емираётган вирус каби бирликларнинг фаол қўлланилиши бевосита тиббий нутқ билан боғлиқ. Маълум бир ўзга тилдан кириб келган тиббий термин албатта изоҳга эҳтиёжманд. Платформада айнан шундай терминларнинг изоҳлари учта электрон луғат орқали изоҳланиб берилади.

1.Тиббий метафоралар электрон луғати ўзида минглаб сўз ва сўз бирикмаларини қамраб олиб, қуйидагича изоҳланилади.

- Тиббиётда тана қисмлари номлари метафора йўли билан бошқа орган номи сифатида ҳам қўлланилган қуйидаги қоринча, оёқ, бош, бошча, лаб, бел, тилча каби терминлар бирикмали ҳолатда ҳам ишлатилади. Суякнинг боши, буйрак бели, юрак қоринчаси, қон таначаси, бачадон бўйни, мушакнинг орқа қорин қисми, ўн икки бармоқ ичак, танглай тилчаси, мия оёқчаси, тўрт босли мускул, уч бошли мускул, сингари атамалар каби;

- Кийим-кечак ва уларнинг қисмларини англлатувчи терминлар: мия тўни, мия чоки, эшитув хошияси, қорин бурмаси, елка камари каби;

- Кундалик ҳаётда ишлатиладиган рўзғор буюмлари, турли нарса-предмет номлари метафора йўли билан атамалар ҳосил қилишда иштирок этган: сийдик пуфаги, ўт пуфаги, мия ўроғи, кулоқ сақичи, жигар тугуни, ноғора парда, шох парда, калла гумбази, суяк қавати, тиш тоши, тўр парда қадаҳчалари, киндик тизимчаси, буйрак калаваси, сўрғич толалари, нерв толаси, товуш пардаси, буйрак тўпи, қорин чарвиси, кулоқ ойнаси, соч кепаси, касаллик ўчоғи, кўкрак қафаси, ичак сўрғичи, буйрак жоми каби;

- Зооморфик метафоралар ҳайвонларнинг номларини, уларнинг тана қисмларини ва уларнинг мавжудлиги билан боғлиқ бошқа исмларни бирлаштиради: мия чувалчанги, йўлбарс юраги, бўританглай, от думи, балиқ тангачаси, товуқ эти, товуқ касаллиги, қуёнлаб, филоёқ, ғоз териси, қўйбурун, тери сили, бақача, денгиз оти, балиқ иқраси синдроми каби;

- Ранг билан боғлиқ метафоралар: малинаранг тил, миянинг кулранг қобиғи, қорасон, қизилча, сариқ, сариқ иситма, сариқ тана, кўкйўтал, пушти ранг темиртки, қоражигар, тарғил тана, қорақўтир, қора оқсок, сариқдоғ, оқ касали каби мисоллар шулар жумласидандир.

2. Тиббий перифразалар электрон луғатида ҳам ҳар бир тиббий терминнинг муҳим хусусиятлар тасвирланиб, қиёсланиб, структурал гуруҳлар асосида изоҳланади.

- сўз сифатида шаклланган тиббий перифразалар;
- ибора сифатида шаклланган тиббий перифразалар;
- сўз бирикмаси асосида шаклланган тиббий перифразалар.

Сўз сифатида шаклланган тиббий перифразалар

1. Грипп *касофат* ёмон ёпишди, беш-олти кун ваража қилди. (Мурод Муҳаммад Дўст “Лолазор”)
2. Ўжар экан бу солдат, деб ташлаб қўймадилар. Кўп қатори ярамни *боқдилар*. (Н.Сафаров. “Оловли излар”)

Ибора сифатида шаклланган тиббий перифразалар

1. Эшон ўзини сал йўқотаёзди. *Тили ганга келмай* галдирайди. (С. Аҳмад “Ҳукм”)
2. Сал совуқ тушди дегунча, *жонини эговлайдиган бод касали* туфайли айвонга ҳам чиқолмай қоларди. (“Ёшлик”дан).
3. Мана, бугун ҳам *илигидан дармони қуриб* қайтди. Бурнига чертсанг, йиқилади. (Шухрат, “Умр пағоналари”)

Сўз бирикмаси асосида шаклланган тиббий перифразалар

1. Бу йил дори ўрнига далаларга *ҳашарот кушандасини* қўйиб юборишди.
2. *Бешафқат касал* қизнинг ҳуснинигина эмас, ёшлик ғурурини ҳам олиб кетди. (С.Шамсийева “Шифокор”)
3. Дард деган нарса анойи беморни топса, танасидан чикмай ўтириб олади. Шунинг учун ҳам оғриғининг тайини йўқ беморларни *“бой касал”* дейишади. (“Муштум”)

3. Тиббий эвфемизмлар электрон луғатида ҳар айтилиши уят, номаъқул, ноўрин саналган тиббий атамалар семантик базаси шакллантирилади.

- Аёлларнинг узрли ҳолатлари (хайз пайти, ҳомиладорлик даври) билан боғлиқ тиббий эвфемизмлар;
- Биомоддани англатувчи тиббий эвфемизмлар;
- Давосиз ёки давоси узок кечадиган касаллик номлари билан боғлиқ тиббий эвфемизмлар;
- Жинслараро (эркак ва аёл) муносабатларига нисбатан қўлланиладиган тиббий эвфемизмлар;
- Жинсий аъзолар номи билан боғлиқ тиббий эвфемизмлар;
- Жинсий касаллик номи билан боғлиқ тиббий эвфемизмлар;
- Жинсларга боғлиқ тиббий эвфемизмлар;
- Инсон тана аъзоларини ифодаловчи тиббий эвфемизмлар;
- Инсоннинг айрим физиологик ёки жисмоний жараён/ҳолатини ифодаловчи тиббий эвфемизмлар;
- Соғаймоқ, касал бўлмоқ ва ўлим ҳолати кабилар билан боғлиқ тиббий эвфемизмлар. Масалан: инсоннинг айрим физиологик ёки жисмоний жараён/ҳолатини ифодаловчи тиббий эвфемизмлар:

Балогатга етмоқ - таянч тиббий бирлик

Эвфемик бирликлари:

- *Барвақт етилмоқ (эвф).* Маълумки, жанубий мамлакатларда қизлар барвақт етилади ва улар 10 ёшдан бошлабоқ хайз кўришини бошлайдилар («Ҳамишира», 2016. №3. – Б.8).
- *Балогат ёшидаги қизлар (эвф).* Фоликуляр киста аёлларга қараганда балогат ёшидаги қизларда кузатилиб, гормонлар ажралишининг бузилиши оқибатида юз беради. Вақтида аниқланса, дори воситалари ёрдамида даволаш мумкин («Сўғдиёна», 2016. №23. – Б.32).
- *Биллур (эвф).* Қизларнинг ўсмирлик даврини гинекологлар биллурга таққослашади («Ташхис», 2018. №21. – Б.31).

- Етилмоқ (эвф). *Маълумки, 16 – 17 ёшгача қизлар тўлишиб, бўйлари ўсиб қолади, аммо бу ҳали уларнинг она бўлиш учун етилганликларини билдирмайди («Ҳамшира», 2018. №3. – Б.11).*
- Етилиш палласи (эвф). *9 ёшдан 18 ёшгача қиз бола жинсий жиҳатдан балоғатга етади. Бу пайт етилиш палласи бўлиб, жинсий аъзолар ривожланади, қиз бола насл қолдиришига тайёр бўла бошлайди («Шифо-инфо», 2017. №41. – Б.5).*
- Жиддий сакраш (эвф). *Организмдаги бундай жиддий сакраш ўсмир вужудига ўз таъсирини ўтказмай қўймайди («Ҳамшира», 2019. №7. – Б.18).*
- Жинсий етилганлик даври (эвф). *Қизларда жинсий етилганлик даври ҳайз кунлари билан белгиланади («Ҳамшира», 2016. №3. – Б.9).*
- Нозик палла (эвф). *Балоғат даври – нозик палла («Ҳамшира», 2018. №31. – Б.9).*
- Организм фаолиятининг заифлашуви (эвф). *Аслида, организм фаолиятининг заифлашуви жуда эрта, аниқроғи, инсон жинсий балоғатга етгач, бошланар экан («Шифо-инфо», 2016. №42. – Б.12).*
- Ораликдаги муддат (эвф). *Шуни унутмаслик керакки, ўсмирлик даврида одам катта ҳам, кичик ҳам ҳисобланмайди. У ораликдаги муддат («Ташхис», 2018. №1. – Б.32).*
- Расида бўлиш даврида одимлаётган фарзанд (эвф). *Она расида бўлиш даврида одимлаётган фарзандининг айнан ўзига тегишли жинс вакиллари муҳотида ўсишига аҳамият бериши лозим (www.muslima.uz).*

Тиббиётга оид атамаларнинг эвфемистик, перифрастик, метафорик кўринишларини тавсифлаш ўзбек тили имкониятларининг кенглигини, бойлигини, вариантдорлигини, туркийзабон халқимизнинг тил маданияти юқорилигини тараннум этиш билан характерланади ҳамда таянч тиббий бирликларга ёндош номлар сифатида нутқда қўлланилади.

Француз ёзувчиси Антуан де Сент Экзюпери ёзганидек: «Мулоқот бу шундай неъматки, у орқали инсон лаззатланади [Экзюпери, 1963: 37]». Ширин суҳбат, ёқимли мулоқот ёки гўзал нутқнинг яратилишини бевосита тилнинг ранг-баранг имкониятлари таъминлайди. Бу имкониятлар, айниқса, шифокор ва бемор ўртасида юзага келиши мумкин бўлган ноқулай вазиятларнинг (айниқса, ўзбек мулоқотида) олдини олишда қўл келади.

Зеро, соҳа лингвистикасига киришиш жамият тараққиёти билан амалий боғлиқ. Чунки жамият саломатлиги шахснинг руҳий, жисмоний, маънавий соғломлигига боғлиқ. Демак, бу борада яратиладиган платформа аҳолининг турли тоифа ва қатлам вакиллари билан иш кўрадиган тиббиёт соҳаси мутахассис-ходимлари учун ўз фаолияти жараёнида юксак маданий нутқ кўникмаларига эга бўлишлари ҳамда тил захирасидаги ҳар бир сўздан эҳтиёткорона фойдаланишлари улар касбий маҳоратининг зарурий шarti бўлган лисоний воситаларга масъулиятли ёндашишини талаб қилади.

Ўзбек атамашунослиги захирасини бойитиш мақсадида биз тиббий бирликларнинг электрон платформасини яратмоқдамиз. Ушбу платформада терминларнинг атамалар орқали ёритилиши, аниқ ва ихчам терминлар ўрнига сермазмун изоҳларнинг берилиши, айтилиши ноўрин бўлган тиббий терминларнинг ноёб тиббий атамалар билан тўлдирилиши, уларни яратишда она тили имкониятларидан кенг фойдаланиши асос қилиб олинган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорида таъкидланган “соғлиқни сақлаш тизими... аҳолининг тиббий ёрдам сифатига доир истак ва талабларига жавоб бераётганлиги” тиббиётга оид атамалар электрон платформасини яратиш соҳавий терминлар – “Тиббий эвфемизмлар луғати”, “Тиббий перифразалар”, “Тиббий лексика метафоралари” луғати, электрон луғатлар, электрон дарсликлар, уларнинг

мобил иловаларини яратиш заруратини юзага келтирмоқдаки, бу яратилажак ўзбек тили миллий корпуси учун ҳам ғоят муҳим ва аҳамиятлидир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Abuzalova M., G'aybullayeva N. (2021) Peculiarities of the integration of linguistics and medicine. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*. Volume 27, Issue 1, Pages 828-832. https://cibg.org.au/article_7795.html.

2. Антуан де Сент-Экзюпери. *Планета людей* (Нора Галь таржимаси). 1963. – Б. 37.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.

4. Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати. Икки жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2003. – 568 б.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – 671 б.

ҲУҚУҚИЙ ТИЛ: УСЛУБ ВА ҲУҚУҚШУНОСЛИК НУТҚИНИНГ ЎЗARO УЙҒУНЛИГИ

Фирюза Мухитдинова

ТДЮУ профессори,

юримдик фанлар доктори

Бугунги кунда республикаимизда асосий ҳуқуқий таълим муассасаси бўлишга интилиш бу борада кўплаб қадамлар кўйилган бўлиб, улардан биринчиси Тошкент давлат юримдик университетининг электрон университет сифатидаги янги фаолияти йўлга кўйилганидир. Шунингдек, Самарқанд, Наманган ва Термиз давлат университетларида юримдик факультетлар,

ТДЮУда эса халқаро ҳуқуқ ва қиёсий ҳуқуқшунослик билан бирга, давлат бошқаруви факультетларининг ташкил этилгани фикримизга яққол далил бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 апрелдаги «Давлат ҳуқуқий сиёсатини амалга оширишда адлия органлари ва муассасалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармонининг қабул қилиниши ушбу соҳани ривожлантиришда муҳим даврни бошлаб берди. Юқорида зикр этилган фармонга асосан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори ҳам қабул қилинган. Қарор юридик кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни ташкил этиш, юриспруденция соҳасидаги фундаментал ва янги тадқиқотларни амалга оширишни таъминлашга қаратилган асосий қадам бўлди.

Бугунги кунда таълим тизими нафақат халқаро рақобатда, балки миллий рақобатбардошлиги, аввало, уни давр талабига қанчалик мос келиши билан белгиланади. Шу боис ҳам, юридик таълим жараёнини электронлаштириш ва унга ушбу технологияларнинг жорий этилгани ҳам талабаларга, ҳам профессор-ўқитувчиларга бирдек қулайлик яратмоқда. Университетда тўлиқ электрон ҳужжат алмашинуви йўлга қўйилгани айни ҳақиқатдир.

Унинг амалий ифодаси сифатида 2021/2022 ўқув йилида амалга оширилаётган қабул жараёнидаги янгиликлар, имконият ва имтиёзлар барчани қувонтирмоқда. Жумладан, жорий йилда юридик лицейнинг 19 битирувчиси суҳбат асосида ТДЮУ талабаси бўлгани, шунингдек, юридик техникумнинг 4 нафар битирувчиси ТДЮУнинг 2-курс талабаси бўлгани, ҳарбийларнинг фарзандларига, эҳтиёжманд оилаларнинг қизларига берилган

тавсияномалар асосида ТДЮУга ўқишга кирган ёшлар билан бирга бугунги кунда сиртки факультетга сиртки таълимга 300 нафар талаба қабул қилингани таҳсинга сазовордир. Ана шундай янги талабалари билан ТДЮУда янги ўқув жараёни йўлга қўйилди. Бугунги кунда юридик университетда ўқув жараёни дунёнинг қўпгина мамлакатларида амалда бўлган ва ўзининг қулайлиги ҳамда самарадорлиги билан тан олинган ўқитишнинг модул тизимига асосланиб амалга оширилмоқда.

Мазкур тизимда ўқув жараёнининг асосий мазмуни, талабаларда мустақил таълим олиш қобилиятини ривожлантириш, уларнинг ўз соҳаси йўналишларига қизиқишларидан келиб чиқиб, ўқув фанларини танлаш имкониятини бериш ва мустақил таълим олишини таъминлаш учун тўлақонли ўқув адабиётларини яратишни назарда тутди.

Хусусан, юридик таълимни такомиллаштириш юзасидан ўтказилаётган ислохотларга назар ташлайдиган бўлсак, юридик кадрлар тайёрлаш бўйича халқаро стандартлар асосидаги миллий тизимни шакллантиришга асос солинаётганлигига гувоҳ бўламиз.

Президентимизнинг 2017 йил 28 апрелдаги “Тошкент давлат юридик университетида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори олийгоҳ фаолиятини тубдан такомиллаштиришда муҳим ҳужжат бўлиб хизмат қилмоқда. Мазкур қарорга биноан, Тошкент давлат юридик университети модул-кредит тизими асосида фаолият юритадиган бўлди. Шунингдек, университет таълим бўйича қарорлар қабул қилиш имкониятини олди.

Юрист кадрларни тайёрлашда ихтисослашувни кучайтириш учун юриспруденция соҳаси бўйича ўзлаштирилиши шарт бўлган фанлар ва қўшимча фанлар доирасининг аниқ белгилаб қўйилиши муҳим аҳамият касб этади. Бинобарин, хориж тажрибасидан келиб чиқиб, миллий ҳуқуқшунос кадрлар учун “Legal Writing” (ҳуқуқий ёзув услуги) ҳамда Rechtsphilosophie

(хуқук фалсафаси) фанларини фундаментал фанлар доирасида ўрганишни белгилаб қўйиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Хуқуқшуноснинг нутқи равон бўлиши мумкин, аммо хуқуқий услубда маҳоратли ёза олиш алоҳида қобилият ҳисобланади. Бинобарин, хуқуқ кишилиқ жамиятининг объектив зарурий эҳтиёжи асосида пайдо бўлди. Жамиятда фуқароларнинг ҳақхуқуқларини белгиловчи, тартиб-интизомни таъминловчи хуқуқий нормаларга эҳтиёж сезилган. Шунга кўра кишилиқ жамияти пайдо бўлибдики, шу жамиятнинг тартиб-қоидаларини ўзида акс эттирувчи қонунлар ҳам мавжуд. Чунончи, Бобилнинг милоддан аввалги 1792- 1750 йиллардаги ҳукмдори Хаммурапининг адолатли қонунлар ва кейинчалик мажмуи, ундан ҳам қадимроқ милоддан аввалги 2111-2094 йиллардаги Урнамуниг қонунлари, илк ёзма манба “Авесто”, турк ҳоқонларининг “Қонунномаси”, Рим қонунлари, Чингизхоннинг “Ясоқлари”, Амир Темурнинг «Темур тузуклари»ни ва бошқа кўплаб манбаларни келтириш мумкинки, улар ўз даврида мамлакатни идора қилишда, ҳарбий юришлар ўтказишда жуда муҳим аҳамият касб этган. Даврлар, замонлар ўзгариши билан жамиятнинг талаб ва эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда бу қонунлар ҳам такомиллашиб, ривожланиб борган. Ҳақиқатан ҳам, хуқуқ ва тилнинг ижтимоий ҳаётдаги вазифалари ҳақида гап кетганда, уларнинг инсонларнинг хатти-ҳаракатини бошқаришдек, айнан, бир хил вазифани бажаришини алоҳида таъкидлаш лозим. Шу боис ҳам, кишилиқ жамияти ўз одат нормаларига таянган бўлса, илк уруғ, қабила жамоаларида оқсоқоллар қарори муҳим аҳамият касб этиши билан бирга илк давлатчиликдан оқ халқни жамият ва давлат билан муносабатида хуқуқий нормаларнинг ўрни ҳамisha хуқуқшуносларни қизиқтирган масалалардан биридир. Бу борада хуқуқшунос олим В.М.Савицкийнинг “Процессуал қонунлар тили” номли рисоласида хуқуқ ва тил масалаларига эътибор бериш жоиздир: “Қонунда ифода этилган хуқуқий нормалар тил воситасида фуқаролар онгига

етказилади. У тил орқалигина ўз олдига қўйилган мақсад ва вазифаларни бажаришга киришади. Ҳуқуқий нормалар тилсиз яшай олмайди, табиийки, буни ҳеч иккиланмасдан айтиш мумкин”. Демак, ҳуқуқшуносликда ва ҳуқуқни муҳофаза қилишда қўлланиладиган ҳуқуқ тили бу мутахассислик тили яъни адабий тилнинг бир тури. Унинг ўзига хослиги атамалардан фойдаланиш ва юридик фаннинг концептуал талабидан келиб чиқади. Шунинг учун қонуности ҳужжатлари матнлари адабий тилнинг грамматик меъёрларига мос келиши керак. Қонун тилининг фойдаланиш масаласи хусусида гапирадиган бўлсак, унда қонунчилик ҳужжатлари тили ўз хусусиятларига эга: ихчам, лингвистик воситалардан тўғри фойдаланиш; матннинг мантиқий изчиллиги; ҳуқуқий терминологиядан кенг фойдаланиш, махсус сўз бирикмасининг мавжудлиги ҳамда содда, қисқа, тушунарли тилда баён этилганлиги..... Қонун яратиш жараёнида бу талаблардан чиқиб кетиш унинг мазмунининг бузилишига ва жамоатчиликка етказишда муаммоларга олиб келади. Ҳуқуқнинг ривожидида тилнинг вазифаларига бағишлаб ёзилган юридик адабиётларда шундай: “Тил ҳуқуққа нисбатан ўзаро алоқада бўлган икки муҳим вазифаларни бажаради. Биринчиси, тил – ҳуқуқшуноснинг тафаккур юритиш қуроли; иккинчиси, ҳуқуқшуноснинг амрини ижтимоий муносабат қатнашчиларига етказиш” таъриф ҳам берилган. Демак, тил ҳуқуқнинг ривожланишида ўзининг алоҳида асосий вазифаларига эга бўлади: биринчидан, ҳуқуқий билимларни авлодлардан-авлодларга етказиш вазифаси, иккинчидан, ҳуқуқшунослар ўртасида ўзаро фикр алмашиш воситасини таъминлаш, учинчидан, ҳуқуқий тафаккур юритиш воситаси сифатида қўлланилиши, тўртинчидан, қонун чиқарувчининг иродасини фойдалаш ҳамда ҳуқуқий нормаларни фуқароларга етказиш воситасини кўрсатса бўлади. Шулардан келиб чиқиб, бугунги кунда ҳуқуқшунос ишининг энг асосий қисми ҳуқуқий ёзишмалар орқали амалга оширилишида тилнинг айниқса, юридик тилнинг аҳамияти катта деган хулоса қилиш

мумкин. Шу сабабли ҳам, талабаларда қисқа, лўнда, равон, мантиқий изчилликда расмий ёзиш услубини шакллантириш лозим. Бунда ўз навбатида “Legal Writing” (ҳуқуқий ёзув услуби) каби фанларнинг ўргатилиши талабаларда ушбу кўникмаларни ҳосил қилишларида муҳим омил ҳисобланади. ГФР амалиёт ўташ тартиби тизимлаштирилган, яъни талабалар дастлаб назарий билимларини эгаллаб, уларни бир муддат амалиётда мустаҳкамлайди. Бунинг яна бир афзаллик жиҳати шунда кўринадикки, талабалар амалиёт ўташи зарур бўлган 4 муассасанинг ҳар бирида амалиёт ўтайди ва мазкур муассасаларнинг фаолияти билан яқиндан танишади. Шунингдек, улар амалиёт ўташ давомида қайси муассасада ишлашга лаёқатли эканликларини аниқлаб боради. Ижроия ҳокимият идоралари тизимида қатъий ижро интизомига риоя этиш асосида конституция ва қонунларнинг ижросини таъминлаш, ҳуқуқни қўллаш маданияти қарор топади. Бу ҳуқуқий маданиятнинг алоҳида тури сифатида эътироф этилиши лозим. Чунки ҳуқуқни татбиқ этиш, қўллаш жараёни ҳуқуқий амалиётнинг ўта жўшқин жабҳаси бўлиб, унга муайян касбий ҳуқуқий маданият “ҳамроҳлик” қилади. Давлат бошқарув органларига етук кадрларга бўлган эҳтиёжни таъминлаш борасидаги энг сўнгги янгилик – ТДЮУда илк бора “Давлат бошқаруви” йўналишига 50 нафар талаба қабул қилинганидир. Бу талабаларга ҳуқуқий фанлар билан бирга алоҳида сиёсатшунослик, сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар тарихи каби фанларга эътибор қаратилади. Хулоса шуки, Тошкент давлат юридик университети «юриспруденция» мутахассислиги бўйича юридик кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш бўйича базавий олий таълим ва илмий-методик муассаса этиб белгиланган экан, университет профессор-ўқитувчиларининг илмий салоҳияти, албатта, янги Ўзбекистонда ўзбек юридик фани ва таълими жаҳоннинг илғор юридик таълими билан чуқур интеграциялашган ҳолда, мамлакатимизнинг барча соҳаларини ҳуқуқий жиҳатдан таъминлашга ўз ҳиссасини қўшади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5058351>
2. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 12 декабрдаги “Давлат тилини ривожлантириш департаменти тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” ги 984-сон қарори
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон Фармони <https://lex.uz/docs/4561730>
4. Савицкий В.М. Язык процессуального закона (вопросы терминологии). -М., 1977.

TURKIY TILLAR OILASIDA O'ZBEK TILINING O'RNINI

Saidov Y.S.

Buxoro davlat universiteti professori,

filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada turkiy tillarga xos eng muhim fonetik, morfologik va leksik xususiyatlar ochib berilgan, umumturkiy soʻzlar mavzuiy guruhlar boʻyicha tasniflangan hamda turkiy tillar oilasida oʻzbek tilining tutgan oʻrni qisman baholangan.

Tayanch tushunchalar: turkiy tillar oilasi, oltoy tili, oltoy nazariyasi, umumturkiy soʻzlar, turkiy tillarning fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari.

Turkiy, chunonchi, oʻzbek tili eng qadimgi tillardan biri boʻlib, uning tarixi oltoy davridan boshlanadi[1,3]. Oltoy nazariyasiga rus sharqshunos olimi V.Radlov asos solgan boʻlib, uning nazariyasiga koʻra oltoy tillarida soʻz boshida

va oxirida kelgan undoshlar faqat jarangsiz bo‘ladi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, turkiy tillarning tarixi oltoy tillari bir til bo‘lib tashkil topgan qadimgi oltoy davridan boshlanadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning e‘tirof etishicha, O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Oltoy, Janubiy Sibir, Uraloldi hududlari aholisi bronza davrining 3-2-ming yilligidan boshlab turkiy tilda so‘zlashgan. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar hozirgi turkiy tillarning har birida u yoki bu miqdorda saqlanib qolgan. G‘.Abdurahmonovning ta’kidlashicha, turkiy xalqlarning ildizlari miloddan oldin Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan mahalliy tub qabila va urug‘lar – qarluqlar, o‘g‘uzlar, qipchoqlarga borib taqaladi. Har bir turkiy xalq va uning tilining shakllanishida bu urug‘larning biri asos bo‘lgan [2,7].

Hozirgi shakllangan o‘zbek xalqi va uning tili uzoq o‘tmishda ro‘y bergan murakkab jarayonlarning hosilasidir. O‘zbek xalqi etnik jihatdan juda ham murakkab turkiy xalqlardan biridir. Uning shakllanishida to‘qson ikki turkiy va turkiy bo‘lmagan urug‘larning ishtirok etgani tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarda ko‘rsatib o‘tilgan [3,121]. Turkiy tillarning genetik va lisoniy xususiyatlar jihatidan o‘zaro munosabati masalasiga qiziqish juda qadimdan davom etib keladi. Bu o‘rinda turkiy tillarni birinchi marta tasnif qilgan olim Mahmud Koshg‘ariy ishlarini qayd etish o‘rinlidir. Turkiy tillar tasnifi bilan qiziqish, ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asrda avj oldi va hozirgacha ko‘plab tasniflar vujudga keldi.

Turkiy tillar o‘zaro fonetik, leksik, grammatik jihatdan juda yaqin tillardir. Ular til xususiyatlariga ko‘ra ko‘p jihatdan o‘zaro o‘xshash, biroq ayrim farqlar ham mavjud. O‘zbek tilining asosiy fonetik belgilariga e‘tibor qaratisa, uning ayrim shevalarida boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi 8-9 unli mavjud. Izoh sifatida aytish mumkinki, o‘zbek adabiy tilida esa 6 unli qabul etilgan. O‘zbek tilining ayrim shevalariga, boshqa bir qancha turkiy tillarga xos bo‘lgan lab va tanglay ohangdoshligi (singarmonizm) hodisasi o‘zbek adabiy tilida yo‘q, urg‘u, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi.

Turk tilining fonetik o'ziga xosliklari esa shundan iboratki, so'z boshidagi *t-d, k-g* tovushlari jarangsiz va jarangli tarzida farqlanadi; bu tilda singarmonizm hodisasi mavjud; boshqa turkiy tillardagi «bo'l» fe'li mazkur tilda «o'l» tarzida qo'llaniladi. Turkiy tillar oilasi uchun xos bo'lgan fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Turkiy tillarda, chunonchi, o'zbek tilida ko'p bo'g'inli so'zlarning miqdori juda oz. Bir bo'g'inli (*o'q, ot, oy* kabi) va ikki bo'g'inli (*bo'ri, yetti, tulki* kabi) so'zlarning miqdori esa ko'p.

2. O'zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so'zlar, asosan, uch tovushli bo'ladi: *kun, til, bel, kel* kabi.

3. Barcha turkiy tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilidagi so'zlarning aksariyati ko'p ma'noli xususiyatga ega. Bunga misol tarzida *bosh, tish, uch* kabi umumturkiy so'zlarni aytish mumkin.

4. Turkiy tillarda, chunonchi, o'zbek tilida affikslar so'z oxiriga qo'shiladi: *ezgulik* (*ezgu+lik*), *ko'zsiz* (*ko'z+siz*) kabi.

5. Turkiy (o'zbekcha) so'zlarning oxirgi bo'g'inida (*pastki, ostki, ustki* kabi ayrim ko'makchilarni hisobga olmaganda) undoshlar yondosh kelmaydi.

6. Turkiy tillarda, chunonchi, o'zbek tilida so'z boshida undoshlar ketma-ket kela olmaydi.

7. O'zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so'zning o'zagi deyarli o'zgarmaydi: *tilni, tilga, tildan, tilsiz, tilli, tillik* kabi.

8. Turkiy tillarda, chunonchi, o'zbek tilida grammatik jins kategoriyasi yo'q, prefiks va old qo'shimchalar mavjud emas.

9. O'zbek tili va boshqa turkiy tillar sintaksisi sohasida gap bo'laklari o'zining muntazam joylashish tartibiga ega (aniqlovchi aniqlanmishdan, ega kesimdan oldin joylashadi).

10. Turkiy tillarda, chunonchi, o'zbek tilida bog'lovchilar deyarli yo'q (ularning aksariyati arab va fors tillaridan o'zlashgan).

11. Turkiy tillarning lugʻat tarkibi bir-biriga juda yaqin va uning manbasini tub turkiy soʻzlar tashkil etadi.

Oʻzbek adabiy tili oʻziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkiy tillardan quyidagilarga koʻra farq qiladi:

1. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyati amal qilmaydi, aksariyat turkiy tillar, chunonchi, turk, qozoq, qirgʻiz tillarida esa bu qonuniyat amal qiladi.

2. Oʻzbek adabiy tilida unlilar miqdori oltita (*a, ə, o, oʻ, u, i*) qilib belgilangan boʻlsa, qirgʻiz va uygʻur adabiy tilida esa sakkizta unli (*a, ə, o, ø, u, y, i, ɯ; a, e, o, ø, e, u, y, i*) qabul qilingan.

3. Oʻzbek va turkman tillarida soʻz boshida keladigan *y* tovushi qipchoq guruhidagi turkiy tillarda *dj* va *j* tovushi bilan ifodalanadi: *yoʻl – joʻl, yigit – jigit, yoʻq – joʻq* kabi.

4. Oʻzbek adabiy tilida *ch, sh* undosh tovushli ayrim soʻzlar qoraqalpoq va qozoq tillarida *sh, s* undoshlari bilan ifodalanadi: *kuch – kush, tish – tis* kabi.

5. Oʻzbek tilida *k, t* tovushlari bilan boshlanadigan soʻzlar oʻgʻuz guruhidagi turkiy tillar, chunonchi, turk, ozarbayjon, turkman tillarida *g, d* tovushlari bilan beriladi: *koʻz – goʻz, til – dil* kabi.

6. Oʻzbek adabiy tilida *gʻ* undosh tovushi bilan tugagan soʻzlar tatar, boshqird, qirgʻiz, qozoq, qoraqalpoq tillarida *v* va *u* undoshlari bilan ifodalanadi: *togʻ – tav – tau, bogʻ – bav – bau* kabi.

Ayonki, tub turkiy soʻzlar turkiy tillarning oʻz materiali, oʻz ona mulkidir. Bu soʻzlar turkiy tillar oilasiga mansub boʻlgan barcha tillarda uchraydi. Bu hol turkiy tillar leksikasida bu tillar uchun qadimdan mushtarak boʻlgan umumiy leksik fondni yuzaga keltirgan. Turkiy tillar lugʻat tarkibidagi mana shu mushtarak leksika turkologiyada umumturkiy soʻzlar deb yuritilmoqda [4,83-97]. Ularni quyidagi mavzuiy guruhlar boʻyicha tasniflash mumkin:

1. Inson va hayvon tanasi a'zolarining nomi: *bosh, og'iz, burun, ko'z, tish, qosh, til, bel* va boshqalar. Ushbu so'zlar ayrim fonetik farqlar bilan turkiy tillarning aksariyatida qo'llaniladi. Mazkur so'zlar qadimgi turkiy tilda faol iste'molda bo'lgan. 1969-yilda nashr etilgan "Drevnetyurkskiy slovar" (qisq. DTS)da mazkur so'zlar *bosh* (DTS,86), *og'iz* (DTS,21), *burun* (DTS,126), *ko'z* (DTS,320), *tish* (DTS,563), *qosh* (DTS,431), *til* (DTS,559), *bel* (DTS,93) kabi tarzda keltirilgan.

2. Qon-qarindoshlik va yaqinlik tushunchasini anglatuvchi so'zlar: *ota, er, bola, dada, o'g'il, tog'a, qiz, opa, singil* va h.k. Qadimgi turkiy tilda ushbu so'zlar *ata* (DTS,65), *er* (DTS,175), *bala* (DTS,80), *dada* (DTS,160), *ini* (DTS,210), *o'g'ul* (DTS,364), *tag'a* (DTS,526), *qiz* (DTS,449), *sihil* (DTS,500) tarzida ifodalangan. "Devonu lug'otit turk" (qisq. DLT) asarida *apa* so'zining "ona; opa, egachi" ma'nolari bilan bir qatorda "katta, ulug'" ma'nosi ham bo'lganligi aytiladi (qar.: DLT,I,409). *Tog'a* so'zi Mahmud Koshg'ariy devonida *tag'ay* shaklida berilgan. Lekin uning ma'nosini muallif *amaki* deb izohlagan (DLT,III,256). Navoiy esa "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turklar "onaning og'a va inisin" *tag'oyi* deb atashlarini ta'kidlaydi [5, 185].

3. Kishi yoshini ifodalovchi so'zlar: *yigit/jigit, qari//qariya, yosh, bola, go'dak, chol, erkak, chaqaloq, qizcha* va h.k. Qadimgi turkiy tilda iste'molda bo'lgan *yigit* (DTS,260), *qari* (DTS,426), *erkak* (DTS,175), *bala* (DTS,80) kabilar hozirgi turkiy tillarning aksariyatida qo'llaniladi.

4. Vaqt, zamon tushunchasini ifodalovchi so'zlar: *tun, kech* (kech, uzoq), *oy* (oy, bir oy), *bultur, kun//gun, ilk* (ilk, dastlabki), *tong, kecha, kechagi, bukun*, (bugun), *erta, indin, chog'//choq* (payt, vaqt), *burun, ilgari, mangu, o'tmish, yil* va boshq. Qadimgi turkiy tilda iste'molda bo'lgan *tun* (DTS,577), *kech* (DTS,290), *kechagi* (DTS,291) kabilar aksariyat turkiy tillarda hozirda faol qo'llaniladi.

5. Hayvon, parranda, hasharot va ular gavda qismlarining nomlari – zoologik terminlar: *ot, qush, tuya (teva), tulki, kiyik, ilon/yilon, echki, sichqon/sichon, tovuq*

va boshq. Mazkur guruh doirasidagi soʻzlarni qadimiy turkiy yozma yodgorliklar tili leksikasi bilan solishtirilganda maʼlum boʻldiki, mazkur guruh soʻzlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda mavjud: *qoplon* (DTS, 421), *qoʻzi* (DTS, 462), *ot* (DTS,65), *baliq* (DTS,80), *echki* (DTS,162) va boshq. Mahmud Koshgʻariy *taquq* (tovuq) soʻzini turkmancha soʻz sifatida qayd etadi (DLT,II,330).

6. Oʻsimlik nomlari – fitonimlar: *chechak, terak, arpa, yaproq, bugʻdoy, somon, qamish, don, tariq* va h.k. Mazkur guruh soʻzlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda uchraydi. Mahmud Koshgʻariy *saman* (somon) soʻzini chigillar (DLT,I,392), *pamuq* (momiq, paxta) soʻzini oʻgʻuzlar (DLT,I,360), *chigit* (chigit, paxta urugʻi) soʻzini argʻular (DLT,I,337) qoʻllaydigan soʻz sifatida qayd etadi (DLT,I,392).

Qadimgi turkiy til va eski oʻzbek adabiy tili uchun xarakterli boʻlgan *ev* (uy), *yogʻi* (dushman, yov), *em* (davo), *qapu* (eshik, darvoza), *qamugʻ* (barcha, hamma), *yavuq* (yaqin) kabi soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tilida isteʼmoldan chiqqan boʻlsa ham, boshqa turkiy tillar, chunonchi, turk tilida qoʻllaniladi. Turkiy tillar lugʻati ayrim soʻzlarga koʻra farqlanadi. Bunga misol sifatida turk tilida hozirda faol qoʻllanuvchi *yumruk* (musht), *kerpich* (gʻisht), *chabuk* (ildam), *kapi* (eshik), *ev* (uy, xona), *bilgin* (olim), *kendu* (oʻz), *gene* (yana, tagʻin) kabi soʻzlarni aytib oʻtish mumkin. Mazkur soʻzlar qadimgi turkiy til va eski oʻzbek adabiy tilida, chunonchi, Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida esa mazkur leksik birliklar eskirgan, isteʼmoldan chiqqan.

Turkiy tillar oilasi tarkibiga kiruvchi oʻzbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeyi va obroʻyi dunyo jamiyatida keyingi yillarda ortib bormoqda. Bu til hozir Amerika, Germaniya, Turkiya, Polsha, Hindiston kabi mamlakatlarning universitetlarida alohida oʻrganilmoqda. U oʻzbek xalqining alohida etnik birlik – elat, xalq, millat sifatida shakllanishida muhim oʻringa ega. Hozirgi davrda oʻzbek

tili xo'jalik hayotining barcha sohalarida to'liq amal qiladigan til sifatida rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 178 б.
2. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. – Т.: 1999. – 98 б.
3. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Т.: 1992. – 167 б..
4. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.: Фан, 1985. – 198 б.
5. Навоий А. Муҳокамат ул луғатайн. Танланган асарлар. 3 жилдли. (Нашрни Ойбек ва П.Шамсиевлар тайёрлаган) – Т.: Фан, 1948. –III жилд. –Б. 185-197.

O'QUV LUG'ATCHILIGIDA SINONIM LUG'ATLARNING O'RNINI

Mirxanova Gulandom Rustamovna

Buxoro davlat universitetining Pedagogika

instituti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinonim so'zlar, o'quv leksikografiyasi rivoji va unda alohida o'rin tutgan sinonim so'zlar o'quv lug'atining rivojlanish davrlari va uning hozirgi o'rganilish bosqichi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: leksikografiya, ma'nodoshlik, sinonim so'zlar, o'quv lug'atchiligi, sinonimik lug'atlar.

Sinonimlar nutq jozibasini, betakrorligini, boyligini ifodalovchi asosiy badiiy tasvir vositalardan bo'lib, tilshunoslikning ilk davrlaridayoq ularning mohiyatini ochish, ma'nosini qayd qilish, ro'yxatlarini tuzishga qiziqish kuchli bo'lgan. Shuni ta'kid bilan aytish mumkinki, tilshunoslik tarixida yaratilgan ilk manbalar lug'atlar bo'lsa, lug'atchilik tarixida mavjud bo'lgan eng qadimiy lug'atlarning aksari sinonimlar izohiga bag'ishlangan glos va glossariylar edi. Manbalarda

sinonimlarni o‘rganish va u bilan bog‘liq lug‘atlarni tuzishning uzoq tarixga egaligi, masalan, milodning boshlarida xitoyliklar shoirlar foydalanishi uchun dunyodagi birinchi sinonimlar lug‘atini tuzganlari haqida ma’lumotlar keltiriladi.

So‘nggi yillarda jahon tilshunosligi, qolaversa, o‘zbek tilshunosligida bajarilgan tadqiqotlar tilshunoslik tarixida yaratilgan ilk lug‘atlarning sof amaliy ehtiyojlar – o‘quv maqsadida yaratilganini isbotladi. Jumladan, so‘z ma’nosidagi nozik farqlarga asoslangan sinonimlar mavzusiga bag‘ishlangan har qanday lug‘atning yaratilish asosida ta’limiy maqsad – notiqlikka o‘rgatish, nutqiy kompetentlikni o‘stirish maqsadi yotgan. Ma’nosi bir xil yoki yaqin bo‘lgan so‘zlarning semantik imkoniyati, qo‘llanish o‘rni, chegarasi, o‘z yoki o‘zlashmaligi va boshqa xususiyatlari ularni maxsus lug‘atlarda jamlash va izohlash ehtiyojini yuzaga keltirgan. XX asr boshlariga kelib o‘quv lug‘atchiligi umumiy leksikografiyadan ajralib chiqadi va o‘quv lug‘atlarining zamonaviy avlodlarini yaratishga alohida e’tibor qaratadi. O‘quv lug‘atchiligi faqat ta’limiy lug‘atlar tuzish emas, balki leksik minimumlar, o‘quv lingvostatistikalar, leksikani o‘quv maqsadida aks ettirgan o‘quv qo‘llanmalar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanadigan amaliy fan hisoblanadi. Umuman, jahon leksikografiyasida bu soha ancha chuqur va atroflicha o‘rganilgan, turli yoshdagi ta’lim oluvchilar uchun son-sanoqsiz lug‘atlar yaratilgan. Xususan, G.F.Bogacheva, P.N.Denisov, O.M.Karpova, V.V.Morkovkin, L.A.Novikov, I.A.Sternin, I.V.Fedorova, L.V.Sherba, V.T.S.Atkins, P.Hanks, F.J.Hausmann, A.Kemermann, M.Rundell, J.Sinklar, P.Stok kabilarning ingliz, rus, nemis, ispan va boshqa tillarda olib borgan tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida o‘quv leksikografiyasining nazariy va amaliy masalalari monografik planda ilk marta B.Baxriddinova tomonidan tadqiq etildi. Olima “O‘zbekistonda o‘quv lug‘atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida “o‘quv lug‘ati” va “o‘quv lug‘atchiligi” tushunchalariga izoh berdi, o‘quv lug‘atining leksikografiyaning ta’limiy zarurat

tufayli, hukumat buyurtmasiga ko'ra yaratiladigan maxsus janri ekanini asosladi, zamonaviy o'quv lug'atlarining mega, makro, mikroqurilishi, o'quv lug'ati uchun so'z tanlash va lug'atda til birliklarini izohlash mezonlarini aniqladi. Jahon o'quv lug'atchiligining tarixiy ildizlarini yoritdi va o'zbek o'quv lug'atchiligining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini ajratdi. O'zbekistonda ushbu soha istiqbolini belgilaydigan asosiy omillarni ko'rsatib berdi. Jumladan, o'quv lug'atiga "so'zligi ma'lum bir mezon asosida tartiblangan, o'quv-uslubiy talabga javob beradigan, ta'lim oluvchining kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, ma'lumotni tezkor va qulay taqdim etishga mo'ljallangan antropotsentrik vosita", o'quv leksikografiyasiga "o'quv lug'atchiligi tarixini o'rganish, o'quv lug'atlari, leksik minimumlar, o'quv lingvostatistikalar, leksikani o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni tuzish va nashrga tayyorlash, o'quv lug'ati tiplari va turlarini aniqlash, ularni muntazam takomilashtirib borish, til o'qitishga mo'ljallangan darsliklarda leksikani taqdim etish va semantizatsiyalash bilan shug'ullanadigan amaliy fan"[Baxriddinova, 2020, 16] tarzida ta'rif berildi.

Turkologiya, xususan, o'zbek tilshunosligida XX asr boshlariga qadar garchi maxsus sinonimlar lug'ati uchramasa-da, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" lug'atida, keyinchalik Jamoliddin at-Turkiyning qipchoq va turkman tillarini o'rganuvchilarga mo'ljallab yozilgan "Kitob-u bulg'ot al-mushtoq fi-l-lug'oti at-rurk va-l-qifchoq" (XIV asr) lug'at-qo'llanmasida, Abu Xayyonning qipchoq tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan "Kitob al-idroq li-lison al-atrok" (XIV asr) lug'at-grammatikasida, Jamoliddin ibn Muqannaning "Xiliat-ul-inson va xalibat-ul-lison" (XIV) amaliy qo'llanmalarida sinonimlar va ularning ma'no nozikliklari xususida dastlabki fikrlar uchraydi. Turkiy, jumladan, o'zbek tilshunosligida sinonimlarning o'rganilishida Alisher Navoiy va uning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining roli muhim. Shuningdek, Mirzo Mahdixonning Alisher Navoiy va chig'atoy turkiysida ijod etgan shoirlar asarlari bo'yicha tuzilgan lug'ati "Sangloh" va unga ilova qilingan grammatik ocherk

“Maboni ul-lug‘at” ham sinonimlar tahliliga alohida to‘xtalingani bilan alohida ajralib turadi. Lug‘atda sinonimlar murodif (مرادف) – ma‘nodosh tarzida keltiriladi. Sobiq sho‘ro davrida lug‘atlarga ehtiyoj tug‘diradigan sohalar taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda lug‘atchilik, xususan, o‘quv lug‘atchiligi ancha taraqqiy etdi. Turli ikki tilli, me‘yoriy, terminologik, entsiklopedik o‘quv lug‘atlari bilan birga milliy til – o‘zbek tilining leksik sath birliklarini o‘rganishga qaratilgan turli izohli lug‘atlar, jumladan, sinonimlar lug‘atlari ham yaratildi.

To‘g‘ri, aksariyat izoh tipli lug‘atlarda so‘z ma‘nosi izohlanganda uning sinonimlari xususida ham to‘xtalingan bo‘lsa-da, o‘zbek leksikografiyasida nafaqat ushbu davr, hatto hozirgi kunga qadar ham maxsus sinonim lug‘atlar sanoqli ekani, albatta, achinarli hol. Ular haqida so‘z borar ekan, istiqlolgacha bo‘lgan davrda yaratilgan sinonim lug‘atlar sifatida S.Ibrohimovning 1939-yilda “Maktab o‘quvchilari uchun” seriyasida nashr etilgan ilk sinonimlar o‘quv lug‘ati – “O‘zbek tilining sinonimlar lug‘ati” hamda A.Hojiyevning 1974-yilda “O‘qituvchi” nashriyotida universitetlarning va pedagogika institutlarining talabalari uchun qo‘llanma sifatida nashr etilgan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”ni keltirish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida sinonimik munosabatlarni to‘liq va atroflicha o‘rganish, sinonimlar sememasi tarkibidagi ifoda semalarini aniqlash, sinonimlarni zamonaviy lingvistik paradigmalarda – kognitiv, psixologik, assotsiativ, lingvodidaktik nazariyalar asosida tadqiq qilish, shu asosda o‘zbek tili sinonimlarining akademik lug‘atini qayta ko‘rib chiqish, umumiy va o‘quv lug‘atlarda sinonimlarning leksiografik talqini muammosini yoritish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баҳриддинова Б.М. Ўзбек ўқув луғатчилигининг назарий ва амалий масалалари. Монография. – Қарши: Фан ва таълим, 2020. – 208 б.

2. Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан... доктори (DSc) дисс. автореф.– Самарқанд. 2020. –Б 16.
3. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1974. – 212.
4. Олимов М. “Бобурнома”да қўлланган синонимлар луғати. Тошкент: Фан, 2004. –110 с.
5. Mirxanova G. O'zbek tilining sinonim so'zlar o'quv lug'ati. B.: Durdon, 2021., –106 b.
6. Ўзбек тилидаги синоним сўзларнинг қисқача изоҳли луғати // <http://www.androidbooks.uz/product/>

LISONIY VOSITALARNING TANLANISHIDA NUTQIY VAZIYATNING O'RNI

Rustamova Shamshoda

**Qarshi davlat universiteti lingvistika
yo'nalishi magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada lisoniy vositalarning tanlanishi jarayonida nutqiy vaziyat qay darajada o'rin egallagani yoritilgan. Bundan tashqari, nutqiy vaziyatning tarkibiy qismlari birma-bir sanab o'tilib, har biriga alohida to'xtalib o'tilgan. Nutqiy vaziyatning ba'zi tarkibiy qismlariga audio shaklida yozib olingan nutq vositasida isbotlangan.

Аннотация: В этой статье обсуждается роль речевой ситуации в выборе языковых средств. Кроме того, по порядку перечисляются компоненты речевой ситуации, каждая из которых обсуждается отдельно. Некоторые составляющие речевой ситуации доказываются с помощью речи, записанной в аудиоформате.

Annotation: This article discusses the role of speech situation in selection of linguistic resources. In addition, the components of the speech situation are listed,

morever each of components is discussed separately. Some components of the speech situation are proved with the help of speech recorded in audio format.

Kalit soʻzlar: lisoniy vosita, nutqiy vaziyat, adresant, adresat, tilning tushunilishi

Nutqiy vaziyat – bu suhbatdoshlarni maʼlumot almashishga undovchi tashqi sharoit va ichki psixologik reaksiyalarning murakkab kombinatsiyasidir. Nutq samarali boʻlishi uchun baʼzi prinsiplarga amal qilish kerak. Nutqiy odob-axloq prinsipi soʻzlovchining qayerda kim bilan qanday munosabatda boʻlishi kerakligini taʼkidlab turadi. Barchaga maʼlumki, inson oʻz nutqini kimgadir murojaat sifatida yoki monolog tarzida shakllantiradi. Soʻzlovchi oʻz nutqini tinglovchiga har tomonlama moslashtirishi lozim. Nutqiy vaziyatning bir necha xususiyat (tarkibiy qism)lari mavjud:

1. Qatnashchilar: adresant, adresat, auditoriya;
2. Nutq predmeti;
3. Vaziyat: joy, vaqt va boshqa muhim shartlar;
4. Nutq kanali – kommunikatsiyani yuzaga chiqarish usuli: ogʻzaki va yozma, shartli belgi va boshqalar;
5. Kod: til, sheva;
6. Nutqiy janr: masalan, ilmiy doklad, suhbat, rasmiy maʼruza va hokazo;
7. Voqealar;
8. Maqsad – qatlashchilar fikriga koʻra, nutqning natijasi boʻlishi mumkin boʻlgan hodisa;
9. Nutq samaradorligi bahosi – nutqning tinglovchilar tomonidan tushunilishi.

Nutqiy vaziyat insonni soʻzlashga, nutq jarayonida qatnashishga, vaziyatni aniqlaydigan belgilar bilan qandaydir darajadagi uygʻunlikda nutqni shakllantirishga undaydigan holat bilan belgilanadi. Bu murakkab jarayonni quyidagicha qoliplashtirish mumkin: ***kim – kimga – nima haqida – qayerda – qachon – nima sababdan – nima maqsadda***. Mana shu soʻroqlarga javob bergan

nutq parchasi samarali hisoblanadi. Bu yerda mavzuni aniqlashtiruvchi savolgina to'g'ridan to'g'ri nutqqa tegishli bo'lsa, qolgan savollarning barchasi nutqiy vaziyat (nutqqa ta'sir qiluvchi ekstralingvistik omillar)ga tegishlidir.

O.F.Korobkovaning "Ixtisoslashgan (nutqiy kamchiliklarni bartaraf etadigan) maktab og'zaki nutq darslarida nutq vaziyati o'rganish predmeti va dars o'tish usuli sifatida" nomli maqolasida nutq qatlashchilariga urg'u berilgan. Muallifning fikriga ko'ra, qatnashchilarning o'zaro munosabati nutqiy vaziyatni belgilaydi. Adrest va adresantlar quyidagicha munosabatda bo'lishi mumkin:

1. Adresat(x)ning roli adresant(y)dan ustun bo'lganda: $R_x > R_y$;
2. Adresat(x)ning roli adresant(y)dan past bo'lganda: $R_x < R_y$;
3. Har ikkala qatnashchi roli o'zaro teng bo'lganda: $R_x = R_y$. [1]

Ijtimoiy holatdagi birinchi munosabat adresat – boshliq (ijtimoiy jihatdan ustun), adresant esa xodim (ijtimoiy jihatdan kichik) bo'lgan vaziyatga to'g'ri keladi. Ya'ni nutqning ikkinchi qatnashchisi birinchi qatnashchiga bog'liq. Ikkinchi vaziyatda esa mazkur holarning teskarisini ko'rishimiz mumkin. Xodim so'zlovchi bo'lib, boshliq tinglovchi bo'lishi ikkinchi munosabatni belgilaydi. Uchinchi munosabatda esa teng "huquqli" adresat va adresant muomalasi akslantirilgan. Shu narsa aniqki, assimetrik munosabatda nutqiy hamda muomala madaniyatiga ko'proq amal qilinadi. Har ikki qatnashchi etiket doirasida nutqini shakllantiradi. Asosan adabiy tilda so'zlashishga, rasmiy munosabatni saqlashga urinish kuzatiladi.

Har bir odam o'ziga xos nutq ko'nikmasiga ega bo'lsa-da, boshqalar bilan muomala qilayotganda ma'lum bir ijtimoiy qoidalarga amal qiladi. Bu esa uning jamiyatdagi o'rnidan kelib chiqib belgilanadi. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, inson psixologiyasidan kelib chiqqan holda ham o'z ijtimoiy holatiga past yoki yuqori baho berishi mumkin. Bunday holatlarda nutqqa ta'sir etuvchi asosiy omil psixologiya bo'lsa, ijtimoiy holat ikkinchi o'ringa o'tadi. Quyida

o‘quvchining o‘zidan katta bo‘lgan insonga murojaat tarzida bergan javobi keltirilgan:

- *Texnika vositalaridan voz kecha olamizmi?*

- *Voz kechib bo‘medi deb o‘yleman. Texnika kerak-da. Masalan, cho‘lga o‘ttiribsiz? Moshin kere sizga? Qanne uyizga yetib borasiz. Yo‘ldi yarmiga bormedi, joyiz jannatda bo‘ladi keyin. Kere-da, voz kechisham kere-da, ellik foizda. (Qarshi shahar 26-maktab o‘quvchisi H.M.dan yozib olingan nutq)*

Maqsad vaziyatni tashkil etuvchi komponentlarning aksariyatidan kelib chiqib belgilanadi. Agar so‘zlovchi (masalan, ma‘ruzachi o‘qituvchi) tinglovchiga qandaydir ma‘lumotni yetkazmoqchi bo‘lsa, bunda auditoriyaning qiziqishi va mavzuni hisobga olib nutqini shakllantirishi lozim. Adabiyot (predmet) haqida ma‘lumotga ega bo‘lish maqsadida kelgan o‘quvchilar talabini oddiy suhbat bilan qondirib bo‘lmaydi. Aksincha, oddiy suhbatga muhtoj insonga ilmiy dokladning ham qizig‘i yo‘q. Demak, tanlanayotgan nutq janri auditoriya talabidan kelib chiqib belgilanadi. So‘zlovchi esa o‘z maqsadini boshqa aspektlardan kelib chiqib belgilashi lozim.

Har doim ham qandaydir ma‘lumotni tinglovchiga yetkazish kommunikatsiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad bo‘lavermaydi. Ba‘zi hollarda adresatning emotsional holatini tinglovchiga yetkazish asosiy planga chiqadi. A.A.Kotov o‘zining “Распознавание эмоционального состояния адресата в диалоге” (“Dialogda adresatning emotsional holatini aniqlash”) maqolasida [2] bir qancha misollar orqali so‘zlovchilar yetkazmoqchi bo‘lgan emotsional holatlarni tahlil qiladi. Uning fikricha, so‘zlovchi nutqidan uchta emotsional maqsadni ko‘zlaydi. Bular: so‘zlovchi o‘z nutqi orqali auditoriya e‘tiborini tortish orqali ruhlanishi (maqsad-men), adresant o‘z nutqi orqali adresatga hissiy ta‘sir ko‘rsatishi (maqsad-sen) va dialog qonun-qoidasidan kelib chiqib so‘zlashuvni davom ettirish.

Yana bir nutq komponenti bu tinglovchining nutqni tushunishidir. Nutq samarali bo'lishi uchun har ikki kommunikatsiya ishtirokchisi tanlangan mavzu doirasida dunyoqarashga ega bo'lmog'i lozim. A.D.Koshelyov "О языковом понимании, возникающем в акте коммуникации" ("Kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladigan tilning tushunilishi haqida") maqolasida [3] tilning tushunilishi va qabul qilinishi haqida fikr yuritadi. Muallif misol sifatida shahar ko'chalari haqida hech qanday taassurotga ega bo'lmagan insonning kimdandir yo'lni so'rashini keltiradi. Darhaqiqat, biz ko'chalar joylashuvi haqida bilimga ega bo'lmasak, bizga berilgan ma'lumotlardan faqatgina "bir qancha burilish, to'g'ri ko'cha" birliklarini eslab qolishimiz mumkin. Chunki qabul qilgan ma'lumot ko'z oldimizda gavdalanmaydi. Ammo aksincha, shahar ko'chalarini bilsak, tushuntirilgan joyni osonlik bilan topib boramiz. Yuqorida berilgan vaziyatlarning birinchisi tilni tushunish bo'lsa, ikkinchisi uni qabul qilishdir. Aynan mana shu omillar nutqning samaradorligini belgilab beradi.

Garchi adresat to'g'ridan to'g'ri bu haqida aytmasa ham, adresant o'z nutqiga bo'lgan munosabatni eshituvchi odam tana, qo'l harakatlari, mimika kabi noverbal vositalar orqali anglatishi mumkin. Gapirayotgan odam tinglovchining e'tiborsizligini darrov payqaydi va so'zlashga ishtiyoqini yo'qotadi. Bu esa xayolining chalg'ishiga va so'zdan adashishga olib keladi. Yuqorida keltirib o'tilgan nutq vaziyatining barcha komponentlari bir-birini taqozo qiladi va bir-birini to'ldiradi. Shunday ekan, nutq irod qilayotgan odam ularning barchasini hisobga olgan holda ish olib borishi lozim, aks holda maqsad natijasiz yoki salbiy natija bilan yakun topadi.

Vaziyat, ya'ni joy va vaqtning to'g'ri tanlanishi ham so'zlashdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki dars yakunlanganini bildiruvchi qo'ng'iroqdan so'ng eng aqlli bolani ham o'zingizni tinglashga majbur qila olmaysiz. Kommunikatsiya kodi auditoriyaga qarab belgilanadi. Ilmiy, rasmiy

ma'lumotlar yetkazilishi ko'zda tutilgan holatlarda, albatta, adabiy tilda suhbat olib boriladi. Bunda uslubni ham yoddan chiqarmaslik kerak.

Nutqiy vaziyat shaxsga bog'liq xususiyatlardan tashqari atrof-muhitni ham o'z ichiga oladi. Chunki oldindan o'ylab, yod olinmagan nutq doim improvizatsiyaga boy bo'ladi. Odatda so'zlovchi o'z fikriga dalilni atrofdan oladi. Bunday holatni biz ko'proq o'qituvchilarda kuzatishimiz mumkin. Chunki miya bir vaqtning o'zida turli doiralarda faoliyat olib borolmaydi. Shu sababli ham so'zlovchi nutq jarayonida ko'zi bilan ko'rgan jarayon yoki voqealardan misol tariqasida foydalanadi. Quyidagi misolda shunday holatni ko'rishimiz mumkin. Ishtirokchidan sevimli ijodkori kim ekanligini so'raganimizda u quyidagicha javob berdi:

O'zimizni sinfdan Muhridin degan bachcha. Qo'shiq yozad-da. Xozzi yozoptida enni. Tilshunoslik bo'yicha. Tilshunoslik haqida yozopti. (Qarshi shahar 26-maktab o'quvchisi H.M.dan yozib olingan nutq)

Savolga berilgan javob nutq momentida sodir bo'lgan voqea-hodisaga asoslangan. Matndan shu narsa anglashiladiki, bolaga o'z sinfdoshining ijodi yoqishi uning tilshunoslik haqida yozmoqchi bo'lgan she'riga bog'liq emas. Chunki u hali mazkur she'r haqida tasavvurga ega emas. Nutq parchasida esa "tilshunoslik" haqida gap yuritilgan. Buning sababi tilshunos tadqiqotchi tomonidan tashkil etilgan jarayondir. So'zlovchi bu holatda o'z fikrini mavzudan chetlashgan holda va ayni damda jarayondan kelib chiqqan holda isbotlashga uringan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday lisoniy vosita nutqdan ko'zlangan maqsaddan kelib chiqib tanlanadi. Maqsad qo'yilgandan so'ng nutqning boshqa komponentlari ham kommunikatsiya jarayoniga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Agar so'zlovchining maqsadi nutqning to'g'ri va tez qabul qilinishi bo'lsa, unda yuqorida sanab o'tilgan omillarning barchasiga e'tibor qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. О.Ф.Коробкова. Речевая ситуация как предмет изучения и способ обучения на уроках устной (разговорной) речи в специальной (коррекционной) школе//Екатеринбург: Специальное образование №1, 2009.
2. А.А.Котов. Распознавание эмоционального состояния адресата в диалоге// Москва: Понимание в коммуникации.2007. Тезисы докладов международной научной конференции. 28.02-01.03.2007. С.52-55.
3. А.Д.Кошелев. О языковом понимании, возникающем в акте коммуникации// Москва: Понимание в коммуникации.2007. Тезисы докладов международной научной конференции. 28.02-01.03.2007. С.55-60.

БАДИЙ МАТНИ СЕМИОТИК ТАҲЛИЛ ҚИЛИШДА ЛИНГВИСТИКАНИНГ ЎРНИ

Саидова Райҳоний Абдуганиевна
БухДУнинг Педагогика институти
катта ўқитувчиси, ф.ф.ф.д. (PhD)

Миллий адабиётшуносликда истиқлол даврида юзага келган айрим ишларда семиотика ҳақида таъриф, фикр-мулоҳазалар баён қилинган. Жумладан, профессор Қ.Ўлдошев бу ҳақда шундай ёзади: «Семиотика – белги ва белгининг тизимлари ҳақидаги фан. Семиотика тилларни қуйидагича гуруҳлаштиради: 1) табиий (миллий) тиллар; 2) сунъий тиллар; 3) метатиллар – буларга табиий ва сунъий тилларни ёзиб олиш ва баён этиш учун яратилган илмий тиллар киради; 4) қўшимча – иккиламчи (вторичные) тиллар – буларга миф, ритуал, санъат тиллари, тақиклар, одатлар ва ҳ.к. тиллари киради. Структурал-семиотик қарашга кўра, бирор тил, бирор матн, бирор маданият ўз ҳолича, дунёдаги бошқа тил, матн ва маданиятдан узилган ҳолда мавжуд бўлолмайди»¹. Ғарб структуралист ва семиотиклари тил

масаласига доимо биринчи даражали иш сифатида қараганлар. Бундай муносабатни, хусусан, Р. Барт, Ж. Лакан ишларида яққол кўриш мумкин.

Маълумки, структурализм намояндалари семиотика ютуқларига ва изланишларига алоҳида эътибор бериб, ундаги усул ҳамда воситалардан фойдаланганлар. Ролан Барт тадқиқотларида буни яққол кўриш мумкин. Чех олими Я. Мукаржовский ҳам бу соҳа имкониятларидан фойдаланиш тарафдори бўлган. Унинг «*Studie z estetyky*» китобида шундай фикр билдирилган: «Тил акти ва бадиий асар орасида жиддий тафовут мавжуд эмас. Бошқача айтганда, бадиий асар тил сингари белги табиатига эга».²

М.Б. Храпченко бу мулоҳазага муносабат билдириб, тил ҳодисаларини бадиий адабиётга кўр-кўрона кўчириш мақсадга мувофиқ эмаслигини таъкидлаган.³ Чиндан ҳам сўз санъатида тилдаги сингари белгилар мавжуд бўлса-да, улар тилдаги белгиларнинг айнан такрори эмас. Тилдаги белгилар бадиий адабиёт ҳудудига кириб келгач, жиддий сифат ўзгаришларини бошдан кечиради, янги, яъни бошқача сифат-аломатларга эга бўлади. Шундай экан, тил ва бадиий матн белгилари орасида алоқадорлик мавжуд бўлса-да, улар орасида сезиларли фарқлар борлигини айтиш лозим.

Бу ўринда структурализмнинг фақат адабиётшуносликка хос соҳа эмаслигини айтиш лозим. Айни пайтда у тилшунослик, фалсафа, психология, архитектура каби фан тармоқларида ҳам қўлланилмоқда.

Даставвал структурал усуллар лингвистикада швейцариялик тилшунос Фердинанд де Соссюр (1857—1913) томонидан қўлланилган. Унинг таълимотига кўра тил тартиблашган белгилар тизими бўлиб, унда турли мураккаблик даражаларини ажратиш кўрсатиш мумкин. У ёки бу мазмунни ифода этиш учун шу тизимдаги ҳар бир унсурнинг бошқалари билан ўзаро алоқалари зарур бўлади. Француз файласуфи, адабиётшуноси, эстетиги, структурализм ва постструктурализм намояндаси, фототанқидчи, семиотика

намояндаси Ролан Барт (1915-1980) ўз тадқиқотларида структурализм ва семиотикани уйғун ҳолда қўллаб, «иккинчи семиологик тизим» ҳақидаги назарияга асос солган. Унинг таълимотига кўра, тил биринчи, бадиий адабиёт эса иккинчи семиологик тизимдир. Иккинчи семиологик тизимни юзага келтирувчи бадиий матндаги белги муносабатлари дастлаб, Ф. де Соссюрнинг тизимли тилшунослик ҳақидаги таълимотида истифода этилган бўлиб, структурализм ва семиотика соҳаларида ҳам қўлланилмоқда. Белги муносабатлари қуйидагилар:

1) парадигматик муносабатлар яқинлик ва ўхшашликка асосланади. Бундай яқинлик ва ўхшашлик бадиий матн доирасидагина юзага келади.

2) синтагматик муносабатлар ўхшашликка эмас, қўшничиликка асосланган.

3) Белгиларнинг зид муносабати.

Бадиий матннинг семиотик таҳлилида тил тизими ва иккинчи семиологик тизимни Рауф Парфининг “Кунглим коронгудир, теварак тутун...” номли шеърдан олинган бадиий матндаги булақларнинг структур-семиотик таҳлили орқали очиқ беришга ҳаракат қиламиз:

«Бу туркий оламнинг қутлуғ меърожи». Агар биз ушбу мисра ифодалаган белгини матн майдонидан ажратиб олиб таҳлил этадиган бўлсак, у жаҳондаги энг қадимги қавмлардан бири бўлган туркийларнинг мозийда эришган буюк ғалабаларини, шу эл орасидан етишиб чиққан минглаб қаҳрамон, саркарда, ҳукмдор, аллома ва авлиёларнинг мисли йўқ хизматларини ифодалайди. Аммо бу ўринда мазкур белги дастлабки, яъни денотатив моҳиятдан бутунлай фарқ қилади. Бунда матндаги бошқа белгиларнинг таъсири, ўзаро ҳаракат-алоқалари туфайли тил тизимида ахборот берувчи маъно кўчма-рамзий хусусият касб этган. Натижада икки қатламдаги маъно бир-бири билан зидликни ҳосил қилиб, бинар оппозицияни юзага келтирган. Бу ҳодисани қуйидаги чизмада аниқроқ кўрса бўлади:

«Бу туркий оламнинг қутлуғ меърожи»


Тил тизимида



Бадиий матн

Туркий элларнинг мозийдаги шарафли ўрни, инсоният олдидаги буюк хизматлари	Мустамлакачилик истибдоди туфайли инсоний ҳақ-ҳуқуқларидан маҳрум этилган халқ фожиаси
--	--

Ушбу матний бирлик англатган денотатив маънони учинчи банддаги «Бизда йўқ иттифоқ, бизда йўқ бирлик» (иккинчи мисра), «Оёқ остиндадир инсоний ҳуқуқ» (учинчи мисра), «Оёқ остиндадир муқаддас ҳурлик» (бешинчи мисра) матн бўлақларидаги белгилар билан муносабатини кўриб чиққанда, бу учта белги битта парадигматик қаторга бирлашиб «Бу туркий оламнинг қутлуғ меърожи» бирлигидаги белги билан қарама-қарши муносабатни юзага келтиришини кўрамиз:



Аммо мазкур белги кўчма маънода тушуниладиган бўлса, муносабат тизими ўзгаради. Энди «Бу туркий оламнинг қутлуғ меърожи» коннотатив маънода юқорида кўрсатилган белгилар билан зид алоқага киришмайди, аксинча парадигматик қаторнинг охиридан ўрин олади:

Бизда йўқ иттифоқ, бизда йўқ бирлик
 Оёқ остиндадир инсоний ҳуқуқ
 Оёқ остиндадир муқаддас ҳурлик
 «Бу туркий оламнинг қутлуғ меърожи»

Мазкур тўртта белгининг бир парадигматик қаторга киритилганининг сабаби шундаки, улар гарчи бир-биридан фарқланувчи, мустақил тушунча ифодаловчи концептларга эга бўлсалар-да, бир-бирига яқин ва ўхшаш аломатларга эгадирлар. Мана шу белгилар бир-бирини тўлдириб,

ойдинлаштириб, бадий матн структурасида яширинган устувор концепцияни юзага чиқаришга ёрдам беради. Мана шу концепцияга оид айрим қарашларни юқорида берилган белгилар гуруҳи таҳлили асосида аниқлаштиришга ҳаракат қиламиз.

«**Бизда йўқ иттифок, бизда йўқ бирлик**». Истибодга тобе элат ёки халқ, агар истаса, зулм ва хўрликлардан халос бўла олиши мумкин. Бундай истакка эришиш учун биринчи навбатда **иттифок – бирлик** зарур. Матн таркибида бир-бирига маънодош ҳисобланган икки сўз бир мисра доирасида қўлланилаётгани бежиз эмас. Бундай бадий усул (такрир санъати) орқали озодлик учун ҳамжиҳатликнинг ниҳоятда муҳимлиги такрорланмоқда. Бирор-бир халқ золимларни ўз ватанидан ҳайдаб чиқариш мақсадида бирлашишга қодир бўлмаса, унинг тақдири жуда аянчли, келажаги эса ҳалокатга маҳкум.

«**Оёқ остиндадир инсоний ҳуқуқ**». Бу мисрада олдинги концептни изоҳловчи ва тўлдирувчи белги мавжуд. Ижтимоий-сиёсий қарамлик, зўравонлик ҳукм сурган жамиятда инсоний ҳуқуқ ҳақида гап бўлиши мумкин эмас. У ҳамиша «оёқ остида», яъни топталган бўлади. Бу белги таркибидаги билдирувчи (шакл) тил тизимидаёқ коннотатив маънони ифодалайди. «Инсоний ҳуқуқ»нинг «оёқ ости» бўлиши, яъни тан олинмаслиги, унга зид ғайриинсоний ҳаракатлар этилиши тил тизимида фразеологизм (кўчма маънодаги бирикма) орқали ифода этиляпти. Бироқ бу ибора тил тизимидан навбатдаги қатлам ҳисобланган бадий матн ҳудудига силжиб ўтар экан, унда жиддий семантик деформация юзага келади. Ибора ифодалаган белги таркибидаги билинувчи матн сатҳида белгининг билдирувчиси (шакли)га айланади. Бир семиотик тизим (тил)дан бошқа тизим (бадий матн)га ўтган билинувчи (концепт) олдинги хусусиятларини муваққат бўлса-да ўзида сақлайди. Бу унинг тил қатламига мансублигини кўрсатиб туради. Шу билан бирга, матн қатлами нуқтаи назаридан шакл ҳисобланади. Матн таҳлили

жараёнида фақат белгининг тилга хос концептини тадқиқ этишининг ўзи етарли эмас. Бундай лисоний-матний оламда «мазмун шаклга эврилар экан, ўзининг тасодифий аниқлигидан маҳрум бўлади, ичи бўш нарсага айланади, йўқсуллашади, тарих унинг ичидан чиқиб кетади ва ҳарфларнинг ўзигина қолади».⁴ Матндаги билдирувчининг бундай ҳолга тушиши у ўзидаги жамики ахборотни таркибий қисми бўлган билинувчи (концепт) га узатиши билан изоҳланади. Белги концепти тил белгиси билинувчиси қурилмасидаги маълумотни қабул қилиш билан кифояланиб қолмай, уни жиддий қайта ишлайди. Бадиий матн таркибидаги бошқа белгиларга мувофиқлаштиради. Натижада матн белгиси сифат жиҳатдан ўзгаради ва ўзи тегишли бўлган семиотик тизим концепцияси манфаатларига хизмат қила бошлайди. Матн концептининг энг муҳим хусусияти, унинг аниқ тарихийлик аломатларига эга бўлишида намоён бўлади. Бундай бадиий-поэтик аломатни биз ҳозиргача кўриб чиққан белгилар структураси, жумладан, «Оёқ остиндадир инсоний ҳуқуқ» матний белгиси ифодалаган концептда яққол кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Йўлдошев Қ., Юсупов Ж. Бадиий таҳлил асослари. – УрДУ, 2008, – Б.57.
2. Mukarovskiy Jan. Studie z estetikiy. – Кўчирма М.Б. Храпченконнинг «Художественное творчество, действительность, человек» китобидан олинди. – Б.245.
3. Храпченко М.Б. Художественное творчество, действительность, человек. Собрание сочинений в четырех томах. том IV. – Москва: Художественная литература, 1982. –С. 247.
4. Барт Р. Избранные работы. – Москва: Прогресс, 1989. – С. 82.
5. Муродов Ғ. «Юлдузли тунлар» романида бадиий кодлар // БухДУ илмий ахбороти. – Бухоро, 2000. №1. – 23-27 б.

ABDURAUFI FITRAT PAREMIK JANRLARDAN BIRI HAQIDA

Amonov Ulug'murod Sultonovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

BuxDUPI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning o'zbek tilshunosligi grammatikasiga doir fikrlari paremik janrlardan olingan misollar orqali izohlab berilgan, ijodkorning bu misollari orqali hozirgi o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti jarayonidagi o'zgarishlarni bilib olish mumkinligi tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: paremalar, maqol, qo'shiq, uyushiq bo'laklar, barmoq vazni.

O'zbek folklorshunosligining oyoqqa turishida istiqbol fidoyisi, buyuk mutafakkir Abdurauf Fitratning alohida xizmatlari bor. Chunki Fitrat birinchilardan bo'lib, o'zbek folklorini yaxlit tizim sifatida qarab, unga xos janrlarga aloqador nazariy tushunchalarni ilgari surdi. U 1926-yilda yaratgan "Adabiyot qoidalari (adabiyot muallimlari va adabiyot havaslilari uchun qo'llanma)" kitobida "El adabiyoti" (folklor)ning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berar ekan, unga aloqador ertak, maqol, topishmoq, lapar, doston, ashula (qo'shiq demoqchi – U.A.) janrlarining tabiati, ayrim xususiyatlari haqida maxsus to'xtalib o'tgan. Ularga oid misollar keltirgan. Fitratning bu folklor janrlari xususida bildirgan fikrlarini alohida-alohida o'rganish mumkin. Ahamiyatli tomoni shundaki, Fitratning ular haqida ilgari surgan ilmiy qarashlari keyinchalik folklorshunoslikda bu janrlar tabiatini va badiiyatini yanada kengroq va chuqurroq tadqiq qilishda nazariy asos vazifasini o'tay oldi. Shu jumladan, Fitratning maqol janri haqida bildirgan fikr-mulohazalari ham alohida e'tiborni tortadi. U maqol janrining tabiatini "Elning kun ko'rgan, ish o'tkargan sinalishli qarilari tomonidan aytilgan hikmatli, qisqa, ma'noli gaplardir, el orasida «yashash qonunlari» kabi hukm surub, tildan tilga yuruydir", – deya izohlaydi. E'tiborli jihati shundaki, Fitratning maqol janriga bergan bu ta'rifi unga nisbatan berilayotgan hozirgi ta'rifdan jiddiy farq qilmaydi. Hozirda maqol xalq og'zaki ijodining ixcham

shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan, xalqning ko'p asrlik hayotiy kuzatishlari, tajribalari asosida vujudga kelgan hikmatli so'zi sifatida ta'riflanadi [3. 85-98.]. Ko'rinyaptiki, maqolning Fitrat tomonidan ham, undan keyin yetishib chiqqan olimlar tomonidan ham aytilgan ta'rifida, asosan, uning xalq turmush tajribasida sinovdan o'tgan bo'lishi, shaklan ixcham, mazmunan teran ko'rinishda og'izdan-og'izga ko'chib yurishi bir xilda ta'kidlanmoqda. Faqat Fitrat ta'rifida maqolning "qarilar tomonidan aytiladi" deb ko'rsatilishiga qo'shilish biroz qiyin. Chunki maqollar katta-yu kichik tomonidan aytilaveradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, maqolga nisbatan berilayotgan hozirgi ta'riflarda bunday ta'kid uchramaydi. Negaki, maqollar, odatda, bolalarga yoshlikdan o'rgatilib boriladi. Hatto hozirgi paytda boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallab tuzilgan darsliklarga ham maqol namunalari ko'plab kiritilgan.

A.Fitrat maqollarning janriy tabiatini izohlagach, unga aloqador quyidagi misollarni o'quvchilar e'tiboriga havola qilgan. Bu maqollar hozir ham aytiladi. Faqat Fitrat ularni o'z davrida amal qilgan eski o'zbek tili grammatikasiga muvofiq tarzda keltirib o'tgan:

Sinamag'an otning sirtidan o'tma.

Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l.

Chumchuqni (ham) qassob so'ysin.

Chumchuqdan qo'rqan tariq ekmas.

Och qornim – tinch qulog'im.

O'z uyim – o'lan to'shagim.

Bo'zchi belboqqa yolchimas.

Mulla bilganin o'qur, tovuq ko'rganin cho'qur.

Yotib qolguncha otib qol.

Og'zi qiyshiq bo'lsa-da, boy bolasi so'ylasun.

Ko'rinyaptiki, Fitrat misol keltirayotgan bu maqollarda o'tgan zamon sifatdoshi shaklidagi "sinalmagan" so'zi "sinalmag'an", "o'qir" fe'li "o'qur",

“so‘zlasin” fe‘li esa “so‘yulasun” ko‘rinishida eski o‘zbek tili grammatikasiga mos shaklda keltirilgan. Demak, bu orqali hozirgi o‘zbek tilining Fitrat yashagan davriga xos taraqqiyot xususiyatlarini ham bilib olish mumkin.

Qolaversa, Fitrat misol **keltirgan** “*Chumchuqni (ham) qassob so‘ysin*”, “*Og‘zi qiyshiq bo‘lsa-da, boy bolasi so‘yulasun*” maqollari hozirgi paytda ko‘proq “*Chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin*”, “*Og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham boy bolasi so‘zlasin*” ko‘rinishida qo‘llanishi kuzatiladi.

Fitrat maqol so‘zi o‘rnida ko‘pincha “el so‘zi” atamasini qo‘llagan. Masalan, u yuqorida nomi tilga olingan kitobida adabiyotshunoslikka oid nazariy qarashlarini ifoda etishda ham tez-tez maqollarga murojaat qilib, ular orqali o‘z fikrini asoslashga urinadi. Aytaylik, u “barmoq vazni” haqidagi qarashlarini bayon etar ekan, uning “to‘rtlik” ko‘rinishi uchun quyidagi maqolni misol keltirgan:

O‘lgan kelmas,

O‘chqon yonmas. (El so‘zi) [1. 26.].

Fitratning maqol atamasi o‘rnida “el so‘zi” atamasini qo‘llaganligining sababi shundaki, uning davrida maqol yoki hikmatli so‘zlar, asosan, “el so‘zi” nomi bilan atalgan. O‘z navbatida, xalq og‘zaki adabiyotiga ham el adabiyoti, omma adabiyoti nomlari berilgan.

Fitrat ba‘zan ayrim maqollarning nima maqsadda, qanday ma‘noda aytilishiga ham izoh berib o‘tishga urinadi. Jumladan, u “*Sinalmagan otning sirtidan o‘tma*” maqoli haqida: “*Sinalmag‘an otning sirtidan o‘tma*” deganimiz gap bir kinoyadir. *Chunki buning o‘zidan yaqin onglashilg‘an fikrdan boshqa “Sinalmag‘an kishilar bilan ishlama” degan fikrni ham bildiradirkim, maqsad ham shudir*”, – deb yozadi.

U “Bo‘zchi belboqqa yolchimas” ifodasini “el gapi (matal)” deb ko‘rsatadi, ammo sababini ochib bermaydi.

A.Fitrat tilshunoslikka oid tushunchalarni o‘quvchilarga tanishtirishga urinar ekan, ko‘pincha misollarni maqollardan, doston parchalaridan olishga harakat qilganki, uning bu urinishi bevosita mashhur tilshunos Mahmud Koshg‘ariyning

“Devon-u lug‘otit turk” kitobini yaratishda qo‘llagan tajribasini yodga soladi. Jumladan, Fitrat “Nahv” kitobida tinish (turish) belgilari bilan o‘quvchilarni tanishtirar ekan, o‘z fikrlarini, imloga doir nazariy qarashlarini dalillash uchun ba‘zan-ba‘zan folklor janrlaridan olingan misollarga murojaat qilganligi kuzatiladi. Jumladan, u nuqtali vergulning gapda qo‘yilishini tushuntirish uchun “Ota ko‘ngli bolada; bola ko‘ngli dalada”, “Mulla bilganin o‘qur; tovuq ko‘rganin cho‘qur”, “Yaxshi otg‘a bir qamchi; yomon otg‘a ming qamchi” kabi “el so‘zlari”, ya‘ni maqollardan foydalangan. Uning fikricha: “Bir-birlariga baylanishli bo‘lg‘anlari uchun nuqta bilan ajralishlari istanilmagan gaplar orasig‘a qo‘yiladir” [2. 211.].

Fitrat yana uyushgan (uyushqon) gaplarni tushuntirishda ham “Ota ko‘ngli bolada; bola ko‘ngli dalada”, “Mulla bilganin o‘qur; tovuq ko‘rganin cho‘qur” maqollariga qayta murojaat qiladi. Tarkibida bir necha gap ma‘no jihatidan bir-biriga boylangani uchun ushbu maqollarni u uyushgan gaplarga misol qilib ko‘rsatadi.

Fitrat gapning uyushgan bo‘laklarini, jumladan, uyushgan aniqlovchilar (aniqlov uyushmasi)ni tushuntirishda “Mulla bilganin (bilganini) o‘qur; tovuq ko‘rganin (ko‘rganini) cho‘qur” [2. 198.], “Ko‘r tutg‘anin qo‘ymas; kar eshitganin qo‘ymas”, “Qari bilganin pari bilmas”, “Ko‘r hassasin bir yo‘qotar”, “Birovning yaxshilig‘in unutma” kabi maqollardan foydalangan. Gap mavzusini tushuntirish uchun esa “Qimirlag‘an qir oshar”, “Bo‘zchi belboqqa yolchimas”, “Mulla bilganin o‘qur”, “Iki qo‘chqor kallasi bir qozonda qaynamas”, “O‘lgan kelmas”, “O‘chgan yonmas” maqollarini misol sifatida tanlagan.

Kesimni tushuntirishda “Bolali uy bozor; Bolasiz uy mozor”, “Oldamag‘an oldanmaydir”, “Ayrilganni ayiq yer” kabi [5.178.], “tushim to‘ldirg‘ichi”ni tushuntirishda “Dunyoni yel buzar, odamni so‘z buzar”, “Ayrilganni ayiq yer”, “Chumchuqni qassob so‘ysin”; “borish to‘ldirg‘ichi”ni anglatishda esa “O‘ychi o‘ylag‘ancha tavakkalchi ishini bitirar”, “chiqish to‘ldirg‘ichi” uchun “O‘zi bilmaydir, kishidan so‘ramaydir”, “Bir ot orqasidan ming ot suv ichadir”, “Yaxshi

soʻz bilan ilon inidan chiqadir; yomon soʻz bilan qilich qinidan chiqadir”, “Yomondan har kim bezadir”; “oʻrun toʻldirgʻichi” uchun “Oldingda oqqan suvning qadri yoʻq”; “chogʻ toʻldirgʻichi” uchun “Oʻroqda” yoʻq, “moshoqda” yoʻq, “xirmonda” hozir”; “Iki qoʻchqor boshi bir qozonda qaynamas”, “Ogʻzi qiyshiq boʻlsa-da, boy bolasi soʻylasin” singari el soʻzlarini, yaʼni xalq maqollarini misol keltirgan.

Xullas, bu misollar vositasida nafaqat oʻzbek adabiy tilining taraqqiyoti jarayonidagi oʻzgarishlarni bilib olish, balki maqollarning bizgacha yetib kelishini, ularning mazmuni va tuzilishida roʻy bergan shakliy va mazmuniy oʻzgarishlarni aniqlash, shuningdek, ularning toʻplanishi va oʻrganilishi tarixini kuzatish mumkin boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фитрат А. Шеър ва шоирлик. Адабий мубоҳаса. ТА. IV жилд. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. – Т.: Маънавият, 2006. – Б.26.
2. Фитрат А. Наҳв. ТА. IV жилд. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. – Т.: Маънавият, 2006. – Б.211.
3. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. Биринчи том. – Т.: Фан, 1988. – Б.85-98.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР – ОНА ТИЛИНИНГ БИЛИМДОНИ

Гулмирза Қурбониёзов

Ажиниёз номидаги НДПИ ўзбек тили
кафедраси доценти, ф.ф.д.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзбек халқи маънавий ҳаётида улкан ўрин эгаллаган шахс. Уни халқимиз улуғ шоҳ, темурийлар салтанатини қайта тиклашга ҳаракат қилган ва катта империя барпо қилган - моҳир саркарда, ҳассос шоир, “Бобурнома”дек бемисл насрий асарни ёзган маҳоратли ёзувчи,

ислом арконларининг билимдони, адабиётшунослик ва муסיқашунослик соҳаларининг ҳам катта олими сифатида эътироф этадилар. Олимларнинг кўрсатишларича, ўндан ортиқ фанларга оид маълумотлар биргина “Бобурнома”да жамланган экан.

Бобур ўз асарларида тил бирликларидан моҳирона фойдалана олган. Унинг услуби ҳам жуда содда, равон, халқ тилига яқин. “Бобурнома” асарининг услубий хусусиятларини Алишер Навоийнинг айрим насрий асарлари, Восифийнинг “Бадоеъ ул-вақоеъ”, Хондамирнинг “Ҳабиб ус-сияр” китоблари билан қиёслаб ўрганган проф. Ҳ.Қудратиллаев Бобурнинг юксак бадий салоҳиятини, ўзига хос услубини, сўзлардан фойдаланиш маҳоратини алоҳида таъкидлайди ва фикрларини асарлардан олинган мисоллар билан тасдиқлайди (1:382).

Бобур мамлакатларни, шаҳарларни, табиат манзараларини, қушлар ва ҳайвонларни шундай маҳорат билан тасвирлайдики, улар бевосита ўқувчи кўз ўнгида гавдаланади. Инсонларни таърифлашда уларнинг сурати ва сийратини ҳам моҳирона чизадики, ўқувчи уни худди кўзи билан кўриб тургандек бўлади. Унинг катта ўғли Ҳумоюнга бўлган меҳр-муҳаббатини, оталик севгисини кўпчилик билади. 1529-йил воқеаларини тасвирлар экан, Муҳаммад Ҳумоюннинг Бобур олдига келганини қуйидагича тасвирлайди: “Ва Муҳаммад Ҳумоюн бизнинг иштиёқимизни айтиб Мирзо Ҳиндолни Кобулдан Бадахшонга йиборуб, бизни тарафқа юра берур. Бир неча кунда дорул-хилофа Ограга етиб, ўшул соатким, биз анинг онаси билан отини тутуб, сўзлашуб ўлтуруб эрдукким, ета-ўқ келди. Кўнгиллар гул янглиғ очилиб, кўзлар чироғдек ёриди. Муқаррар ҳар куни жаши эди, лекин анинг ўзига тўй бериб, хушҳоллиғлар қилдук.” (2:354). Фарзандини соғинган ота-она ва ота-онасининг дийдорига етиш учун машаққатли йўл босиб келган фарзанднинг учрашувини тасвирлашда “кўнгилларнинг гул янглиғ очилиши, кўзларнинг чироғдек ёриши” ибораларини қўллаган. Уларнинг ички ҳис-

туйғуларини китобхонга етказиш учун бундан бошқа сўзлар ортиқчалик қилди. Ўғлининг дийдорини кўришдан хурсанд ота унга атаб тўй беради.

Бобурнинг ислом дини қонун-қоидаларини баён қилишга бағишланган ва уни Ҳумоюннинг исмига ўхшаш бўлиши учун “Мубаййин” номли асари борлигини кўпчилик билади. Мазкур асарни жуда пухта билган Ҳумоюн мана шу масалада ҳам бенуқсон бўлган. Бундан фахрланган Бобур 1529 йил воқеаларини тасвирлаш асносида шундай ёзади: “Ва неча муддатгача бир ерда бўлуб, мусоҳибона бир-бир билан сулук қилур эрдик. Ва алҳақ суҳбатта бебадал эрди ва инсонни комилким дерлар, ўшал эрди”. (2:354).

Бобурнинг тилшунослик соҳасидаги буюк хизматлари ҳақида гапирганда менинг назаримда қуйидаги масалаларга алоҳида эътибор бериш керак:

Биринчидан, Бобур фонетика бўлимининг билимдони сифатида товуш ва ҳарфнинг муносабатини, товушларнинг ифодаланиш усулларига ҳам алоҳида эътибор қаратади. Ўзи ҳам бу масалага қатъий амал қилади ва бошқалардан ҳам шуни талаб қилади. “Бобурнома” да ёзилишича ўғли Ҳумоюндан ҳам имлога амал қилишни талаб қилган. Бу ҳақда : “Яна мен дегандек, бу хатларингни битибсен ва ўқумайсен, не учунким , агар ўқур хаёл қилсанг эди, ўқуйолмас эдинг. Ўқуйолмагандин сўнг албатта тағйир берур эдинг. Хатингни худ ташвиш била ўқуса бўладур, вале асру муғлақдур. Насри муаммо ҳеч киши кўрган эмас. Имлонг ёмон эмас. Агарчи хейли рост эмас, илтифотни то била битибсен, Қулунжни ё била битибсен. Хатингни худ ҳар тавр қилиб ўқуса бўладур, вале бу муғлақ алфозингдин мақсуд тамом мафҳум бўлмайдур. (2:321).

Иккинчидан, Бобур имло масалаларига, айниқса, арабча сўзлар имлосига алоҳида эътибор бергани маълум. Унинг сўз имлосига муносабати ўғли Ҳумоюнга ёзган мактубида намоён бўлади. Унда Бобур муаллиф исми имлоси ва маъносига эътиборли бўлиш, ота-онанинг ўз фарзандига муносиб

исм бериш фарзи ҳақида, имло масалалари, хуснихат ва унинг аҳамияти, тил ва тафаккур боғлиқлигига тўхталади. Ўғлининг хатига оид танбеҳлар бериб, уни хатосиз ёзишга ундайди: “Ғолибо хат битирда қоҳиллиғинг ҳам ушбу жиҳаттиндур. Такаллуф қилай дейсен, ул жиҳаттин муғлақ бўладур. Бундин нари бетакаллуф ва равшан ва пок алфоз била бити: ҳам санга ташвиш озроқ бўлур ва ҳам ўқиғучиға” (2:321). Бу ўринда Бобурнинг услуб масалаларига ҳам ўта талабчан бўлганлигини сезиш мумкин.

Учинчидан, лексика соҳасида: Бобурнинг “Бобурнома” асаида ўзбек тилининг лексик имкониятлари, лингвистик хусусиятлари жамланган. Асар тилининг ўзига хослиги, воқеликни имкон қадар аниқ, лўнда, таъсирчан ифода этишда ёзма нутқ маҳорати алоҳида диққатга сазовордир. Бобур воқеликни ифода этишда лексик бирликлардан маҳорат билан фойдаланган: девон куни (ўтган кун), туно-кун (туну кун), охирзамон (ҳукмронлигининг кейинги даврлари), илгида хамир бўлмоқ (муте бўлмоқ), орияти қуюлмоқ (вақтинча тайинланмоқ), шунқор бўлмоқ (ўлмоқ) кабилар бевосита Бобур услубига хос ифодалардир. Бобурнинг ўзи туркий сўзлар асосида бир қанча терминларни ясаган. Масалан, қўшиннинг душман қисмини ёриб ҳужум қиладиган қисмини ёркунчи деб атайдди.

Бобур ўз асаида бирор-бир ҳудудни тасвирлар экан, ерли халқнинг лаҳжасини кузатади: “Андижон эли туркдур. Шаҳри ва бозорийсида турк тилини билмас киши йўқдур. Элининг лафзи қалам бирла ростдур. Ани учунким Мир Алишер Навоийнинг мусаннафоти бовужудким, Ҳирида нашъу намо топибдур, бу тил биладур”. “Бобурнома”да бошқа халқларнинг урф-одатларини акс эттирувчи сўзлар ҳам бор. У ҳижрий 925 йилдаги воқеаларни тасвирлар экан, шундай ёзади: “Ўша ерда йилқирон оши торттирулди” (Йилқирон оши деб, дастлаб вабо касали тарқалганида офатдан сақлашни сўраб, дуо қилиш маросимига айтилган. Бобур бу ўринда бирикмани айнан шу маънода қўллаган). Тилшунослар “Бобурнома”да сўзларнинг келиб

чиқиши, муаллифнинг қиёсий тилшуносликка оид мулоҳазаларини, унинг сўзларни семантик гуруҳларга ажратиш фойдаланганини, лексик бирлик маъносининг даража кўринишларини маҳорат билан қўллаганини тадқиқотларда аниқлаб берганлар. Буларнинг барчаси Бобур ижодининг ўзбек адабий тили тараққиётидаги ўрни беқиёс эканлигини кўрсатади.

Тўртинчидан: Бобур нафақат тилшунос, балки янги ёзув асосчиси ҳамдир. Инсоният маданияти тарихида ёзувларнинг аҳамияти улкандир. Айнан Ўрхун-Энасой битикларидан тортиб бугунги кунгача қўлланилган ёзувлар тарих зарварақаларига назар ташлаш имконини беради. Туркий халқлар ҳам кўплаб ёзувлардан, чунончи, турк-руний, араб, уйғур ёзувларидан фойдаланишган. Бобур ёшлигиданоқ араб ёзувида савод чиқарган бўлса-да, ҳаётининг охиригача ушбу ёзувда икки-уч тилда матн битган, ижод қилган. У бу ёзувнинг ифода имкониятлари, шакл ва қўлланиш хусусиятлари, ютуқ ва камчиликларини яхши билган. Шунинг учун ҳам у араб ёзувини янада соддалаштириш, бу ёзувда битилган сўзни ҳар хил ўқиш нуқсонларини бартараф этиш мақсадида 1504 йили ўзининг янги ёзувини — “Хатти Бобурий”ни (“Бобур ёзуви”ни) кашф этади. “Бобурнома”да бу ҳақда: “Ушбу маҳалларда бобурий хатини ихтироъ қилдим”, – деб ёзади. Унинг ихтиросидаги алифбо 29 та ҳарфдан иборат бўлиб, Бобур Хуросонга борганида хиротлик машҳур уламолардан Қози Ихтиёр ва Муҳаммад Мирюсуф ундан “Хатти Бобурий” алифбосини ўрганган. Бобур Ҳиндистонни забт этганидан сўнг, ўғиллари – Қандаҳорда турган Комрон мирзо ва Бадахшондаги Ҳиндол мирзога ҳам “Хатти Бобурий” алифбосида мактуб йўллади. Бу ҳақда “Бобурнома”да шундай дейилади: (1528 й) Ҳумоюннинг ўғли бўлғоннинг таҳниятига ва Комроннинг кадхудолиғининг таҳниятига Мирзойи Тарезийни ва Мирзобек тағойини ўн минг шохруҳий сочиқ била йиборилди. Ўзум кийган тўн ва боғлағон камар ҳар икки мирзога йиборилди. Мулло Биҳиштийдin Ҳиндолға мурассаъ камар ва ханжар ва мурассаъ даво

ва садафкорлик сандали ва кийган нимча ва тагбанд ва “Бобурий хат”нинг муфрадотини йиборилди. Яна “Бобурий хат” била битилган қитъалар йиборилди. Ҳумоюнға таржиманиким, Ҳиндустонға келгали айтқон ашъорни йиборилди. Ҳиндолға ва Ҳожа Калонға ҳам таржима ва ашъор йиборилди. Мирзобек тағойидин ҳам Комронға таржима ва Ҳиндқа келгали айтқон ашъор ва “Бобурий хат” била битилган сархатлар йиборилди (2:328). Унинг бу ҳаракати, аввало, қўл остидаги аҳолининг саводини осонроқ чиқариш истаги сабабли бўлса, иккинчидан, ўқиш ва ёзишни қулайлаштиришга интилиши туфайли эди. Албатта, Ўрта асрларда мавжуд ёзувни янгилаш ёки янги хатни жорий этишга уриниш жуда ҳам қийин эди. Чунки араб алифбосида “Қуръон” битилган эди. Бу ёзувга дин пешволари тиш-тирноғи билан қарши бўлишган. Шунинг учун ҳам Бобур янги ёзувни амалиётга жорий қилиш ниятида, аввало, Қуръони каримдан икки нусха тайёрлаб, бирини Маккага, иккинчисини Техронга жўнатади. Бу ўз даври учун катта маданий-маърифий жасорат эди. “Хатти Бобурий”да кўчиртирилган Қуръони каримнинг бир нусхаси бугунги кунда Машҳад шаҳридаги Имом Ризо ёдгорлик мажмуаси китоб фондида сақланади.. Унинг нусхаси Халқаро Бобур фондининг раҳбари Зокиржон Машрабов томонидан 2005 йили Ўзбекистонга олиб келиниб, “Бобур ва жаҳон маданияти” музейига топширилган.

Бизнинг вазифамиз Бобурнинг ажойиб бебаҳо меросини бутун халқимизга, айниқса ёшларимизга етказиш, улар орасида кенг тарғиб қилишдан иборат. Зеро бу улкан, тенги йўқ мерос асрлар давомида фарзандларимиз маънавий камолотида юксак ўрин тутди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Қудратиллаев Ҳ. Бобур армони. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2009.
2. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, – 1989.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA QO‘LLANGAN “QO‘Y”
LUG‘AVIY MA‘NOVIY GURUHI TASNIFI

Maftuna Sharipova

BuxDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

Аннотация: В статье в “Devonu lug‘otit turk” работе рассматривается ряд единиц касающихся языковой и духовной группы “овец”. Процессы связанные с овцами объясняются и сравниваются.

Annotation: The article deals with a number of unities concerning to linguistic and spiritual groups of the word “sheep” of the “Devonu lug‘otit turk” work. The processes related to the word “sheep” animal are described and analyzed.

Ключевые слова: пословицы, градация, процессы, связанные с овцами, объясняются и сравниваются, баран.

Keywords: proverb, lexical spiritual group, graduation, livestock, sheep.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy xalqlar hayotidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik lug‘atlarning barcha unsurlarini qamrab oluvchi dastlabgi universal lug‘at bo‘lib [1,5], muallifni dunyoga mashhur lug‘atshunos sifatida tanitdi. Olim turkiy xalqlar (qabila, urug‘) tillaridagi so‘zlar ma‘nosini arab tilida izohlab berdi. Misol sifatida she‘riy parchalar, maqollar va bir qancha birliklardan foydalandi. Asarni o‘rganish mobaynida “qo‘y” LMGi bilan bog‘liq birliklarni to‘plab, guruhlariga ajratgan holda tasnifladik. Ichki guruhlarda izohlashga harakat qildik.

Iste‘mol mahsuloti sifatidagi tasnifi.

1) go‘shni:

a) ot so‘z turkumi: etlik – kanora (go‘shni osiladigan temir); so‘yishga tayyorlangan qo‘yga ham etlik koj deyilar (I,127).

Arg‘un – uzunligi yarim gaz keladigan sichqon jinsidagi bir jonivor, devor yoriqlaridan chumchuqlarni ovlaydi, qo‘yga otilsa, go‘shnini sarg‘aytirib yuboradi (I, 142).

So'ko'sh – (yumshoq k bilan) buzoq va **qo'z**ilarning qovurdoqqa mos **go'shti** (o'g'uzcha) (I, 349).

b) fe'l so'z turkumi: kezirdi – so'ydi. Ol kojug' kezirdi – u qo'yni so'ydi, kesdi, bo'lak-bo'lak qildi. (kezirur, kezirmak) (II, 80).

Kezrildi – quritildi. Koj kezrildi – **qo'y (go'shti)** quritildi. Kezrilur, kezrilmak) (II, 275).

Bulatti: ol kozi⁵ bulatti – u **qo'zini qozon bug'ida pishirishga** buyurdi. Qozon bug'ida pishirilgan har narsaga ham bu so'z qo'llanadi (II, 358).

2) suti:

a) fe'l so'z turkumi: kojdan qurut sug'di – u **qo'y sutidan** qurt oldi, qildi. Bu so'zning asli sug'ar, sug'makdir (II, 10).

Sag'di – sog'di. Boshqasi ham shunday. Er koj sag'di – odam **qo'y sog'di**. (sag'ar, sag'mak) (II, 22).

Sug'di – yasadi. Ol kojdan qurut sug'di – u **qo'y sutidan** qurt oldi, qildi. Bu so'zning asli *sug'urdir*.(sug'ar, sug'mak) (II, 22).

3) yog' manbai:

a) fe'l so'z turkumi: Quzda qar o'ksamas, Kojda jag' o'ksamas – Quz tog'ida qor kamaymaydi, shuningdek, qo'yda yog' kamaymaydi (I, 315).

Jaqrilandi: koj jaqrilandi – qo'yning yog'i ko'paydi. Yog'li bo'lib semirdi. (jaqrilanur, jaqrilanmaq) (III, 220).

Boylik manbayi sifatidagi tasnifi.

a) ot so'z turkumi: Asarning ikkinchi jildida quyidagicha fikr keltiriladi: Vaqt topib dushmanlik qildi. O'rtoq bo'la turib so'kishdi. Qulunlarni o'g'irlab, mendan ayrildi. **Qo'ylarimni** (boyliklarimni) haydab ketdi (II, 51).

b) fe'l so'z turkumi: Sag'liqlandi: er sag'liqlandi – kishi sovliq qo'ylarga ega bo'ldi. (boyidi ma'nosida) (sag'liqlanur, sag'liqlanmaq) (II, 319).

⁵ Qo'zi so'zi "Devon"da har yerda qo'zichoq ma'nosida qo'llangan. "Qutadg'u bilig" da bu so'z yil nomi sifatida hamalga teng qo'yib ko'rsatilgan.

Jarashdi – kelishdi. Olar ikki jarashdi – ular ikovi bir ishda bir-biri bilan kelishdi. (jarashur, jarashmaq).

Quyidagi bayt kelgandan so'ng vafosizlik qilgan kishi haqida aytilgan:

Ortaq bolub bilishdi

Mening tashar satishdi

Bista bila jarashdi

Kizlab tutar tajimi

U men bilan tanishib o'rtoq bo'ldi. Tovarlarimni sotishga yordam berdi, so'ng Bista saroybon bilan so'z biriktirib, mendan toyimni yashirib qo'ydi.

Bista – savdogarlarni uyi (saroyi) ga qo'ndiradigan odam ismi. U savdogar molini sotishga yordam beradi, uni mehmon qiladi, uning mollari (qo'ylari)ni to'playdi, ularni boqadi. Savdogar ketar vaqtida yigirma qo'y hisobiga **xizmat haqiga** bitta **qo'y** oladi (III, 78). Xizmat haqi, oylik, maosh o'rnida qo'y olish odati bo'lgan.

But – katta bir odam tomonidan yuborilgan sovg'ani keltirgan kishiga beriladigan mukofot. Chunonchi, birovga sovg'a tariqasida yuboriladigan otni keltiruvchi otboqarga **pul** yoki qo'y berish kabi. Shu tartibda berilgan qo'y but deb ataladi (III, 131). Qo'y – pulga tenglashtirilganligi ifodalangan.

Qo'y so'zining turkiy variantlari:

a) ot so'z turkumi: Qozi – qo'zi qo'llaniladi (Turkiy tillarda qo'llanayotgan so'zlar bilan iste'moldan chiqqanlarini tanitish uchun shu so'zni qo'llagan) (I, 46)

Ko'rpa o't – ko'rpa o't (bedaning bir qarich va undan o'siq vaqti). Shuningdek, vaqtdan keyin tug'ilgan qo'zilar, echkilar buzoqlarga ham ko'rpa deyiladi (I, 393).

Koj – qo'y (III, 155).

Turklar qoy – qo'y desalar, o'g'uzlar qon deydilar (I, 67) Bundan tashqari, Yusuf xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ergash Jumanbulbul o'g'li va

turkmanlarning «Go‘ro‘g‘li» dostonlarida *g‘o‘ch//g‘o‘sh//qo‘s* (qo‘chqor, qo‘y, 18-b.) kabi varianti uchraydi [4,27].

Endik kishi titilso‘n

El toro‘ jartilso‘n

Toqli bori jetilso‘n qazg‘u jema sashilso‘n.

Qilichimiz bilan qayg‘uni ochaylikki, axmoqlar yo‘lga tushsinlar, mamlakat tuzalsin, qo‘zilar bilan bo‘rilar birga yursinlar, bizdan qayg‘u-g‘am yo‘qolsin (I,131). Ushbu she‘rda qo‘zi – *toqli* so‘zi yordamida ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu nodir asarda “qo‘y” LMGi aksariyat ijobiy ma’noda qo‘llanib, har biri alohida izohlangan. Asarni o‘rganish davomida yana bir karra xalqimizning o‘tmishdagi hayoti, turmush tarzi bilan tanishdik. Xalqimizning boy tarixini har tomonlama o‘rganish, uning taraqqiyot bosqichlariga xos jihatlarni umumlashtirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. “Devonu lug‘otit turk” asari o‘zbek xalqi tarixida muhim ahamiyatga ega noyob manbadir. Uni o‘rganish, tadqiq qilish biz avlodlarning asosiy vazifamizdan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулахатов Н., Тошпўлатов И., Носирова У., Жўрабаева У. Махмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 53.

2. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. I tom. - Toshkent: Fan, 1960. –B. 499. II tom. - Toshkent: Fan, 1961. – B. 427. III tom. - Toshkent: Fan, 1961. – B. 463.

3. Rahimov A. S. O‘zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodi misolida): Filol. fan. nomz....dis. avtoref. – Samarqand, 2002. – B. 57.

4. Zoologiya. 7-sinf: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik/O. Mavlonov. – Tuzatilgan va to'ldirilgan to'rtinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 208.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008 . – B. 464.

PIRIMQUL QODIROVNING “ONA LOCHIN VIDOSI” ROMANIDA AYOLLAR OBRAZI

Mirsharipova Shahzoda
Buxoro davlat universiteti
1-bosqich magistranti

Bugun biz tarix haqida, undagi buyuk shaxslar haqida so‘z yuritar ekanmiz, ayniqsa, ayollar obraziga ko‘proq e’tibor berishga harakat qilamiz. Vatanimiz tarixida juda ko‘p mashhur ayollar yashab o‘tgan. Ularning faoliyati, qilgan xizmatlari haqida asarlar yaratilgan. Sohibqiron Amir Temur xonadonida ham shunday mashhur ayollar bo‘lganligiga tarix guvohdir. Birgina Saroymulxonim, ya’ni Bibixonim butun dunyo tarixchilari nigohidadir.

Mustaqillik davri adabiyotida Amir Temur va temuriylar davrida ayollar obrazi talqiniga keng o‘rin ajratilgan bir qancha asarlar yaratildi. Jumladan, P.Qodirovning “Ona lochin vidosi”, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat”, Sh.Isaxonovanning “Bibixonim”, To‘lqin Hayitning “Vafo malikasi” kabi asarlari shular jumlasidandir.

Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida tarixiy voqelik talqin etilar ekan, unda ayollarning o‘rni masalasiga ham diqqat qaratilgan. Quyida romanning badiiy syujeti va umumiy qurilishi hamda asar g‘oyaviy mohiyatining ochib berilishida ayollar obrazining o‘rni masalasini yoritish hamda temuriylar saroyida ayollarning o‘rni, ularning jamiyatdagi mavqeyi masalasi talqinini o‘rganish maqsad qilindi.

Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” asarida temuriylar davri tarixiga oid badiiy voqelik tasviri aks ettirilgan. Romanda tarixiy sharoit tasviri berilar ekan, yozuvchi o‘tmishda nom qozongan ayollarning ham badiiy timsolini yaratishga e’tibor qaratadi. Shuningdek, romanda tasvirlangan davr, tarixiy va ijtimoiy sharoit hamda ayol ruhiyati muammolariga keng o‘rin ajratilgan. Asarda ularning ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy masalalar doirasidagi hamda ijtimoiy-tarixiy muhitdagi muammolarga oid qarashlariga alohida diqqat qaratilgan.

Tarixiy shaxslar timsoli sifatida yaratilgan ayollar obrazlarining xarakteri, zukkoligi, donishmandligi, tarbiyasi, madaniyati masalalariga yozuvchining o‘ziga xos yondashuvi namoyon bo‘lgan. Ularning rafiqqa, ona, do‘st, umuman inson sifatidagi mohiyati asarda yorqin aks ettirilgan. Romanda ayniqsa Bibixonim, Gavharshodbegim, Shodimulkbegim kabilarning badiiy olami asarda yorqin gavdalantirilgan.

Asarda Amir Temurning vafodor rafiqasi Saroymulxonim, ya’ni Bibixonimning zukkoligi, yetuk fazilatleri, shu bilan birga davlat boshqaruvidagi o‘rni masalalariga doir tarixiy haqiqatlarning badiiy haqiqatga aylantirilishida ijodkorning o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi. Bibixonim bilan birga uning suyakli kelini Gavharshodbegimning xarakteri, ruhiyati, kechinmalari, umuman olganda, badiiy olami to‘laqonli aks ettirilgan. Romanda qaynona va kelin munosabatlari, jamiyat va ayol masalalari xususidagi haqiqatlar badiiy asoslangan. Asarda talqin etilishicha, Amir Temur xonadoni ayollari xonadon sohibining qaroriga gap-so‘zsiz bo‘ysunishgan, qarorlarini hurmat qilishgan. Sohibqiron qaynotasi in’om qilgan yirik-yirik la’l qadalgan bir juft sirg‘ani kelinining qulog‘iga taqar ekan, Bibixonim: “Bu in’omning teran ma’nosi bor, – dedi. – Endi hamisha xonadon sohibining gapiga quloq solgaysiz, aytganlarini so‘zsiz ado etgaysiz” [1,4].

Shohruh Mirzoning suyakli xotini Gavharshodbegim obraziga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Gavharshodbegim Shohruh Mirzo saroyida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan vazifa, ya’ni shahzodalar tarbiyasi bilan shug‘ullangan.

Zamon podshohi Shohrux Mirzo mamlakat kelajagi bilan bog'liq shunday yuksak vazifani Gavharshodbegim zimmasiga yuklagan. Bunday vazifa temuriylar davlatida an'ana tusini olgan deyishimiz ham mumkin. Chunki ulug' amir Amir Temur xuddi shunday siyosat yuritgan. Ya'ni o'g'illari, nevaralari tarbiyasini suyuqli xotini Saroymulxonimga ishonib topshirgan. Bu vazifa mamlakat kelajagi uchun katta ahamiyat kasb etgan. Romanda farzandlar tarbiyasining Gavharshodbegim zimmasiga yuklanishi va uning shaxzodalarga temuriylar tarixiga oid muhim voqealar haqida hikoya qilib berishi tasviri beriladi. "Gavharshodbegim ko'proq temuriylar tarixidan saboq berardi" [1,23], deb yoziladi asarda uning shaxzodalarga beradigan saboqlari to'g'risida.

Umuman olganda, Gavharshodbegimning ma'rifatli, dono, oqila ayol sifatidagi badiiy olami yaratiladi. Shu boisdan ham asarda talqin etilishicha, Shohruh Mirzo mamlakat ishlariga oid muhim qarorlar qabul qilishda ba'zan uning maslahatlariga ham tayanar edi. Romanda shunday satrlar keltiriladi: "Shohruh mirzo Gavharshodbegimni davlat ishlariga yaxshi tushunadigan aqlli va ma'rifatli ayol sifatida ham yaxshi ko'rar, ba'zi murakkab muammolarni hal qilishda begimning maslahatini olar edi.

Ana shunday maslahatlardan biri Samarqanddan Toshkentga borayotganlarida Jizzax bilan Sirdaryo oralig'idagi qaqroq cho'lga suv chiqarish borasida bo'ldi" [1,29].

Asarda ayollar timsoli xarakteridagi murakkab qirralar ham yozuvchi tomonidan mahorat bilan aks ettirilgan. Jang-u jadallar, ijtimoiy ziddiyatlar va ayni paytda farzand tarbiyasi, oila mas'uliyati, insoniy burch va shaxsiyat masalalari oldida turgan ayol olamini badiiy jonlantirilishda yozuvchi Pirimqul Qodirovning o'ziga xos mahorati aks etgan. Gavharshodbegimning xotirlashicha, "xonadon egasining irodasiga bo'ysunib yashash oson kechmadi. Mudom tog'lar atrofida o'ralashgan bulutlarning shamol-bo'ronlarini eslatuvchi urush-yurishlarga chidash, tashqi-ichki nizolarning girdoblaridan suzib o'tish juda qiyin bo'ldi" [1,4].

Ayni paytda asarda oqila, fozila, mehribon va vafodor ayollar bilan birga murakkab xarakterli ayollar timsoli ham yaratilgan. Fikrimizning isboti sifatida Shodimulksulton obrazini keltirishimiz mumkin. Xalil sulton bilan pinhona aloqalar oʻrnatgan bu ayol, natijada mamlakat boyliglarini egallash fikridan ham yiroq boʻlmaydi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday davr, har qanday ijtimoiy siyosiy vaziyatda boʻlmasin, ayol zoti muqaddas, u buyukdir. Ayol – yaratuvchi, ayol – ona, suyukli yor, mehribon opa-singil. Biz tahlil qilishga harakat qilgan tarixiy davr ham buni isbotlab turibdi. Ayolning ichki dunyosi, dunyoqarashi, mehr-muhabbati davr, zamon va makon tanlamaydi. U har qanday vaziyatda ham aziz va muqaddasdir. Pirmqul Qodirov tomonidan badiiy aks ettirilgan ayollar timsoli ham oʻzining maʼnaviy olami va tarbiyaviy mohiyati bilan oʻquvchining diqqatini tortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 303 b.
2. Сатторий Х. Ҳазрат Соҳибқирон. – Т.: Шарқ, 2016. – 510 б.

2-SHO'BA: DAVLAT TILINING SOFLIGINI SAQLASH, LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

ДАВЛАТ ТИЛИ – ИЖТИМОЙ ТАРАҚҚИЁТ МЕЗОНИ

Бахтиёр Менглиев
ТДЎТАУ профессори,
филология фанлари доктори

Мамлакатимизда демократик-ҳуқуқий давлат, эркин фуқаролик жамияти қуриш жараёнида, энг аввало, ўзбек тилининг мавқеини юксалтиришда 1989 йилнинг 21 октябрида “Давлат тили ҳақида”ги Қонуннинг қабул қилинганлиги беқиёс аҳамият касб этади. Бу ҳуқуқий ҳужжат ўзбек тилини давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳасида қўллашнинг қонуний асосларини яратиши баробарида, уни асраб-авайлаш, янада бойитиш, илмий-ижодий фаолиятда тўлақонли фойдаланиш имконини берди.

Мазкур ҳужжат давлат бошқарувида, ижтимоий ҳаётда, халқаро ва миллатлараро муносабатларда, ишлаб чиқаришда, судлов ишларида, нотариал ҳаракатларда, фуқаролик ҳолатини қайд этувчи ҳужжатларда, ахборот олиш ҳамда инсон ҳаёти ва фаолияти билан боғлиқ турли муносабатларда давлат тили ҳамда бошқа тилларнинг қўлланилишини тартибга солувчи нормаларни қамраб олган.

Қонунда Ўзбекистон Республикасининг қонунлари давлат тилида қабул қилиниб, шу тилда ва бошқа тилларда эълон қилиниши белгилаб қўйилган. Бу эса мамлакатимизда яшовчи турли миллат ҳамда элатларнинг нафақат ўз тилларидан эркин фойдаланиши, балки юртимизда олиб борилаётган ислохотларнинг ҳуқуқий асосларидан ўз вақтида бохабар бўлиши, қонун нормаларини тўғри талқин этиш имкониятларини кенгайтирмоқда.

Шу билан бирга, унда давлат ҳокимияти, маҳаллий ҳокимият ва бошқарув органларида иш юритиш, ҳужжатларни қабул қилиш ҳамда эълон этиш давлат тилида амалга оширилиши мустаҳкамлаб қўйилгани ҳолда, ушбу ҳужжатлар бошқа тилларда таржима қилиниши ва эълон этилиши, маҳаллий ҳокимият ҳужжатлари муайян миллат вакиллари зич яшайдиган жойларда мазкур миллат тилида қабул қилиниши ҳамда эълон этилиши ифодаланган. Бу уларга ўз тилларидан фойдаланишида кенг имконият туғдиради, ўз фикрини тўлиқ ва тушунарли тилда баён қилишга шароит яратади.

Бундан ташқари, судлов ишларини юритиш, нотариал ҳаракатлар, фуқаролик ҳолатини қайд этувчи ҳужжатларни тўлдиришда ҳам бошқа тилларда таржимаси такрорланишини ёки ўз тилида сўзлашни, таржимонлар жалб этишни белгиловчи нормалар билан тўлдирилгани инсоннинг шаъни, кадр-қимматини ҳимоя қилишда муҳим аҳамиятга эга. Бу унинг туйғулари дахлсизлигига шароитлар туғдиради.

Ахборот олиш кафолатлари ҳамда эркинликларини таъминлаш мақсадида телекўрсатув ва радиоэшиттиришлар, ноширлик, реклама фаолиятида ҳам давлат тили билан бир қаторда, бошқа тилларга етарлича шароит яратилишига эътибор қаратилган. Бугунги кунда ўн икки тилда телекўрсатув, ўн уч тилда радиоэшиттиришлар олиб борилаётгани қонун нормаларининг амалдаги ифодасидан далолатдир.

Шу ўринда она тилимиз нуфузини мустаҳкамлаш, софлигини сақлашда вилоят ҳокимлиги томонидан ҳам тизимли ишлар олиб борилаётганини қайд этиш жоиз. Хусусан, “Давлат тили ҳақида”ги Қонуннинг жойлардаги ижросига жиддий эътибор қаратилаётгани, бу борада учраётган айрим муаммолар ечимини топаётгани халқимизнинг бебаҳо маънавий бойлиги бўлган она тилимизнинг ижтимоий ҳаётдаги мавқеини янада юксалтиришга хизмат қилмоқда. Айниқса, бу борада шаҳар ва туманларда, таълим

муассасалари, меҳнат жамоаларида, жамоатчилик жойларида очик мулоқотлар ташкил этилиб, экспертлар, соҳа мутахассислари иштирокида мутасаддилар билан мазкур Қонун талаблари ҳаётийлигини таъминлашга қаратилган муҳокамалар ўтказиб келинаётгани диққатга сазовор.

Мамлакатимиз Президенти 2019 йил 21 октябрь куни “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чоратадбирлари тўғрисида”ги яна бир тарихий Фармонга имзо чекдилар. Мазкур Фармон билан 21 октябрь-ўзбек тилига давлат тили мақоми берилгани муносабати билан “Ўзбек тили байрами куни” этиб белгиланди. Айни кунда Ўзбекистонда 130 дан ортиқ миллат ва элат вакиллари бир аҳил оиладек яшаб келаётган бўлсалар, уларнинг ўз она тилларини эркин қўллаш ва ривожлантириш борасидаги ҳақ-ҳуқуқларини қўллаб-қувватлаган ҳолда, қувонч билан таъкидлаш керакки, улар ҳам ўзбек тилини она тиллари каби ардоқлаб, ўрганиб, турмушда эмин-эркин қўллаб келмоқдалар. Зотан, ҳаёти, тақдири Ўзбекистон билан чамбарчас боғланган, шу тупроқда туғилиб ўсган минг-минглаб турли миллат вакиллари Ўзбекистонни Ватан тутган эканлар, нега шу юрт давлат тилини ўрганмасликлари керак? Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясида ўзбек тилида сўзлаган нутқи бутун жаҳон аҳлини ҳайратга солди. Тарихда биринчи марта дунёнинг энг нуфузли, энг олий минбарида соф ўзбекча сўз жаранглади. Мустақил Ўзбекистон раҳбарининг: “Ҳозирги таҳликали ва мураккаб вазият ер юзидаги барча давлатлар ва халқлар ўзаро боғлиқ эканини, ўртамизда мунтазам мулоқот, ишонч ва яқин ҳамкорлик ўта муҳимлигини исботлади”, деган сўзлари инсониятни огоҳликка чорлади.

Маълумки, халқлар ўртасидаги мулоқот, ишонч ва яқин ҳамкорлик тил орқали амалга оширилади. Бинобарин, “Бизнинг ёшлар, албатта, бошқа тилни билиш учун саъй-ҳаракат қилсинлар, лекин аввал ўз она тилини

кўзларига тўтиё қилиб, эҳтиром кўрсатсинлар. Зеро, ўз тилига садоқат – бу ватаний ишдир”.

Юртимизда синовли ва оғир кунлар, пандемия даври кечаётган бир пайтда давлат тили масаласининг ҳам кўтарилгани ўзини шу юрт фуқароси деб билган барчани Ватанпарварликка, тилга, миллатга садоқат билан хизмат қилишга, шарафли ишга чорлайди. Бу борада касб-кори, мансаб-мавқеи, жамиятда тутган ўрnidан қатъий назар, барча бирдек масъулиятни зиммасига олиши, авлодларга соф, теран ва ранг-баранг сўз бойлигига эга тил қолишини таъминлашлари ҳам қарз, ҳам фарздир.

Ҳар қайси халқнинг турмуш тарзи, урф-одатлари, маданияти унинг тилида ўз ифодасини топади. Ўзини она юртининг келажагига масъулман дея ҳисоблайдиган ҳар бир йигит-қиз она тилимизни соф ҳолида асраши, унинг бетакрор имкониятларидан оқилона фойдаланиши ва уни бузмасдан талаффуз этиши, амалдаги Қонун меъёрлари бажарилишини таъминлашда фаоллигини намоён этиши лозим. Буларнинг барчаси давлат тили тўғрисидаги Қонуннинг ҳаётимизда самарали татбиқ қилинишига қаратилгани билан эътиборлидир. Зеро, она тили – миллатнинг тарихий, маънавий-маданий қиёфасини ўзида ифодаловчи беқиёс хазина.

AJDODLARDAN MEROS ONA TILI BU, AVLODLAR-CHUN E'ZOZ ONA TILI BU

B.M.Jo'rayeva

Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish
markazi Buxoro viloyati hududiy bo'linmasi rahbari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining tarixiy bosqichlaridan hozirgi davrga qadar bosib o'tgan tarixiy taraqqiyoti haqida adabiy manbalar orqali bayon etilgan.

Kalit so'zlar: koynе, davlat tili, fors tili, tilni ommalashtirish.

VA ILMIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI O'RNINI

Ma'lumki, o'zbek xalqi O'rta Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, uning tili ham uzoq zamonlardan boshlab asta-sekinlik bilan taraqqiy qilib kelgan. O'rta Osiyoning hozirgi o'zbeklar yashaydigan qismida qadimdan birga yashab kelgan eroniy elatlar bilan turkiy qabilalarning hamda ular so'zlashadigan tillarning tarixiy aralashuvi natijasida XI–XII asrlarda keyinchalik o'zbek deb nomlangan xalq va uning tili shakllana boshladi. Demak, o'zbek xalqi va uning tili 1000 yillik tarixga ega. Uning ilk yodgorliklari – bevosita hozirgi o'zbek millatiga mansublari, chunonchi, qariyb 15 ming misradan iborat bo'lgan «Qutadg'u bilig» shunday yuksak badiiy san'at va mahorat bilan yozilganki, mutaxassislar bunday adabiy nutq shakllanishi uchun u kamida 500–600 yil koyni – og'zaki me'yordashgan til sifatida ishlov topishi kerak degan fikrni ilgari suradilar. Jahondagi kamdan kam xalq bunday katta va uzoq madaniy an'ana hamda badiiy merosga ega. IX–X asrlarda qoraxoniylar saroyida keng amalda bo'lgan, XIV–XV asrlarda temuriylar davrida gullab yashnagan, shayboniylar, ashtarxoniylar va mang'itiylar hukmronligi vaqtida rasmiy til sanalgan, tarixiy manbalarda *turkiy, xoqoniy, chig'atoy, sart*; ilmiy tadqiqotlarda *qadimgi turkiy, eski turkiy, eski o'zbek, chig'atoyi turkistoniy* nomlari bilan atalgan adabiy tilning bevosita davomi va merosxo'ri bo'lgan hozirgi o'zbek adabiy tili (nutqi) zamonaviy me'yorlari XX asrning 30–40 yillarida tugal shakllandi. Lekin bu shakllanish ostida ajdodlarimizning, fidoyi ota-bobolarimizning mislsiz mehnati, izlanishi, zahmati yotadi.

Millat, yurt fidoyilari xalqni xalq, millatni millat sifatida shakllantiruvchi, uning yashash tarzini belgilab beruvchi til taqdiriga daxldorlik tuyg'usini hamma vaqt his qilib yashagan; yurt farzandi sifatida ona tiliga hurmat bilan munosabatda bo'lish, uning yashashi va taraqqiy qilishiga hissa qo'shishdek muqaddas vazifani ado etishni o'zlarining birinchi galdagi burchi deb bilgan.

Turkiy til XI asrda O'rta Osiyoda, asosan, yerli xalq tomonidan ishlatib kelingan bo'lsa-da, arab tilshunoslari bu til bilan ham shug'ullana boshladi.

Arablarning turkiy tilni o‘rganishi uchun yaratilgan “Devonu lug‘otit turk” asarida buning sababini M.Koshg‘ariy quyidagicha izohlaydi:

“Xudo davlat quyoshini turklar burchida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko‘tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo‘liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, ularni to‘g‘ri yo‘lga yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g‘olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatidan qutuldi. Ularning (turklarning) o‘qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo‘lish uchun **eng asosiy yo‘l** – ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o‘z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar.

Ishonchli bir buxorolik olimdan va nisoburlik boshqa bir ishonchli olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so‘zni payg‘ambarga nisbat berib aytgan edilar, payg‘ambar qiyomatning belgilari, oxir zamon fitnalari va o‘g‘uz turklarining xuruji haqida gapirganda, shunday degan edi: “Turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi”. Hadisning to‘g‘ri yoki to‘g‘ri emasligining javobgarligi aytgan kishilar gardaniga. Agar to‘g‘ri bo‘lsa, turk tilini o‘rganish vojibdir, hadis to‘g‘ri bo‘lmagan taqdirda ham uni o‘rganish zarurligini aql taqozo qiladi”.

Turkiy til haqida M.Koshg‘ariy tomonidan aytilgan ushbu fikrlar tilimizga berilgan dastlabki genial ta‘rif bo‘lib, sobiq sho‘ro tuzumi davrida “Devoni lug‘otit turk” asarining ommalashtirilmaganligi sabablaridan biri ham shunda edi.

XII asr olimi Ibn Mansur Marvarudiyning «Tarixi Muborakshoh» asarida aytilgan fikrlar ham M.Koshg‘ariy qarashlariga hamohang va qaysidir ma‘noda uni to‘ldiradi (bu muallif O‘rta Osiyodan, Marvarud qishlog‘idan): “Turklarda (oliy) martabalar va darajalar bo‘lmasa-da, ular shunday maqtovga sazovorli shuhratga

egadirlarki, musulmon hokimlarining qudrati Alloh yordamida (faqat) turklar tufaylidir. Shu sababli Turkistondagi turklar boshqa xalqlarga nisbatan ustunlikka egadirlar... Bulardan biri shundaki, hech qaysi mamlakat kattaligi, kengligi jihatidan Turkistonga teng kela olmaydi. Turkiston xalqlarini boshqalardan ajratib turuvchi yana boshqa ayrim narsalar mavjud. Shulardan biri turk tili bo'lib, bu til arab tilidan keyingi eng yaxshi va ta'sirli tillardandir. Hozirda odamlarning turk tilini o'rganishga intilishining sababi shundaki, avvalgi zamonlarda amir va harbiy boshliqlarning ko'p qismi turklardan bo'lgan, hokimiyat ular qo'lida bo'lgan, har qanday foydali narsalar, oltin, kumushlar ham ularning qo'lida edi., zodagonlar, amaldorlardan chiqqanlar va ularning o'g'illari turklar xizmatida bo'lgan. Yana, turklarda yozuv bo'lgan, ular osmon jismlari va uning sirlarini bilganlar, bolalarni savodga o'qitganlar". (Материалы по истории Средней и Центральной Азии X–XIX вв. - Т., 1988, с. 91–92.)

O'rta asrlarda musulmon olamining Sharqida arab tili xalqaro til sifatida qo'llanib, O'rta Osiyoning dunyoga mashhur olimlari Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi o'z asarlarini arab tilida yozdilar. Hatto turkshunos olim M.Koshg'ariy ham «Devonu lug'otit turk» asarini ana shu tilda yozishga majbur bo'ldi. Xalifalikka qaram bo'lgan deyarli hamma mamlakatlarda ahvol xuddi shunday edi. Biroq X asrlarda «dariy» yoki forsiy deb atalgan til ham mavjud edi. Bu til, ayniqsa, somoniylar davrida yagona davlat tili sifatida madaniy hayotda, badiiy adabiyotda keng o'rin egalladi. Shuni aytish mumkinki, forsiy til to XV asrgacha bir o'lka va xalqlarning mushtarak adabiy tili sifatida keng qo'llandi. G'aznaviylar va Saljuqiylar davridayoq ular bosib olgan o'lkalarda ham, jumladan, Kavkaz (Arron, qisman Gruziya, Armaniston)da, Hindistonning shimoliy qismlarida dariy-forsiy tili davlat tili va adabiy til sifatida e'lon qilindi. Ana shu siyosat tufayli buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri N.Ganjaviy (1141–1203) "Layli va Majnun" dostonining kirish qismida asarlarini o'z ona tilida emas, balki

fors tilida yozishga majbur bo'lganini afsus bilan qayd etgan edi. O'sha davrlarda forsiy tilni bilish va shu tilda so'zlashish, ijod qilish jamiyatning yuqori tabaqasiga xos bo'lgan «imtiyoz» hamda «bilimdonlik» belgisiga aylandi. Bu an'ana hatto temuriylar davrida ham saqlanib qoldi. Shu paytga kelib, forsiy til hatto feodal aristokratiyasining so'zlashuv tiliga aylandi. Har ikki temuriylar davlati – Xuroson va Movarounnahrda ham forsiy til hukmron edi.

XV asrda o'zbek tilida original va tarjima asarlari yaratgan Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Amiriy, Gadoiy, Yaqiniy kabi iste'dodli shoirlar o'zbek dunyoviy adabiyotini ravnaq toptirish bilan birga, o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shdilar. Biroq ular son jihatidan nihoyatda ozchilik edi. Navoiy «Majolis un-nafois» asarining ikkinchi majlisida tilga olgan va yoshlik chog'ida ko'rgan yoki gaplashgan 90 shoirdan 16 tasi turkiy tilda, shuningdek, fors tilida ham ijod qilgan. Asarning 3-majlisida tilga olingan 110 shoirdan faqat 3 tasi turkigo'y bo'lgan.

«Bu til dag'al, unda yuksak san'at asarlari yaratib bo'lmaydi» degan fikrlarga uzil-kesil zarba berish, o'zbek tilining yashirin qolib kelayotgan xazinalarini ochish va uni ilm ahliga, she'r muxlislariga tushuntirish o'zbek xalqining buyuk farzandlari oldida muhim vazifa bo'lib turardi. Xuddi shunday davrda A.Navoiy o'z xalqining adabiyoti va adabiy tilini himoya qilish, rivojlantirishdek zo'r davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalani ko'tarib chiqdi va umrining oxirigacha o'zbek adabiy tili hamda adabiyotini yuksak darajaga ko'tarish uchun kurashdi. Badiiyat durdonalarini yaratishda turkiy tilning boshqa tillardan qolishmasligini shoir o'z badiiy asarlari misolida amaliy, «Muhokamat ul-lug'atayn» vositasida nazariy asoslab berdi. Hazrat Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn»da yozadi:

Bu xoksorg'a sabo avo'ilidakim, og'iz huqqasidin biror gavhar zohir bo'la boshlar, ul gavharlar hanuz nazm silkiga kirmaydur erdikim, zamir daryosidin nazm silkiga tortilg'on gavharlar tab' g'avvosi sa'yi bila og'iz sohilig'a kela boshlamoq ko'rguzub erdi. Chun mazkur bo'lg'on qoida bilakim, ado topti – mayl

forsiy sari bo'ldi. Ammo chun shuur sinnig'a qadam qo'yuldi, chun haq subhonahu va taolo tab'g'a g'arobat sari maylni zotiy va diqqat va dushvor pisandliqqa shuru'ni jibilliy qilib erdi, turk alfozig'a dog'i mulohazani lozim ko'ruvdi – olame nazarg'a keldi, o'n sakkiz ming olamdin ortuq; anda zeb va ziynat sipehri tab'g'a ma'lum bo'ldi, to'qquz falakdin ortuq; anda fazl va rif'at maxzane uchradi, durlari kavokib gavharlaridin raxshandaroq va gulshane yo'luqti, gullari sipehr axtaridin duraxshandaroq; harimi atrofi el ayog'i yetmakdin ma'sun va ajnosi g'aroyibi g'ayr ilgi tegmakdin ma'mun. Ammo maxzanining yiloni xunxor va gulshanining tikani behad va shumor.

Xayolg'a keldikim, hamonoki, bu yilonlar neshi nashtaridin tab' ahli xiradmandlari bu maxzandin bahra topmay o'tupturlar. Va ko'ngulg'a andoq evruldikim, go'yo bu tikanlar sarzanishi zararidin nazm xayli guldastabandlari bu gulshandin bazm tuzgucha gul iliklay olmay yo'l tutupturlar.

Shoir ijodining ibtidosini fors tilida boshlaganligi va bu o'sha davr uchun qoida ekanligini ta'kidlaydi. Ammo ijodi "o'smirlik" pallasiga yetganida, unda ijodga bo'lgan mayl jiddiy tus olgan, Alloh taolo qalbida ijod nurlarini yolqinlantirgan paytda Navoiy ro'parasida bir **olam** bo'y ko'rsatadi: o'n sakkiz ming dunyo go'zalligidan ortiq unda zeb va ziynat; to'qqiz falakdan ortiq unda fazilat va yuksaklik; **xazina** namoyon bo'ladi: durlari yulduzlardan-da yarqiroq; **gulshan** yo'liqadi: gullari osmon yoritgichlaridan-da nurliroq.

Shoir o'zbek tilini go'zal, pari-paykar, huriliqolar yig'iladigan maskan – haramga mengzaydi. Haram atrofi el ayog'i yetishidan asralgan va g'aroyib ashyolari, mollari begona qo'li tegishidan himoyalangan. Ajoyibotlar, g'aroyibotlar jamuljam bo'lgan xazina-maxzanning ilonlari qonxo'r-xunxor va gulshanining tikanlari behad-u bisyor. Ilonlar nishi zahridan, nishtarining sanchilishidan qo'rqan hushyor, aqlli, dono ijodkorlar maxzandan bahra topmay o'tibdilar va ko'ngulda shu narsa aylandiki, go'yo bu tikanlar ozoridan nazm ahli guldastamandlari, ya'ni ijod gulshanidan gul saralab, muxlislarga go'zal, dilkash

guldasta taqdim etuvchi qalam ahli bu gulshandan kishi ko‘nglini yashnatuvchi, junbushga keltiruvchi guldasta saralay olmay o‘tib ketibdilar.

Shoir tili bilan aytganda, tilimizdagi ohori to‘kilmagan so‘zlar badiiy adabiyotga olib kirlmagan, ularning qo‘llanilish o‘rinlari belgilanmagan. Shu sabab bu tilda ijod qilish, qalam tebratib, san’at namunasi yaratish tab’ ahli uchun mushkulot tug‘diradi. Ana shu qiyinchiliklar sabab ijod ahli xazinadan bebahra qolgan.

Hazrat A.Navoiy tomonidan bildirilgan bu mulohazalar M.Koshg‘ariydan keyin turkiy tilga berilgan ikkinchi genial ta’rif edi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning ilmiy, badiiy jihatdan o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratilib, tilimiz martabasi belgilanganligi Navoiy dahosi tomonidan xalqqa in’om etilgan beqiyos tuhfa, o‘zligini anglash yo‘lidagi dadil qadam edi. Asarda bildirilgan fikr-mulohaza, ya’ni tahsin, alqov ona tilimizga atalgan madhiya bo‘lib, hozirga qadar har bir millat farzandini o‘z tili sir-u asroridan voqif etish barobarida uning ko‘nglini junbushga keltiradi, tiliga bo‘lgan mehr-muhabbatini orttiradi. Shoir tili bilan aytganda, “Turk ulusi fasihlarig‘a ulug‘ haq sobit qilindiki, ular o‘z alfoz va iboratlari haqiqati va o‘z til va lug‘atlari kayfiyatidin voqif bo‘ldilar va forsiygo‘ylarning iborat va alfoz bobida ta’n qilur sarzanishidin qutuldilar”.

Xalqimiz “Erga bersang oshingni, Erlar silar boshingni” degan maqolni bejizga tarix zarvaraqlariga muhrlamagan. Zero, har bir qilingan yaxshi ish, ezgu amal o‘zining natijasini, albatta, beradi. Hazrat Mir Alisher Navoiyning o‘z ona tili va adabiyoti rivoji yo‘lida chekkan zahmatlari o‘zining totli mevasini berib kelmoqda. Har yili fevral oyida “Navoiyxonlik” kechalarining tashkil qilinayotganligi er xalqning mard o‘g‘loniga chuqur ehtiromi namunasidir.

Til – millatning borligini ko‘rsatib turuvchi, millatni millat sifatida shakllantiruvchi asosiy birlik. Odatda, tilning taqdirini ijtimoiy hayot bilan bog‘lashadi, ya’ni jamiyat bo‘lsagina u mavjud bo‘ladi, chunki til ijtimoiy

xarakterga ega deb talqin qilishadi. Chunonchi, millatning o'ziga xosligini namoyon qiluvchi milliy urf-odatlar: milliy muomala-munosabat, milliy marosim, milliy yashash tarzi, bir so'z bilan aytganda milliy o'ziga xoslik til bag'rida umrguzaronlik qiladi. Shu bois millat saodati yo'lida jon fido etgan A.Fitrat «Rahbari najot» asarida tilning yosh avlod hayot tarziga ta'siri masalasiga e'tibor qaratib yozgan edi: «*Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar*». Chindan ham ona tili bilan birga insonda o'zbekona milliy ruh, milliy muomala madaniyati, milliy ong, qisqasi, milliy o'zlik shakllanadi.

Milliy tilimiz milliy nutqimiz, milliy ma'naviyatimiz va mafkuramizning tarkibiy qismi sifatida yuksalib boradi.

Har qaysi millat mavjudligining, rivojlanayotganligining asosiy belgisi bo'lib faqatgina bir til xizmat qiladi, bu ham bo'lsa so'zlovchining o'z ona tilisidir. Xalqlarning o'z madaniyatini bir tilda rivojlantirishga intilishi tabiiy hol bo'lib, har bir madaniyatni faqat milliy til asosida erkin, mustaqil va tez sur'atlar bilan gullab-yashnatish mumkin – natijada o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan mustaqil haqiqiy milliy madaniyatli xalq jahon miqyosida juda katta obro'ga ega bo'ladi.

O'ZBEK TILI VA UNING TERMINOLOGIYASI

Ro'zimurodova Dilsora Dilmurod qizi

**BuxDUning Pedagogika instituti tabiiy va
gumanitar fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tili terminologiyasining tilshunoslikning bir bo'limi sifatida shakllanish tarixi atroflicha yoritilgan. O'zbek tili leksikasi va terminologiyasining rivojlanishi va boyishi borasidagi qarashlar tahlilga olingan.

Kalit so'zlar: til, tilshunoslik, leksika, termin, terminologiya, professionalizm

Til – murakkab muloqot tizimi yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish

qobiliyati, tilshunoslikning asosiy o'rganish obyekti. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek: "Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tili" so'z va iboralar, atamalar va leksik boylklarni o'rganish hamda insoniy meros sifatida ilmiy tahlilini olib borish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. O'zbek tili leksikasining ajralmas qismi sifatida tilshunoslikning terminologiya sohasi umumxalq leksikasi bilan birga rivojlanadi boyiydi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshidan kechiradi.

Terminologiya – leksikaning bir sohasi, muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog'ining san'at, madaniyat, sport, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlar majmuyi, tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasi.

Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan definatsiyaga ega bo'lgan va asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi.

A.Reformatskiy terminga ta'rif berar ekan, "...terminlar – bu maxsus so'zlardir" degan xulosaga keladi. A.V. Kalinin muayyan fanlar va kasbkorlikda ishlatiladigan so'zlarni "maxsus leksika" deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi: terminlar va professionalizmlar. U o'z fikrini davom ettirib, "Termin va professionalizmlar orasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, san'at, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasi, nomidir, professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilda tarqalgan yarim rasmiy so'zdir", deydi.

Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan, chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash tushunchaning mazmun mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi.

Jahon tilshunosligida B.N.Golovin, A.V.Kalinin, V.P.Danilenko, L.I.Bojno,

VA ILMIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

D.S.Lotte, rus tilshunosligida V.V.Vinogradov kabi olimlar tomonidan terminologiya sohasi yetarlicha tadqiq qilingan.

O'zbek tili terminologiyasi ma'lum taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. O'zbek tili terminologiyasi sohasidagi ishlarni o'tgan asrning 50-yillarida O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi huzuridagi Til va terminologiya komiteti (1931-1937-yillarda faoliyat ko'rsatgan) boshqargan, keyinchalik O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti qarshisidagi Terminologiya bo'limi (1964-yildan) olib bordi. 1977-yilda Renat Doniyorovning "O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari" kitobi, 1981-yilda bir guruh O'zFA Til va adabiyot institutining tilshunoslari tomonidan "O'zbek tili leksikologiyasi" nomli yirik ish maydonga keldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qo'mitasi 1988-yildan 2004-yilgacha o'zbek tili terminologiyasini tartibga solish va takomillashtirish bilan shug'ullanib keldi (2004-yil yanvar oyidan mazkur qo'mita faoliyati to'xtatildi).

O'zbek tili terminologiyasini atroflicha o'rganishda R.Doniyorov, D.X.Bazarova, K.Sharipova, U.Tursunov, H.Dadaboyev, K.M.Musayev kabi olimlarning o'rni beqiyos. K.M.Musayevning O'zbek terminologiyasi haqidagi fikrlari bugungi tilshunosligimiz uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. U terminologiyani tilning leksikasi sifatida go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo'lgan turli me'morlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o'ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi.

Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, Terminologiyada bular salbiy tushuncha hisoblanadi. Masalan, yarimo'tkazgich

termini. Uning o'rnida chalo'tkazgich, nimo'tkazgich so'zlarini qo'llab bo'lmaydi, chunki bu o'qish, o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiyaning rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Terminologiyaning rivojlanishi va boyish yo'llari har xil. O'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omili uning tartibga solinganligi va muntazamligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мусаев К.М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. – Т., 1986.
2. Ne'mat Hakamov. Til va terminologiya. – Toshkent. O'qituvchi, 1995.

ПРОИСХОЖДЕНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Жабборова Гулчехра Жобир кизи
студентка 1-курса Педагогического

института Бухарского государственного университета

Аннотация: В этой статье подробно рассказывается о происхождении и развитии узбекского языка. В нем представлена информация о древнем использовании узбекского языка.

Ключевые слова: Тюркские племена, тюркские титулы, государство Караханидов, сугдийско-мугские документы, история узбекского языка.

Узбекский язык представляет собой результат взаимодействия тюркских языков с языками хорезмийцев, согдийцев, бактрийцев, саков. Становление узбекского языка было сложным многоплановым и заняло многие столетия. Тюркские имена и титулы встречаются в бактрийских

документах VII-VIII вв: каган, тапаглиг элтабир, тархан, тудун, имена: Кутлуг Тапаглиг Билга, Кера-тонги, Тонгаспар, тюркские этнические названия: халач, тюрк. В этот период тюрки составили часть оседлого населения древней Бактрии. Среди согдийских-мугских документов начала VIII века на территории Согды был обнаружен документ на тюркском языке, написанный руническим алфавитом. На Ферганской долине обнаружено более 20 рунических надписей на древнетюркском языке, что говорит о налчии у местного тюркского населения в VII-VIII веках своей письменной традиции. Выдающийся ученый и этнограф Бируни(973-1048) в своих произведениях приводит названия тюркских месяцев и тюркских лечебных трав, которых использовало тюркское население Хорезма. Бируни в своем произведении «Памятники минувших поколений», написанном в Хорезме около 1000-года приводит тюркские названия годов по животному циклу которые использовало тюркское население Хорезма: сичкан, од, барс, тушкан, луй, илан, юнт, куй, пичин, тагигу, тунгуз. Процесс начала формирования этноса, впоследствии ставшего основой узбекской нации, особенно активизировался в XI-XII веках, когда Средняя Азия была завоевана объединением тюркских племен, возглавляемым династией Караханидов. К X веку в государстве Караханидов функционировал литературный язык, продолживший традиции древнетюркских письменных текстов. Официальный караханидский язык X в. Основывался на грамматической системе древних карлукских диалектов. Сам представитель полукочевых узбеков Шейбаний-хан(1451-1510) писал стихи на среднеазиатском тюркском языке. Научный интерес истории узбекского языка возник еще в XIX веке среди европейских и российских ученых-востоковедов. Об истории узбекского языка писали А.Вамбери, В.Бартольд, Ш.Лапин и др. Среди известных ученых лингвистов об истории

узбекского языка писали Е.Толиванов, У.Турсунов, А.Мухторов, Ш.Рахматуллаев и др.

Использованные литературы:

1. Аскарлов А.И. История происхождения узбекского народа.1996.
2. Национальная энциклопедия Узбекистана. 2000-2005.

КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД К ОБРАЗОВАНИЮ ТРЕБОВАНИЕ СОВРЕМЕННОСТИ

Шодиева Дилором Юнусовна

Преподаватель кафедры Узбекского и русского языков
Педагогического института Бухарского государственного университета

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы о компетентностном подходе вузовскому образованию. Так как одним из основных требований современного профессионального образования является наличие профессионально-языковые компетенции будущих специалистов, в рамках статьи производится обзор существующих проблем в изучении русского языка в медицинском вузе и предлагаются пути их решения на основе языкового портфеля основанного на Европейский языковой портфель.

Ключевые слова: компетенция, Европейский языковой портфель, портфолио, профессионально-языковая компетенция, модернизация образования, медицинский работник, здравоохранения, специалист, качество образования, эффективные пути, лингводидактика, технологии обучения.

Социально-экономические изменения в современной жизни привели к необходимости модернизации многих социальных институтов, и в первую очередь системы образования, которая напрямую связана с экономическими процессами через подготовку производительных сил. Имеется много фактов, определяющих силу и мощь страны. Одним из главных является воспитание высокодуховного, физически здорового, гармонично развитого поколения, и,

конечно же, одним из основных требований современного профессионального образования является наличие профессионально-языковой компетентности будущих специалистов. Ибо будущее народа и страны во многом зависит от подрастающего поколения. В ходе последовательной реализации Национальной программы по подготовке кадров создана эффективная система по воспитанию молодого поколения духовно зрелыми личностями, обладающими высоким интеллектуальным потенциалом, современными знаниями и мышлением.

Необходимость решения этой проблемы отражена в нормативных документах, касающихся сферы высшего профессионального образования, Государственном образовательном стандарте высшего профессионального образования, – в которых говорится, что для достижения современного уровня подготовки специалиста необходимо изменить основную цель преподавания, где на первый план выступает «не сумма знаний, умений и навыков, а активный запас ключевых компетенций (одной из которых является профессионально-языковая компетенция), обеспечивающих самореализацию и успешную профессиональную адаптацию».

В настоящее время здравоохранение и общество испытывают дефицит в специалистах, владеющих иностранным языком, способных проводить профессионально ориентированную речемыслительную деятельность в профессиональной среде, осваивать новейшие достижения зарубежной медицины, участвовать в совместных научных и практических исследованиях с зарубежными партнерами. Актуальной задачей современности является подготовка высококвалифицированных кадров в каждой отрасли жизни. Так как язык является основным орудием обмена информации в обществе, в ряду из основных задач высших учебных заведений, а так же в медицинских вузах, требуется подготовка будущих врачей не только по специальности, но и стоит обратить должное внимание

на подготовку профессионально-языковой компетентности будущих врачей. Особенно это касается компетентности студентов по русскому языку (узбекским и другими языками обучения) в медицинских вузах, решение этой проблемы является социально-экономической важностью.

Новое время, новые условия диктуют нам незамедлительного и коренного пересмотра, как общей методологии, так и конкретных методов и приемов преподавания иностранных языков, в том числе и русского языка. Эти новые условия гарантируют стремительное вхождение республики в мировое сообщество, создают благоприятные условия для развития экономики нашего государства.

Новые цели и потребности в системе международного и отечественного высшего профессионального образования заключаются, прежде всего, в качественной подготовке конкурентоспособных, компетентных и мобильных специалистов, способных находить решения профессиональных проблем в меняющихся условиях общественного развития в эпоху глобализации. Эти цели обусловлены политическими, экономическими и социальными факторами, глобальной интеграцией, растущей конкуренцией на рынке труда в условиях интенсивной трудовой миграции и академической мобильности.

Особое внимание перечисленным выше компетенциям специалистов уделяется и в нормативных документах международных организаций ЮНЕСКО, Совета Европы и Европейского Союза и в Пяти приоритетных стратегиях развития Республики Узбекистана.

Развитие качества подготовки профессионально ориентированной языковой компетенции студентов медицинского направления основывается на инновационных образовательных технологиях, которые отвечают международным стандартам изучения и владения иностранных языков.

Соответственно, система образования нашего государства находит пути эффективных технологий обучения иностранным языкам, в том числе и русского языка в иноязычной аудитории, где каждый преподаватель старается интегрировать потенциал.

Русский язык является обязательной учебной дисциплиной в общеобразовательной и высшей школе, которая имеет долгую историю. Но надо признать, что преподавание русского языка в нашей стране переживает ныне, как все остальные сферы социальной жизни, период коренной перестройки. Это переоценка ценностей, пересмотр целей, задач, методов, материалов и т.п.

В создавшихся условиях для удовлетворения социальных потребностей общества необходимо определить оптимальные позиции обучения русскому языку, где основным принципом выбираемого направления отмечается изучение языка с функциональной точки зрения, в плане использования их в разных сферах жизни общества: в науке, технике, медицине, экономике, торговле, туризме, культуре т.п.

Высшее учебное заведение формирует социально-ответственную личность и профессионально подготовленную интеллигенцию, интеллектуальную элиту общества. Экономические и социальные условия мирового общественного развития в эпоху глобализации определяют новые задачи и потребности в системе высшего образования, а именно, необходимость подготовки компетентных, коммуникабельных и конкурентоспособных специалистов, не только обладающих глубокими профессиональными знаниями и умениями, но и готовых к решению профессиональных задач в условиях многоязычной научно-образовательной среде. В связи с этим возрастает спрос на повышения качества преподавания русского языка и на высокую степень овладения студентами

профессионально-языковыми компетенциями, что определяет тему нашей научной статьи.

Bunda Bodomgul joniga qasd qilganini eshitgan Risolat buvining so'zlari, uning oxirgi misralarida til va madaniyat birligi bo'lgan ostona so'zi ishlatilgan. "Qoqilganning ostonasidan o'tadi". Ostona so'zining birikmasi bo'lgan qoqilmoq so'zida matniy ma'no quyidagicha mazmunga ega: qoqilgan – yurib ketayotganda biror narsaga qoqilib yiqilmoq, umuman yiqilgan, ammo, matniy ma'nosi xato qilgan, tuzatib bo'lmaydigan xato ma'nosida ishlatilgan. Ya'ni oilali bo'la turib, boshqalar bilan don olishgan, shuningdek, ostona so'zi xonadon ma'nosini anglatib kelgan. Shu xonadonga xiyonat qildi. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, qoqilgan so'zining ma'nosi xiyonat emas. Asar mazmunidan kelib chiqqan holda bu xato hisoblanadi, ammo kechirilmas xato. Umuman olganda, ostona mazkur matnda quyidagi ma'noga ega: xonadonning ostonasi, xonadon, oila yashash joyi, Vatan. Matniy ma'nosi: o'ylamasdan, kechirib bo'lmas, xato qilganning uyiga fojea o'lim keladi. Bu xato faqatgina o'zining xatosi emas, yagona farzandi, o'g'lining boshiga og'ir kunlarni soldi.

Shu asardan olingan keyingi parcha millatimizning asl mohiyatini, undagi odamiylikni zangori oynadek ochib bergan. Uning yetakchi mavzusi kechirimli bo'lish (Islom dinida hatto Yaratgan ham kechiruvchidir).

“Kampir endi uning muzdek sovib qolgan peshonasiga lab tegizdi. Payvasta qoshlarini siladi. Keyin qaltirab turgan barmoqlari bilan uning betiga kafan uchini yopdi:

– Kapalak kiygan keladi, kafan kiygan ketadi, - deya pichirladi kampir.

– Kapalak kiyib kelganding, bolam. Endi kafan kiyib ketyapsan. Asli bu kafan menga atalgan edi. Nima qilay, bu jon o'lgur chiqavermasa. Gunohlaringni gardanimga oldim, bolam. Kafanimni senga berdim. Pokiza tanga atalgan kafanimni berdim. Tinch yot, bolam. Orqangdan hech kim tosh otmaydi. Biron og'iz yomon gap aytmaydi. Ko'zim tirik ekan, seni yomonotliq qilmayman. Tong saharlarda tilovat qilib gunohlaringni sorab olaman. Bolam, meni qarg'ama. Mendan rozi bo'lib ket. Ravshanbekkinamning jasadi topilsa, yonginangga yotqizaman. Birga bo'lasizlar”.

Kichkina bir matnda qator lingvomadaniy so'z va so'z birikmalari ishlatilgan. Lingvomadaniy birliklarni tahlil qilishda ikki yo'nalish asosiy hisoblanadi. Birinchisi, lingvistik tahlil aynan leksik, ikkinchisi, madaniyat nuqtayi nazaridan tahlildir. Matnda quyidagi so'z birikmalari ishtirok etgan: Peshonasiga lab tegizdi, payvasta qoshlar, kapalak kiygan, kafan kiygan, “Kapolak kiygan keladi, kafan kiygan ketadi”, qandoq qilay, jon o'lgur chiqavermasa, gunohlaringni gardanimga (bo'yninga) oldim, hur g'ilmonlarga qo'shilib ket, tosh otmoq, ko'zim tirik. Shuningdek, lab tegizdi so'z birikmasi aynan shu matnda, peshonasidan o'pdi ma'nosini ham anglatadi.

Lab – barcha nutq uslublarida ishlatiladigan umumnutq so'zi. Ammo, kelinining kechirib bo'lmas gunohlarini eslab, kampir faqatgina lab tegizdi, lekin, o'pmadi. Shunga qaramasdan u kelinini kechirdi. Shu bois mayitaning payvasta qoshlarini siladi. Payvasta forscha - doimiy, uzluksiz; birikkan, qo'shilgan; o'zaro

bog‘langan, tutashgan. [2.201b.] Matndagi keying jumla ham Ravshanbek onasining nutqiga doir bo‘lib, xalq maqolidan olingan. “Kapalak kiygan keladi, kafan kiygan ketadi” ya’ni, inson kapalakdek pokiza va beg‘ubor holda dunyoga keladi, lekin bu dunyo tashvishlari uni shu holda ketishiga to‘sqinlik qiladi (kiyimsiz dunyoga keladi, ammo, kafan kiyib ketadi). Shuni ham e’tiborga olish kerakki, kafan faqatgina islom diniga xos bo‘lib, uning muhim marosim qismi hisoblanadi va kafansiz qabrga qo‘yish mumkin emas. Hattoki, juda og‘ir, ilojsiz holatda ham bu udumga rioya qilishadi.

Yana shuni ham e’tiborga olish lozimki, keltirilgan turg‘un birikma kampirning kelini Bodomgulga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, uning shu xonadon ostonasiga qadam qo‘ygan vaqtidagi tashqi ko‘rinishi farishta kapalakdek, farishta qiz bo‘lib keldi-yu, kafan kiyib ketdi.

Xulosa ornida shuni ta’kidlash joizki, yuqorida tahlil qilingan “ostona” lingvomadaniy birligi tarkibidan o‘rin olgan birliklar ikki tomonlama ilmiy tahlil qilinganda ularning lingvistik (xususan leksik) yo‘nalishida lug‘atlarda aks ettirilmagan ichki ma’no-mazmun ifodalashi nazariy asoslarimiz uchun amaliy dalillar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Л.Г.Бабенко, Ю.В.Казарин “Лингвистический анализ в художественного текста”. – Москва. Издательство – «Флинта» 2003, 30-б.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-tom. – Toshkent, 2002. 201 b.
3. S.Ahmad “Jimjitlik”. – Toshkent, 1989. 146 b.

4-SHO'BA: ONA TILI METODIKASI RIVOJI – XALQ TA'LIMI TIZIMI ISLOHIDIR

MAKTABDA ONA TILI TA'LIMI: TALAB VA EHTIYOJ

Dilorom Yuldasheva

BuxDU professori

Odatda, ehtiyoj insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruratini ifodalaydi. Demak, ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruratini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiy hisoblanadi. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil ijtimoiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi [5].

Hozirda ta'lim oluvchining maktabda o'rgatilishi mo'ljallangan ona tiliga bo'lgan ehtiyoji nimada? Grammatik bilimlarga yoki ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirishga imkon beradigan testlarni baholi qudrat uddalashgami? Bularni o'quvchining maktabda ona tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoji deb bo'ladimi?

O'rta umumta'limda ona tili ta'limi talabi ta'lim oluvchi ehtiyojlariga mosmi? Bu savolga ijobiy javob qaytara olamiz. Unda muammo nimada? Muammo *ta'lim beruvchining ona tili ta'limi talabi va ta'lim oluvchi ehtiyojini to'la anglab yetmasligida*, bizningcha.

Bugun o'rta umumta'limda, o'rta maxsus ta'limda ona tilidan dars berayotgan har bir o'qituvchi: "Nega ta'limning barcha tur va bosqichlarida ona tilini o'qitamiz?" degan savolga ijtimoiy buyurtma talabidan kelib chiqib javob izlashi zarur. Zero, bugungi kun ta'lim mazmuniga muvofiq o'quvchiga ta'lim jarayonida nazariy bilim asoslaridan foydalanish ijodiy faoliyat ko'rsatish, ya'ni ijodiy amaliy faoliyat uchungina zarur bo'ladi, xolos. Tom ma'noda, bugungi kun maktab, litsey hamda kasb-hunar kolleji ta'lim-tarbiyasini ko'rgan o'quvchi nazariy bilimlar

sohibi emas, balki bilimlardan ijodiy foydalana oladigan ijodkor, tadbirkor bo‘lib yetishishi zarurligi nazarda tutilmoqda. Ona tili ta‘limi maqsadi uning mazmunini, mazmun esa ta‘lim usulini, tabiiyki, usul ta‘lim vositalarini, o‘z navbatida, ta‘lim vositalari o‘qituvchi~o‘quvchi munosabatlarini taqozo etadi.

Xalqimizda: “Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lur”, degan maqol bor. Barcha zamonlarda ham o‘qituvchining ish quroli, asosan, darsliklar bo‘lib kelgan. Bugun o‘quvchilarga ona tilini o‘qitish matematika ta‘limidan ko‘ra og‘irroq bo‘lyapti. Nega? Sababki, ona tili o‘qituvchisining “ish quroli” – darsliklar talab darajasida o‘zini oqlolmayapti. Ayniqsa, o‘rta umumta‘lim maktablari hamda o‘rta maxsus ta‘limning ona tili darsliklarida aynan bir mavzuning goh an‘anaviy, goh shakl-vazifaviy, goh tavsifiy talqinlariga murojaat etilgan holatda turlicha ifodalanishi, boz ustiga, bunday “kemtiklik”larning oliy ta‘limga kirish testlariga ham ko‘chishi hafsalani pir etadi. Zero, respublikamizda amalda bo‘lgan bir necha tilshunoslik maktablarining ba‘zi nazariy qarashlari bir-birini rad etishini yaxshi bilamiz [3].

Fikrimizni dalillash uchun faktlarga murojaat etaylik: Orta maxsus ta‘limning 2-bosqichi hamon “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi[2]dan foydalanmoqda. Unda “**Egalik shakllarining uslubiy xususiyatlari**” mavzusi berilgan. Mavzu tarkibidagi qoidada: “*Otlarning uch shaxsdan biriga mansub ekanligini bildiruvchi shakllar tizimi egalik qo‘shimchalari sanaladi*”, deyiladi. Keyingi tadqiqotlarda egalik, kelishik kategoriyalari faqatgina otga emas, balki ismlar(ot, sifat, son, taqlid, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlar)ga tegishliligi aniqlandi va amaldagi darslik[3,158], qo‘llanmalarda bunga yetarlicha izoh berildi-ku?!

Yoki “**Fe‘l va uning uslubiy xususiyatlari**” mavzusini sharhlovchi matnda: “Fe‘l qanday harakat-holatni ifodalashiga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linadi.

1. **Yumush fe‘llari:** *ishladi, mehnat qildi, ter to‘kdi* va b...
2. **Tafakkur fe‘llari:** *o‘ylaydi, o‘qidi, kashf qildi* kabi...
3. **Sezgi fe‘llari:** *sezdi, his qildi*...

4. **Ruhiy holat fe'llari:** *kuldi, xursand bo'ldi, qayg'urdi, iztirob chekdi...*

5. **Nutq fe'llari:** *gapirdi, so'zladi, bayon qildi, ifoda qildi...*

6. **Ishora fe'llari:** *imo qildi, labini burdi, ko'zini qisdi...*

7. **Jismoniy holat fe'llari:** *og'ridi, isitma chiqdi, xastalandi...*

8. **Tabiiy holat fe'llari:** *eridi, muzladi, yetdi, uxladi...*

9. **Ko'rish fe'llari:** *qaradi, ko'rdi, boqdi, termuldi»* deyiladi.

6-sinf “Ona tili” darsligi[1]da: “Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga bo'linadi” deyilsa, oliy ta'lim darsligida esa fe'lning asosiy lug'aviy ma'no guruhlari (LMGlari):

1. **Harakat fe'llari:** *yurmoq, kezmoq, yo'rg'alamoq, chimchilamoq;*

2. **Nutq fe'llari:** *gapirmoq, so'zlamoq, aytmoq, demoq;*

3. **Holat fe'llari:** *eslamoq, unutmoq, shodlanmoq, zaiflashmoq;*

4. **Natijali faoliyat fe'llari:** *yasamoq, qurmoq, bunyod etmoq;*

5. **Tafakkur fe'llari:** *o'ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq;*

6. **Munosabat fe'llari:** *suymoq, yaxshi ko'rmoq, parvona bo'lmoq kabilardir,* deyiladi.

(Balki tasniflarning har xilligi fan uchun foydalidir, ammo o'quvchi uchun emas, bizningcha. Sababki, biz jamiyat uchun barchani tilshunos qilib tayyorlab bermaymiz va bunga ehtiyoj ham yo'q.) Mazkur darslikda “**Mayl qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari**” mavzusi tarkibidagi qoidada eskicha yondashuvlar saqlab qolingani: “**So'zlovchining fe'ldan anglashilgan harakat-holatiga munosabatini bildirgan fe'l shakllariga mayl shakllari, shunday shakllar tizimiga esa mayl kategoriyasi deyiladi**”. Qiziq, biz o'rta maktab ona tili darsliklarida o'quvchiga “Kesim–gapning markazi, fe'l kesim ham, ot kesim ham kesimlik shakllari bilan shakllangan bo'ladi”, dedik. Kesimlik kategoriyasi tarkibi, odatda, zamon, shaxs/son, mayl/modallikdan iboratligini aytdik. Demak, bundan

shunday xulosa kelib chiqadi: «Kesimlik kategoriyasi tarkibi hisoblangan zamon, shaxs/son, mayl/modallik kesim vazifasida keluvchi har qanday soʻzga tegishlidir. Oʻzbek tilida kesim vazifasida eng koʻp qoʻllanila oladigan soʻz turkumi feʼl boʻlib, kesimlik kategoriyasi shakllarini boshqa mustaqil soʻz turkumlaridan koʻra feʼllar koʻproq oʻzida ifodalagani uchun kesimlik kategoriyasi shakllari feʼlning munosabat shakllari deb yuritilmoqda».

“Men oʻqituvchiman.; Qovun shirin ekan.; Yugurish musobaqasida men birinchiman.; Bolani xafa qilgan kishi-shu” kabilarda ot kesimlar ifodalangan. Agar yuqoridagi qoidaga tayansak, bu kabi gaplarning shakllangan kesimini qanday izohlaymiz?! Ifodalangan ot kesimlarning barchasi xabar maylida turibdi-ku?! Darslikda shaxs-son, zamon kategoriyalari ham feʼl soʻz turkumining «oyogʻiga bogʻlab qoʻyilgan». Shaxs/son, zamon kategoriyalari kesim vazifasida kela oladigan istalgan atov birligiga xosligini darslik mualliflari oʻrinsiz inobatga olishmagan va qator grammatik chalkashliklarning kelib chiqishiga sababchi boʻlishgan.

Unutmaylikki, davrimiz uchun har qanday taʼlim jarayoni emas, balki oʻquvchida ijodiy, mustaqil faoliyat koʻrsatish koʻnikmasini rivojlantirishga qaratilgan oʻquv-biluv jarayonigina ahamiyatlidir. Albatta, bu borada oilaning ham alohida oʻrni bor. Ota-onalarimiz maktabda, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida tahsil olayotgan farzandlarining ijodiy tafakkurini oʻstirishga xizmat qiluvchi “Axborot banki” – turli xarakterdagi lugʻatlar, qomuslar, maʼlumotnomalar kabilar bilan taʼminlashga, ulardan oʻrinli va samarali foydalanishlariga koʻmaklashishlari oʻta muhim.

Yuqorida: “Ehtiyoj – insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga boʻlgan zaruriyat” ekanligini taʼkidladik. Demak, oʻrta umumtaʼlimda ham, oʻrta maxsus taʼlim tizimida ham ona tili taʼlimi taʼlim oluvchida ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat boʻlmogʻi

zarur. O'quvchining ona tili ta'limiga bo'lgan ehtiyoji ham ijtimoiy buyurtmaning ana shu talabiga hamohangdir. Zero, til tafakkurning moddiylashuvidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. –T.:Tasvir, 2019.
2. Nurmonov A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylarlarning 2-bosqich talabalari uchun darslik). –T.: Ilm-ziyo, 2018.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdon, 2021.–555 b.
4. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ehtiyoj>.

BAËN ONA TILINI TAËLIMINING BOSH MAQSADI BILAN XAMOËANG

Зулфия Нозимовна Тўева

БухДУ тадқиқотчиси

Она тили таълими фундаментализм ва академизм йўналишида билимдон ижрочи шахсни тарбиялаш тизимидан прагматик йўналишда тадбиркор ва ижодий тафаккур соҳиби бўлган шахсни тарбиялаш тизимига ўтди. Она тили таълимининг истиклол шарофати билан янгиланган мақсади, мазмуни ҳар бир ўқув соатида ўқувчиларга қандай билимларни ва қанақа малакаю кўникмаларни сингдиришни талаб қилмоқда? Дидактика тарихидан маълумки, билим, кўникма, малака ҳамда ижодкорлик ҳар доим бир-бирини тақозо қиладиган ҳодисалардир [3]. Шу ўринда биринчи Президентимизнинг: «Албатта, билим керак. Аммо билим ўз йўлига. Мустақил фикрлаш ҳам катта бойликдир» деган сўзларини эслаш кифоядир. Демак, бугунги кундаги она тили таълими мазмуни сирасида ўқувчиларга тақдим этилаётган

билимлар уларнинг ижтимоий эҳтиёжларини қондира олиши, уларни ижодкорликка, бунёдкорликка ундай олиши лозим.

Ўқувчининг эгаллаган билими, кўникмаю малакаси уни қайдаражада ижодкорликка, бунёдкорликка ундай олишини кўрсатувчи таълимий меъёрлардан бири баён ёздиришдир. Баён умумий ўрта таълим тизимида ҳам оғзаки, ҳам ёзма нутқни ўстириш воситаси сифатида узоқ йиллардан буён муҳим ўрин тутишини биламиз. У ижодий ишнинг асосий турларидан бири бўлиб, муайян матн ёки матндан олинган парча мазмунини ўқувчи томонидан «ўз сўзи», «ўзига хос услуб» асосида қайта баён этиш ёки бошланиши берилган матнни ўша услуб, ўша мазмунда давом эттира олиш маҳоратидир. Зеро, умумий ўрта таълимнинг ДТС талабларига кўра тузилган ўқув дастурида ижодий ишлар учун 5-синфда 18 соат, 6-синфда 18 соат, 7-синфда 12 соат, 8-синфда 16 соат, 9-синфда 12 соат қўшимча вақт ажратилган [2].

Баён ўқитувчининг назорати нуқтаи назаридан таълимий ва текширув баёнларга бўлинади. Таълимий баённи оғзаки шаклда ҳам, ёзма шаклда ҳам ўтказиш мумкин. Текширув баён эса (баён матни ўқитувчи томонидан ўқиб берилгач, мазмун ўқувчилар томонидан ўзлаштирилиб оғзаки сўзлаб берилса-да) ёзма шаклда ўтказилади. Баён матнини танлашнинг ҳам ўзига хос жиҳатлари бўлиб, унда матн танлашда ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари ва билим савиялари ҳисобга олинади, айниқса, матннинг тарбиявий жиҳатига, давр талабларига қайдаражада мослигига алоҳида эътибор берилади.

Баёнлар ўтказилиш мақсади ва тартибига қараб бир неча турларга бўлинади. Чунончи, матнга яқинлаштириб баён ёзиш, қўшимча топшириқли баён, сайланма баён, ижодий баён, ихчам баён кабилар шулар жумласидандир [4]. Матнга яқинлаштириб баён ёзиш ўқувчидан диққат-эътиборни, ўзаро яқин ҳодисаларни жамлай билишни, масаланинг туб

моҳиятини англай олишни тақозо этса, кўшимча топшириқли баёнда матн мазмунини тўғри англай олиш, уни белгиланган меъёрда ёритиб бериш каби талаблардан ташқари, масалан, ўтилган муайян грамматик қонун-қоида асосида олинган билимларнинг прагматикасига ҳам эътибор қаратилади. Сайланма баён ёзишда ўқувчиларга ижодий эркинлик берилади: ўқувчиларга бир неча қисмли матн тавсия этилади ва уларга матннинг исталган бир қисми юзасидан баён ёзиш топширилади. Бу ҳолат ўқувчида умумийликдан хусусийликни ажрата олиш сезгирлигини тарбиялайди.

Ихчам баён ёзишнинг аҳамияти шундаки, ўқувчининг ёш хусусиятига, психологиясига, шунингдек, менталитетга, миллий мафкурага мос равишда танланган матн мазмунини умумлаштириб асосий ғояни лўнда ифодалаш ўқувчини фаолликка, мустақил фикрлашга ундайди. Шунингдек, улар ўқувчиларда сайланма баёнлардаги каби умумийликдан хусусийликни ажрата олиш малакасини шакллантиради. Баён турлари ичида ижодий баён она тили таълимининг бош мақсади билан ҳамоҳангдир, десак муболаға бўлмайди. Бундай баёнда ўқувчидан ё матн мазмунига ўз муносабатини билдириш, ё бошланиши берилган матнни мазмунга мос равишда давом эттириш талаб қилинади. Бундан ташқари, ижодий баёнлар *берилган ҳажман кичик матн мазмунини кенгайтириб баён этиш, воқеабанд шеърлар мазмунини ҳикоя шаклида ёритиш, диалогларни умумлаштириб ёзиш, шахсини ўзгартириб ёзиш* каби шаклларда ҳам ўтказилиши мумкин. Масалан, 6-синф ўқувчиларида турдош от ва унинг маъновий гуруҳлари тўғрисида тасаввур пайдо қилинган, уларга таълимий баён сифатида қуйидаги матнни ўқиб бериш ва матн мазмунига ўз муносабатини билдириш талабини қўйиш ўринлидир:

Сув - олтиндан азиз. Сув-зар, сувчи-заргар. Сув келди – нур келди. Ой сулуви – нур, сой сулуви-сув. Сувнинг қатраси – офтобнинг зарраси. Сув – ёруғлик. Эл ҳаёти ер билан, ер ҳаёти сув билан. Ариқдан сув узилмаса,

саватдан нон аримас. Сув торалар тупроққа, оро берар япроққа. Сув йил оқар, оламга гул тоқар. Томчи сувда тол кўкарар. Сувсиз ерда тол бўлмас, қовоқарида бол бўлмас. Сувсиз-ер мазор, сувли ер –гулзор. Сувсиз ер-жонсиз жасад. Сувсиз ерга қуш қўнмас. Ташнанинг тушига сув кирар. Сувни қум тагидан қидир. Қум бор жойда сув бор, сув бор жойда жон бор. Сув тиласанг, Сулаймондан тила. Сувга – ариқ, йўлга – чориқ. Экин эжмоқ осон, сув келтирмоқ қайин. Сув келтирар мард киши, экин экар ҳар киши. Сув келтирган – мард, сув келтирмаган – номард. Сув қадрини қудуқ қазиган билади. Сув ичсанг, қудуқ қазиганни унутма. Сув берган – савоб, ўт берган – кабоб. Сув ичаётганга илон ҳам тегмас. Сув онаси – булоқ, сўз онаси – қулоқ. Сувни ич, чашмани булғатма. Сув ичадиган қудуғингга тупурма. Қудуққа тупурма, қайтиб ичаринг бор. Сувни кўрмай, этик ечма.

Шу матн билан боғлиқ ҳолатда ўқувчиларда атоқли от ва унинг маъновий гуруҳлари тўғрисида тасаввур пайдо қилинган, сув билан боғлиқ бўлган қуйидаги гидронимларни тавсия этиш ва ҳар бир қаторни давом эттириш топшириғини бериш ҳам мумкин: (Шунда ўтказилган ижодий баён матни ва топшириғи ўқув дастуридаги кейинги мавзулар билан боғланади.)

а) дарё номлари: *Амударё, Сирдарё, Оқдарё, Чирчиқ дарёси, Зарафшон дарёси, Тўполондарё.....*

б) сув омборлари: *Каттақўрғон сув омбори, Чимқўрғон сув омбори, Пачкамар сув омбори.....*

в) канал номлари: *Катта Фарғона канали, Жанубий Мирзачўл канали, Аму-Бухоро канали, Аму-Занг канали*

г) сой номлари: *Оқтепасой, Кўксаройсой, Оҳаклисой, Оқсой, Қизилсой, Косонсой, Чодаксой, Исфайрамсой, Қуруқсой.....*

д) кўл номлари: *Денгизкўл, Тўдакўл, Чуқуркўл, Каттакўл, Мохонкўл, Шайтонкўл, Ақчакўл, Жармишкўл, Чуқуркўл, Девонкўл.....*

е) булоқ номлари: *Арашонбулоқ, Бешбулоқ, Оқбулоқ, Ойдинбулоқ, Шўрбулоқ, Қайнарбулоқ, Қўшбулоқ, Мингбулоқ.....*

Бизнингча, она тили дарс машғулотларида фойдаланиладиган баён турлари ҳамма вақт она тили таълимнинг бош мақсади руёбига боғланиши, умумий дарс жараёнидан «кўричак» шаклида ажралиб турмаслиги шарт. Яна айтиш зарурки, дарс – баён ўтказиш – жараёнида таълимнинг индуктив усуллари билан бирга дедуктив усуллари билан ҳам маҳорат билан фойдаланиш муҳимдир. Зеро, муҳокама ва муаммоли таълим усули ҳисобланган индуктив усуллар дедуктив усулларни рад этмайди, аксинча, индукция доимо дедукция билан мустаҳкам алоқада бўлади.

Хуллас, она тили таълими жараёнида ўқувчининг сўз бойлигини ошириш, сўзларнинг маъно нозикликлари, фарқ ва ўхшашликларини ҳис қилиш ва англаб етиш, беҳато талаффуз қилиш ва ёзиш, узилган фикрнинг давомини тиклаш каби қатор мантиқий операцияларни бажариш, нутқий тадбиркорликни тарбиялаш, нутқ вазиятини тўғри баҳолаш ва тил имкониятларидан унга мос равишда фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш ва малакасини ўстиришда баённинг ҳам ўзига хос ўрни бор.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. 2020 йил 7 август.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2020-2021-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja. 2020-yil 25-fevral. XTVning 52-son buyrug'i.
3. Коменский Я.А. Буюк дидактика. – Т.: Ўқитувчи, 1975.
4. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (OO'MTV tasdiqlagan darslik).– Buxoro: Durdona, 2021.–445 b.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATI TILINI O'RGANISH

Dildora Yunus qizi Yusupova

BuxDU doktoranti

Jahon tilshunosligining bir bo'lagi bo'lmish o'zbek tilshunosligi ham keyingi ellik yilda taraqqiyot bosqichiga chiqib olganligi e'tirofga loyiq. Tilshunoslikning yangi yutuqlarga erishishi, uning boshqa sohalar bilan integratsiyasi pragmatlingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, neyrolingvistika, gender tilshunoslik, lingvopersonologiya, lingvokulturologiya, lingvopoetika, narralingvistika kabi yangi-yangi fan va sohalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Hozirda mazkur sohalarga qiziqish kuchayganligi va shu yo'nalishlarda ham ko'zga ko'rinarli tadqiqotlarning amalga oshirilayotganligi mazkur ishlarning milliyligimiz zaminidan uzilmagan holda jadallashuvi, tabiiyki, yurtimizning milliy mustaqillikka ega bo'lishi bilan bog'liq, ya'ni erishilgan, erishilayotgan yutuqlar milliy istiqbolimiz mevalaridir. Zero, yurtimizda bugungi kun tartibiga qo'yilgan: "...Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash vazifasi"[1] ham tilshunoslikning barcha yo'nalishlarida davr ruhiga mos tadqiqotlar olib borish hamda turli amaliy tajribalar o'tkazishni taqozo etadi.

Til, uning ifodalanish shakllari va badiiy matnda til vositalarining tutgan o'rnini belgilash bilan bog'liq masalalar – amaliy tilshunoslikning asosiy obyekti va muammolaridan biri hisoblanadi hamda u nihoyatda mashaqqatli va ko'p qirrali jarayonlarni qamrab oladi. U kishilarning kommunikativ ehtiyojlari tufayli tildagi mavjud imkoniyatlarni o'zida aks ettiradi. Badiiy asar ijtimoiy taraqqiyotga bog'liq holda xalq hayotidagi har bir yangilikni, til lug'at tarkibidagi har bir o'zgarishni o'zida aks ettiruvchi vosita sifatida tilshunoslarning asosiy diqqat markazida turadi va hamisha tadqiqotchilarni qiziqtirib keladi. O'zbek tilshunosligining mustaqillik davridagi taraqqiyoti xalqimiz hayotidagi eng muhim hodisa bo'lib, uning boshqa fan sohalari qatori izchil rivojlanishini ta'minlab berdi. Zero, o'zbek tilshunosligi o'zining o'tgan qisqa davr ichidagi taraqqiyoti

davomida nazariy va amaliy jihatdan yanada takomillashdi. Inchunun, barcha davrlarda, har qanday sharoitda ham o'z ona tiliga va uning nufuzi, ravnaqiga e'tibor qaratgan davlat, millat, xalq taraqqiyot karvonidan ortda qolmaydi[1]. Shu boisdan ham ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan tilimizni "biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur"[2,87].

Til va adabiyot o'zaro ajralmas, et bilan tirnoq darajasidadir. Mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotganligi, badiiy adabiyotimiz mavzular ko'lami jihatidan ham, janrlar nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotganligi, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo'layotganligi ma'naviyatli kishilarni quvontiradi, albatta.

Keyingi yillarda tilshunoslarimiz e'tibori (antroposentrik nuqtayi nazardan) alohida olingan shoir va yozuvchilarning individual uslubi, badiiy matn va u bilan bog'liq muammolar yechimini topishga qaratilayotganligi ham til va adabiyotning o'zaro aloqadorligi taqozosidan kelib chiqmoqda. Shu asosda tilshunoslikda matn lingvistikasi, lingvopoetika kabi sohalar shakllanib ulgurdi desak, xato bo'lmaydi. Demak, hozirgi kunda aksariyat tilshunoslar e'tiborini badiiy matnlarda olamning lisoniy manzarasi qay darajada aks etganligini shaxs~til~nutq~me'yor prizmasida tadqiq etish masalasi ko'proq tortmoqda. Ishga bu tarzda amaliy yondashish, tabiiyki, "kognitiv tahlilning bir turi, uning ma'lum bir ko'rinishda namoyon bo'lishi" hisoblangan lingvistik tahlilni taqozo etadi.

Badiiy asar tilini o'rganish – keng qamrovli jarayon, u nafaqat adabiyotshunoslikka oid badiiy g'oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, badiiy mahorat, balki tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi

tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog‘lanib, o‘zining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Ishga mana shu tarzda kompleks yondashish lingvopoetika uchun kutilgan natijalarni beradi.

Rus olimi V.P.Grigorevning “Поэтика слова” (M.: Наука, 1979) kitobi “Лингвопоэтика и стилистика” faslida “lingvopoetikani tilshunoslik fanlari qatoriga qo‘yish ham, adabiyotshunoslik fanlari sirasiga kiritish ham to‘g‘ri emas; lingvopoetika tilshunoslik, adabiyotshunoslik va shevashunoslik fanlarida erishilgan yutuqlarni matn tahliliga tatbiq etib, filologiyaning yaxlitligini ta‘minlashni o‘z zimmasiga olgan filologik fandır”, degan edi. Darhaqiqat, lingvopoetika tilning yashirin imkoniyatlarini o‘zida namoyon etuvchi filologik fan ekanligi bilan ahamiyatlidir. Zero, jahon tajribasi ko‘rsatmoqdaki, istalgan tilning ijtimoiy xarakterini o‘rganishni individual shaxs nutqi tadqiqidan boshlash to‘g‘ri yo‘l, bu murakkab, ayni vaqtda keng qamrovli lingvopersonologik tahlil jarayoni bo‘lib, uni o‘rganish, tilshunoslikning shaxs nutqi, ijtimoiylik bilan bog‘liq soha sifatida alohida tatbiq etish o‘zbek tilshunosligining bugungi kun dolzarb muammolaridan biridir.

Til vositalarining lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlash badiiy matnlarga tayanishni, qator shoir va yozuvchilar asarlarini tahlil doirasiga tortishni taqozo etar ekan, o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos ovozga ega shoira Halima Xudoyberdiyeva she‘riyati va uning o‘ziga xos xususiyatlarini shu yo‘nalishda tadqiq etmoqlik ham o‘zbek tili va uning nutqiy ifodalanishi imkoniyatlarini ko‘rsatib berishga xizmat qila oladi. Aytish zarurki, shoira Halima Xudoyberdiyeva she‘riyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari hozirgacha til nuqtayi nazaridan maxsus tadqiqot manbayi bo‘lgan emas. Demak, o‘zbek xalqining otashqalb, o‘ziga xos uslub va ovozga ega bo‘lgan shoirasi Halima

Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetik xususiyatlarining tadqiqot obyekti sifatida maxsus tahlilga tortilishi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida matn tahlili bilan bog'liq holda yuzaga kelgan lingvopoetikaning alohida yo'nalish sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishida X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoyev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzayev, S.Karimov, B.Yo'ldoshev, M.Yo'ldoshev, S.Boymirzayeva kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi [3]. Ular alohida olingan ijodkorlar asarlarini tili va uslubi, asarlarda qo'llanilgan lingvopoetik vositalarning o'ziga xos xususiyatlarini maxsus o'rganib salmoqli ishlarni amalga oshirdilar.

Hikoyalar tilining badiiyatini ta'minlovchi leksik-stilistik vositalarni aniqlash bo'yicha tadqiqot olib borgan A.Hasanov shunday fikrlarni bildiradi: "Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so'z tanlash san'ati bilan belgilanadi. Bu o'z o'rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, ya'ni badiiy tafakkurini, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqati – lingvistik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi. Chunki yozuvchi uslubida san'atkor tomonidan estetik jihatdan qo'llangan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan ichki bog'liqlik asosida birlashadi[3].

Lingvopoetik tadqiqotlar ichida S.Karimovning "Zulfiya asarlari lingvostilistikasi" nomli monografiyasi alohida e'tirofga loyiq. Mazkur monografiyada xalqimizning ardoqli shoirasi Zulfiya Isroilovanning so'zdan foydalanish mahorati atroflicha ochib berilgan. Tom ma'noda, ushbu monografiya o'zbek lingvopoetikasida yaratilgan, yaratilayotgan ishlar uchun etalon vazifasini o'tay oladi.

Jahon lingvistikasida, jumladan, rus tilshunosligida lingvopoetika yo'nalishida yuzlab tadqiqotlar amalga oshirilganligi haqida internet sahifalarida

ma'lumot berilganki, bu ma'lumot rus tilshunosligida mazkur sohaning shakllanishi va taraqqiy etishi ancha ilgari boshlanganligini ko'rsatadi. Agar antroposentrik tilshunoslik (lingvopersonologiya) tilshunoslikning alohida sohasi sifatida XIX asrning 20-yillarida G'arbiy Yevropa hamda Rossiyada shakllanib, keyinchalik keng ko'lamda taraqqiy etganligini, uning nazariy asoslari g'arb va rus olimlari V.fon Gumboldt, Boduen de Kurtene, G.Shteyntal, V.Vundt, A.A.Potebnya, G. Ostgof, K. Brugman, G.Paul, D.Ə.Rozental, M.A.Telenkova, A.V.Puzirev, A.A.Lipgart tadqiqotlarida ishlab chiqilgan[3]ligini inobatga olsak, lingvopersonologiyaning bir tarmog'i bo'lmish lingvopoetika yo'nalishi yevropa va rus tilshunosligida ikki asrdan beri mavjud. Chunonchi,

V.Gumboldt, V.V.Vinogradov, L.A.Golyakova, I.N.Suxix, V.I.Tyupa, N.D.Tamarchenko, O.I.Fedotov kabi yetakchi olimlarning darslik va qo'llanmalari[3] shular jumlasidandir. Shuningdek, bu borada qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganligini ham e'tirof etish joiz.

O'zbek tilshunosligida jadid asarlari tili (Y.Saidov), Anvar Obidjon she'rlarining lingvopoetikasi (N.Sadinova), Sirojiddin Sayyid asarlari lingvopoetik tadqiqi (S.Zohidova), Usmon Azim she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari (M.Tillayeva), Zulfiya Mo'minova she'riyati lingvopoetikasi (Sh.Masutova) kabi turli hajmdagi fundamental va kichik tadqiqot ishlari ham mavjud. Ammo Halima Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetik jihatdan maxsus tadqiq etilgan emaski, bu shoira ijodini o'zbek fanida ham til, ham adabiyot nuqtayi nazaridan tahlil etish ehtiyoji borligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. <https://www.pv.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – 26-yanvar, 2020-yil.
2. <https://www.pv.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2019-yil 21-oktabr.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

4. Yusupova D., Yuldasheva D. Halima Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetikasi. Monografiya. – Xalqaro nashr “Globe international Publishing Group” ISBN: 978-620-0-60879-6.– 2020.–125 c.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Болтаева Махбуба Шариповна

преподаватель кафедры узбекского и русского языков ПИБухГУ

Неъматова Динара

студентка направления русский язык и литература

в иноязычных группах ПИБухГУ

Аннотация: В статье говорится о роли интерактивного метода в высшем образовании, об образовательных технологиях и их эффективности и об основных методических принципах интерактивного обучения.

Ключевые слова: интерактивное обучение, компетенция, разминки, обратная связь, обучение, инновация, методические принципы, дискуссия.

Современный период социально-экономического развития определяет необходимость значительного повышения качества подготовки специалистов. С одной стороны, это связано с научно-техническим прогрессом, последствия которого проявляются практически во всех сферах профессиональной и социальной деятельности людей, в том числе и в сфере образования, с другой стороны, с комплексными исследованиями, обеспечивающими создание, применение и распределение знаний в социально-экономическом пространстве, где инновации становятся системным явлением.

Большое значение имеет и то, что научно-технический прогресс предъявляет не только новые требования к самому человеку, но и к системе высшего профессионального образования. Возникшее противоречие между растущим объемом информации и кризисом дидактических методов

подготовки специалистов требует перехода к принципиально новым технологиям профессионального обучения. Все более очевидной становится необходимость изменения приоритетов профессиональной подготовки специалистов в направлении развития творческого мышления, становления индивида как субъекта саморазвития, овладения им инструментами управления собственной образовательной деятельностью.

В связи с этим переориентация системы высшего профессионального образования на инновационную деятельность становится важнейшим инструментом в обеспечении конкурентоспособности выпускников на рынке труда. Кроме того, инвестиционная привлекательность вуза, зачастую зависит от инновационного характера развития научной, образовательной и практической деятельности субъектов образовательного процесса, их включенности в национальную инновационную систему. Весьма актуальной в данных условиях становится оптимизация внедрением в учебный процесс инновационных методов и средств обучения за счет максимальной консолидации ресурсов вуза, развития научно-методической и материально-технической базы, обеспечения нормативно-правового, информационно-статистического и дидактического сопровождения.

В традиционной организации учебного процесса в качестве способа передачи информации используется односторонняя форма коммуникации. Суть ее заключается в трансляции преподавателем информации и в ее последующем воспроизведении обучающимся. Обучающийся находится в ситуации, когда он только читает, слышит, говорит об определенных областях знания, занимая лишь позицию воспринимающего. Иногда односторонность может нарушаться (например, когда обучающийся что-либо уточняет или задает вопрос), и тогда возникает двусторонняя коммуникация.

Односторонняя форма коммуникации присутствует не только на лекционных занятиях, но и на практических. Отличие только в том, что не

преподаватель, а обучающийся транслирует некоторую информацию. Это могут быть ответы на поставленные преподавателем до начала практикума вопросы, рефераты, воспроизведение лекционного материала. Такая форма коммуникации не отвечает принципам компетентностного подхода.

В интерактивном обучении все участники взаимодействуют друг с другом, обмениваются информацией, совместно решают проблемы, моделируют ситуации, оценивают действия других и свое собственное поведение, погружаются в реальную атмосферу делового сотрудничества по разрешению проблемы.

Преподавание, открытое в коммуникативном плане, характеризуют следующие утверждения:

1. Обучающиеся лучше овладевают определенными умениями, если им позволяют приблизиться к предмету через их собственный опыт.
2. Обучающиеся лучше учатся, если преподаватель активно поддерживает их способ усвоения знаний.
3. Обучающиеся лучше воспринимают материал, если преподаватель, с одной стороны, структурирует предмет для более легкого усвоения, с другой стороны, принимает и включает в обсуждение мнения обучающихся, которые не совпадают с его собственной точкой зрения.

Компетентностный подход при организации образовательного процесса требует от преподавателя изменения процесса обучения: его структуры, форм организации деятельности, принципов взаимодействия субъектов. А это означает, что приоритет в работе педагога отдается диалогическим методам общения, совместным поискам истины, разнообразной творческой деятельности. Все это реализуется при применении интерактивных методов обучения.

Учебный процесс организован таким образом, что практически все обучающиеся оказываются вовлеченными в процесс познания, они имеют

возможность понимать и рефлексировать по поводу того, что они знают и о чем думают. Особенность интерактивных методов – это высокий уровень взаимно направленной активности субъектов взаимодействия, эмоциональное, духовное единение участников.

В ходе диалогового обучения студенты учатся критически мыслить, решать сложные проблемы на основе анализа обстоятельств и соответствующей информации, взвешивать альтернативные мнения, принимать продуманные решения, участвовать в дискуссиях, общаться с другими людьми. Для этого на занятиях организуются парная и групповая работа, применяются исследовательские проекты, ролевые игры, идет работа с документами и различными источниками информации, используются творческие работы.

Студент становится полноправным участником учебного процесса, его опыт служит основным источником учебного познания. Педагог не даёт готовых знаний, но побуждает участников к самостоятельному поиску и выполняет функцию помощника в работе. Интерактивные формы проведения занятий:

- пробуждают у обучающихся интерес;
- поощряют активное участие каждого в учебном процессе;
- обращаются к чувствам каждого обучающегося;
- способствуют эффективному усвоению учебного материала;
- оказывают многоплановое воздействие на обучающихся;
- осуществляют обратную связь (ответная реакция аудитории);
- формируют у обучающихся мнения и отношения;
- формируют жизненные навыки;
- способствуют изменению поведения.

Заметим, что важнейшее условие для этого — личный опыт участия преподавателя в тренинговых занятиях по интерактиву. Научиться им можно только путем личного участия в игре, «мозговом штурме» или дискуссии.

Список литературы:

1. Косолапова М.А. Технологические подходы в организации профессиональной подготовки к педагогической деятельности в высшей школе /Косолапова М.А.; Томскийгос. пед. ун-т. – Томск, 2007. – 177 с. – Библиогр. : с. 104 – 110. Деп. В ИНИОН РАН № 60426
2. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Сыманюк Э.Э. Модернизация профессионального образования: Компетентностный подход. – М.: МПСИ, 2005. – 216 с.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34–42; Компетентностный подход... // Высшее образование сегодня. – 2006. - № 6. – С. 20-26.
4. Карпенко М. Новая парадигма образования XXI в.// Высшее образование в России.–2007.- №4. – С.93.

ҲУҚУҚ ВА ТИЛ ИЛМЛАРИНИНГ ТАРАҚҚИЁТИ

Равшанов Абдулазиз

ТДЮУ 2-курс талабаси

Ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилик тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир.

Шавкат Мирзиёев

Мамлакатимизда ҳар йили 21 октябрь “Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган кун” сифатида нишонланиши йўлга қўйилдики, бу анъана эндиликда халқимизнинг давлат тилига бўлган эътиборини, ҳурматини янада ошишига туртки бўлмоқда. Иккинчидан, Ўзбекистон Президенти «Ўзбек

тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони қабул қилинган уни ҳуқуқий томондан янада мустаҳкамлаган қадам бўлди. Чунки фармонга кўра, ўзбек тилининг халқ ижтимоий ҳаётида ва халқаро миқёсдаги обрў-эътиборини тубдан ошириш, униб-ўсиб келаётган ёшларимизни ватанпарварлик, миллий анъана ва қадриятларга садоқат, улуғ аجدодларимизнинг бой меросига ворислик руҳида тарбиялаш, мамлакатимизда давлат тилини тўлақонли жорий этиш масалаларига алоҳида талаб ва вазифалар белгиланганди. Энг асосийси, фармонда 21 октябрь санасини «Ўзбек тили байрами куни» деб эълон қилингани барча аҳолининг, айниқса, ёшларимизнинг қувонтирган хабар эди. Чунки, фармон асосида Вазирлар Маҳкамаси тузилмасида янги Давлат тилини ривожлантириш департаменти ташкил этилгани ҳам таҳсинга сазовор. Зеро, дунёдаги етти мингдан ортиқ тилдан фақат 200 га яқини давлат тили ёки расмий тил мақомига эга эканига эътибор қаратсак, ўзбек тилига давлат тили мақомини ҳуқуқий жиҳатдан муҳраб берган мазкур қонуннинг халқимиз ҳаётидаги ўрни беқиёсдир. Бугун ўзбек тилимиз асрлар синовидан ўтган, ҳамда бошқаларга ибрат бўла оладиган тилдаражасига кўтарилгани билан ғуруланаман. Шу ўринда XX аср бошида олти тилда -ўзбек, араб, форс, хинд, турк, ва рус тилларида луғат тузган Исҳоқхон Ибратнинг «Бизнинг ёшлар албатта бошқа тилни билиш учун саъй-ҳаракат қилсинлар, лекин аввал ўз она тилини кўзларига тўтиё қилиб, эҳтиром кўрсатсинлар», деган сўзларини эслашнинг ўзи кифоя. Ўзбек тили дунёдаги энг бой ва чуқур тарихий илдизларга эга бўлган буюк тиллардан ҳисобланади. Тошкент давлат юридик университетининг 2-босқич талабаси бўлиб, ҳозирда Ғафур Ғулом номидаги стипендантман. Шу боис, севимли шоиримиз Ғафур Ғулом ижодига қизиқар эканман, яна бир бор тилшунослик ҳамда унинг йўналишларининг серқирралигига амин бўлмоқдаман. Иккинчидан инглиз тилидан ҳам IELTS сертификатига эгаманки, Ибрат, Махмудхўжа Бехбудий

каби алломаларимизнинг тилни ўрганиш зарурлиги ҳақидаги фикрларининг бугунги кундаги аҳамиятини ҳам англаб бормоқдаман. Шу учун ҳам тилшунослик йўналишлари, бадий матн таҳлилини ҳам қизиқиб ўрганаман. Шундан билдимки, ҳар бир соҳанинг умумий ва хусусий йўналишлари мавжуд бўлиб, ўзига хос жиҳатлари билан ажралиб туради. Жумладан, тилшунослик соҳасининг ҳам хусусий ва умумий тилшунослик соҳалари мавжуд. Хусусий тилшунослик маълум бир тилнинг луғат таркиби, фонетик системаси ва грамматик қурилиши, шунингдек, тарихий тараққиёт йўлларини ўрганса, умумий тилшунослик эса ундан фарқланган ҳолда, тилнинг келиб чиқиши, ижтимоий моҳиятини, жамиятдаги ўрни, вазифасини, тараққиёт йўллари, тил билан тафаккурнинг бир-бирига узвийлигини, барча тилларнинг ўзаро муносабатини ўрганади ҳамда тилларни текшириш усуллари яратади. Умумий тилшунослик айрим тилларни ёки бир гуруҳ тилларни ўрганиш, текшириш натижасида аниқланган тил ҳодисаларини, тил далилларини умумлаштириб, умумий хулосалар чиқаради ва худди шу асосда тил қонуниятларини аниқлаб беради. Шу нуқтаи назардан юридик тил, юридик атамалар бизнинг соҳамизга боғлиқ бўлса, бадий матн таҳлил этишда Гафур Гулом ижодининг серқирра жиҳатлари менга мазкур йўналишнинг бугунги кундаги аҳамияти ҳатто долзарблигини кўрсатади. Шу учун ҳам, мен мазкур илмий-амалий анжуманда иштирок этишни мақсад қилдим. Тасаввур этинг, севимли шоиримиз Гафур Гуломнинг ҳар бир мисрасидаги сатрлар: соф туйғуларни акс эттирганки, бу мисралар шоир билан халқни, давр билан воқеликни бирлаштирган десам, менимча хато бўлмайди. Гафур Гулом шеърятда ўз мактабини, ўз услубини яратган шоирлардан биридир. Эътибор берсак, “Соғиниш” шеърисидаги ота образида ўзбек миллатига хос кадриятларни ўзида мужассамлаштирганлиги билан ажралиб туради. Жумладан,

Иблиснинг ғарази бўлган бу уруш
Албатта, етади ўзин бошига.
Ўғлим омон келар, ғолиб, музаффар,
Гард ҳам кўндирмасдан қора қошига.
Не қилса отамен, мерос ҳиссиёт...
Жондан соғинишга унинг ҳақки бор,
Кутаман, узоқдан кўринса бир от,
Келаяпти, дейман кўринса ғубор.

Албатта, ота соғинчи, фарзандини соғ-омон кўришга интилиш азалий қадриятларимиздан бўлиб, бугунгача давом этмоқда. Зеро, Ўзбекистон ёшлари дунёнинг қайси мамлакатада ўқишга, ишга кетганми, ота-оналар фарзандиги бир бўлак нон тишлатиб уйнинг деворига осиб қўйиш анъанасини кўпчилик яхши билишади. Насибаси уйда кутаётгани эса, чегардами, ҳарбий қисмдами, иш ёки ўқишда юрган ҳамюртимизни ўз уйига чорлаб туради. Мазкур ҳолатни мен яна Ғафур Ғуломнинг “Соғиниш” шеъри билан давом этишни жоиз топдим. Жумладан, унда шундай сатрлар бор:

Сизларни келди, деб эшитган куни –
Ўзинг тўқиб кетган катта саватда
Тўлатиб шафтоли узиб чиқаман,
Ғалаба кунлари яқин, албатта.
Эй ўғлим, жонгинанг саломат бўлсин,
Ўз боғинг, ўз меванг, данагин сақла.
Шу мерос боғингни ўз кўлингга ол,
Менга топширилган меросий ҳақ-ла.

Албатта, бундай серқирра ижод билан тўғридан-тўғри муносабат ўрнатишгина шахсий таассурот ва тасаввурни юзага келтиради. Айниқса, бўлажак ҳуқуқшунос учун ҳам тилшунослик, ҳам бадиий матн таҳлили ўта долзарбдир. Чунки давлат мустақиллиги, давлат ва ҳуқуқ, давлат тили

тушунчалари бир-бири билан чамбарчас боғлиқ ҳодисалар ҳисобланади. Бирисиз бошқаларининг бўлиши амри маҳол. Умуман, тил ва ҳуқуқ инсониятнинг энг қадимий ижтимоий ҳодисаларидан биридир. Инсоннинг пайдо бўлиши билан бирга унда алоқа алмашуви эҳтиёжи пайдо бўлди. Кейинчалик эса жамият қарор топиши билан ҳуқуқ вужудга келди. Шунга кўра тил ҳуқуққа нисбатан анча қадимийдир. Ҳуқуқий билимларни омма ўртасида ёйишда тилнинг вазифаси ҳақида ҳуқуқшунос олим П. Верховский “Тил давлат органлари билан фуқаро ўртасида алоқа воситаси бўлиб хизмат қилади” – деб тўғри таъкидлаганига яна бир бор ишонч ҳосил қилдим. Ўзбекистон бугун мустақил ва янги Ренессанс остонасида турган экан, албатта бунда ўз она тилига эга бўлиши билан бирга унинг мақоми ва нуфузини ошириши табиийдир. Ахир, ҳар қандай мустақил мамлакат ўз яхлит ҳуқуқий тизимига ҳамда давлат тилига эга бўлади. Мамлакат ижтимоий ҳаёти ана шулар воситасида шаклланади ва ривожланади. Шундай экан, ҳуқуқ ва тилнинг камол топиши жамиятнинг юксалишида муҳим аҳамият касб этади, жамият ёки ҳуқуқнинг ривожига эса тил тараққиётида акс этади. Бу давлат ва жамият ривожига, қолаверса, ҳуқуқ ва тил илмларининг тараққиётига ҳам катта замин ҳозирлайди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5058351>
2. 2020-2030 йилларда ўзбек тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш КОНЦЕПЦИЯСИ. <https://lex.uz/docs/5058351>
3. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 12 декабрдаги “Давлат тилини ривожлантириш департаменти тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” ги 984-сон қарори

4. 4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида“ 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон Фармони <https://lex.uz/docs/4561730>
5. Верховский П. Письменная деловая речь. М.: Техника управления, 1930. — 201 с.
6. Гафур Гулом шеърлари. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/gafur-gulom/>

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Болтаева М.Ш. – ПИБухГУ

